

TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI



TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS

## O'QUV USLUBIY MAJMUA



TOSHKENT- 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-  
METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**“BANK ISHI”  
YO'NALISHI  
«TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI  
BOSHQARISH»  
MODULI BO'YICHA**

**O' Q U V – U S L U B I Y  
M A J M U A**

**Toshkent 2023**

**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** TDIU professori,, i.f.n. Toymuxamedov I.

**Taqrizchilar:** TMI professori, i.f.d. Omonov A.A.

TDIU dotsenti, i.f.n. Tojiyev R.R.

**Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 23 dekabragi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## MUNDARIJA

I. Ishchi dastur.....	4
II. Modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	12
III. Nazariy materiallar.....	17
IV. Amaliy mashg'ulot materiallari.....	81
V. Keyslar banki.....	88
VI. Mustaqil ta'lim mavzulari.....	90
VII. Glossariy.....	93
VIII Adabiyotlar ro'yxati.....	96

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Mazkur ishchi dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagи "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish hamda amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lif sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni O'zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichida oliy ta'lif vazifalari, ta'lif-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning normativ-huquqiy hujjatlari, ilg'or ta'lif texnologiyalarini va pedagogik mahorat, ta'lif jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlaridan foydalanish va masofaviy o'qitishning zamonaviy shakllarini qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning bank risklarini boshqarish doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### Modulning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- “Bank ishi” yo’nalishida pedagog kadrlarning zamonaviy kasbiy bilim, ko’nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- bank tizimi va alohida olingan banklar faoliyatida yuzaga keladigan risklarning turlari va sabablari;
- bank risklarini baholash usullari;
- banklarda risklarni boshqarish tizimi va usullari, qarorlar qabul qilish jarayonlari;
- tijorat banklari risklarini boshqarish fanini o’qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;
- tijorat banklari risklarini boshqarish sohasidagi o’qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg’or xorijiy tajribalarini o’zlashtirish;
- “Bank ishi” yo’nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o’zaro integratsiyasini ta’minlash.

**Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini hamda kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar:**

“Jamiyat rivoji va ta’lim-tarbiya jarayonining innovatsion masalalari”, “Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik hujjatlari”, “Ilg’or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat”, “Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash”, “Amaliy xorijiy til”, “Tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari” modullari bo’yicha tinglovchilarning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar tegishli ta’lim sohasi bo’yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo’yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Ushbu fan bo’yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko’nikma, malaka hamda kompetentsiyalarga ega bo’lishlari talab etiladi:

**Tinglovchi:**

- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni;
- modulli-kredit tizimi mohiyatini;
- bank risklari tushunchasi va uning tasniflanishini;
- Bank risklarini boshqarish jarayonlarida tizimli tahlil xususiyatlarini;
- bank risklarini boshqarish tizimidagi yangi innovatsiyalarini;
- har qanday sharoitda tijorat banklari faolyatini tartibga solish me’yorlaridan kelib chiqib riskni boshqarish jarayonini tashkil etishini o’rganishi;
- bank riskini boshqarish(aniqlash, baholash, o’lchash va h.k.), u bo’yicha qarorlar qabul qilish haqida yetarlicha bilimga ega bo’lishi;
- risk manbalarini aniq matematik hisoblash va tahliliy fikrlash borasida mukammal tayyorgarlika ega bo’lishi;
- riskni boshqarish bo’yicha asosiy keng qamrovli nazariyalar va usullarni tushuntira olishi;

- risk boshqaruvida ishlataladigan ma'lumotlarni tahlil qilish, optimallashtirish va hisoblashga oid texnikalar bilan ishlashni ***bilishi kerak***.

***Tinglovchi:***

- bank reytinglari va ularni aniqlash;
- riskni boshqarish modellari va asosiy tamoyillari haqida tushuncha va bilimga ega bo'lish hamda ularni amaliyatga tatbiq qilish;
- bank tizimi va bank muassasalarining amaliy faoliyatiga aloqador bo'lgan iqtisodiy axborotlar va ma'lumotlardan asosiy manbalar yordamida tanishib chiqanligini ko'rsatish;
- bank aktivlari va passivlarini tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlarni mohiyatini tushuntirish, ularning funktsiyalari va operatsiyalarini misol qilib keltira olish.
- o'qish va o'rganish davomida o'zini bank risklarini muvaffaqiyatli va erkin boshqarishni o'rganish, odamlarni va bank operatsiyalarini boshqarish va qaror qabul olish qobiliyatlari mavjudligini namoyish ettira olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim***.

***Tinglovchi:***

- bank tizimi va alohida olingan banklar faoliyatida yuzaga keladigan risklarning turlari va sabablari;
- bank risklarini baholash usullari;
- banklarda risklarni boshqarish tizimi va usullari, qarorlar qabul qilish jarayonlari;
- kredit riski va uning kelib chiqish sabablar, uni baholash va boshqarish usullari;
- tijorat banklari faoliyatida foiz riski va uni boshqarish usullari
- banklarda operatsion risk, uni baholash va boshqarish usullari;
- tijorat banklarining xalqaro operatsiyalarini bilan bog'liq vlyuta risklari;
- tijorat banklarida likvidlilik riski, uni boshqarish va qarorlar qabul qilish usullari;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatidagi risklarni boshqarish, nazorat va qaror qabul qilish borasidagi talablari;
- rivojlangan davlatlar banklari amaliyotida risklarni baholash va boshqarish hamda boshqalarga ***oid malakalariga ega bo'lishi zarur***.

***Tinglovchi:***

- bankdar faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldindan sezabilish, bank operatsiyalarining riskga ta'sirchanligini aniqlay olish, ularning tuzilishi va bog'liqligini aniqlash;
- bank faoliyati va uning ko'rsatkichlarni tizimli ravishda tahlil qilish va ularni mijozlarga tushuntirish;
- statistik tahlillar asosida bank faoliyatini strategik rejasini va uni faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni boshqarish rejalarini ishlab chiqish;
- bank risklarining turlari va ularning ta'sir darajasini ifodalovchi

ko'rsatkichlar mohiyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lishni va ular asosida xulosalar chiqarish;

- bank faoliyatida yuzaga keladigan risklarni aniqlash, tahlil qilish, baholash va ularni samarali boshqarish bo'yicha qaror qabul qilish **kompetentsiyasiga ega bo'lishi zarur.**

### **Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamонавиy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ta'lim qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining masofaviy ta'lim tizimidagi tegishli o'quv-metodik resurslarini mustaqil ravishda o'zlashtirish shaklida amalga oshiriladi.

Shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonida tinglovchi kasbiy faoliyati natijalarini va talabalar uchun yaratilgan o'quv-metodik resurslarini "Elektron potrfolio" tizimiga kiritib borishi lozim.

### **Dasturning axborot-metodik ta'minoti**

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbaalardan foydalaniladi.

## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					Mustaqil ta'lif	
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi					
			Jami	jumladan				
1.	Bank risklari, mohiyati, turlari va tasnifi.	4	4	2	2	-		
2.	Bank risklarini yuzaga keltiruvchi va ularning darajasiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi	4	4	2	2	-		
3.	Banklarda risklarni boshqarish jarayoni bosqichlari va modellari	4	4	2	2	-		
<b>Jami:</b>		<b>12</b>	<b>12</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>-</b>		

### **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-mavzu. Bank risklari, mohiyati, turlari va tasnifi.**

Bank risklari tushunchasi va uning mohiyati. Bank risklarining turlari va uning tasnifi. Bank risklarini boshqarishning nazariy asoslari. Bank risklarining turlari va boshqarish usullari. Banklar faoliyatida risklarning yuzaga kelish ehtimoli va uning bank faoliyatiga tasiri. Bank risklarini boshqarish tizimi va uning elementlari. Banklarda risk-menejment tizimi: tarkibi va joriy qilish mexanizmi.

#### **2-mavzu. Bank risklarini yuzaga keltiruvchi va ularning darajasiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi**

Risklarni yuzaga keltiruvchi va ularning darajasiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi. Banklarning moliyaviy risklarini tahlil qilish usullari. Risklarni boshqarish usullari. Banklar faoliyatida risklarni boshqarish bo'limining vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan risklarni boshqarish bo'limiga belgilangan talablar. Bank risklarining tasnifi va qiyosiy tavsifini shakllantirish va baholash. Bank risklarining xarakterli xususiyatlari. Bank risklarini aniqlashga yondashuvlarni shakllantirish. Bank risklarining sabab va oqibatlarini o'rganish va ularni guruhash.

#### **3-mavzu. Banklarda risklarni boshqarish jarayoni bosqichlari va modellari.**

Moliyaviy xavflarni boshqarish jarayonining bosqichlari. Banklarda kredit riskini boshqarish usullari. Kredit riskini qarorlar qabul qilish orqali boshqarish

usullari. Jalon amaliyotida kredit riskini boshqarish tajribasi. Kredit riskiga tasir qiluvchi omillar. Rivojlangan davlatlar va mahalliy banklar amaliyotida kredit risklarni qoplash bo'yicha zaxiralar shakllantirish bo'yicha qaror qabul qilish va choralar ishlab chiqish masalalari. Kredit riskini sug'urta qilish, riskni o'tkazish, riskni taqsimlash masalalari va bu borada jalon tajribasi. Kredit riski bo'yicha Bazel qo'mitasi talablari. Risk qiymati VAR (value at risk). O'zbekiston banklari amaliyotida kredit risk bo'yicha talablar va ularga amal qilish masalalari.

Foiz riski mohiyati va yuzaga kelish sabablari, unga tasir qiluvchi omillar. Tijorat banklarida foiz riskini boshqarish bo'yicha qaror qabul qilish tizimini tashkil qilish. Banklarda foiz riskini baholash va uni boshqarish usullari. Tijorat banklari passivlari va aktivlari bilan bog'liq risklarni boshqarish. GEP - tahlil orqali foiz riskini boshqarish. Foiz riskini boshqarishda qaror qabul qilish bo'yicha jalon tajribasi. Foiz riski bo'yicha BAZYEL talablari. Banklarda foiz riskini samarali boshqarish yo'llari.

Operatsion risk yuzaga kelishining ichki va tashqi sabablari. Operatsion risk bo'yicha BAZYEL qo'mitasining tavsiyalari va talablari. Operatsion riskni baholash va boshqarish usullari bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Tijorat banklarining fond bozoridagi operatsiyalari riski va portfel riskini baholash va boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Tijorat banklarida likvidlilik va valyuta risklarining sabablari va turlari, bank likvidiligi va kapitali bilan bog'liq risklarni boshqarish bo'yicha qaror qabul qilish va strategiya ishlab chiqish.

## **AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot:**

#### **Bank risklari, mohiyati, turlari va tasnifi.**

Bank risklari tushunchasi va uning mohiyati. Bank risklarining turlari va uning tasnifi. Bank risklarini boshqarishning nazariy asoslari. Bank risklarining funktsiyalari va boshqarish usullari. Banklar faoliyatida risklarning yuzaga kelish ehtimoli va uning bank faoliyatiga tasiri. Bank risklarini boshqarish tizimi va uning elementlari. Banklarda risk-menejment tizimi: tarkibi va joriy qilish mexanizmi.

### **2-amaliy mashg'ulot:**

#### **Bank risklarini yuzaga keltiruvchi va ularning darajasiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi**

Risklarni yuzaga keltiruvchi va ularning darajasiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi. Banklarning moliyaviy risklarini tahlil qilish usullari. Risklarni boshqarish usullari. Banklar faoliyatida risklarni boshqarish bo'limining vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan risklarni boshqarish bo'limiga belgilangan talablar. Bank risklarining tasnifi va qiyosiy tavsifini shakllantirish va baholash. Bank risklarining xarakterli xususiyatlari. Bank risklarini aniqlashga yondashuvlarni shakllantirish. Bank risklarining sabab va oqibatlarini o'rganish va ularni guruhash.

### **3-amaliy mashg'ulot:**

#### **Banklarda risklarni boshqarish jarayoni bosqichlari va modellari**

Moliyaviy xavflarni boshqarish jarayonining bosqichlari. Juhon amaliyotida kredit riskini boshqarish tajribasi. Kredit riskiga tasir qiluvchi omillar. Rivojlangan davlatlar va mahalliy banklar amaliyotida kredit risklarni qoplash bo'yicha zaxiralar shakllantirish bo'yicha qaror qabul qilish va choralar ishlab chiqish masalalari. Kredit riskini sug'urta qilish, riskni o'tkazish, riskni taqsimlash masalalari va bu borada jahon tajribasi. Kredit riski bo'yicha Bazel qo'mitasi talablari. Risk qiymati VAR (value at risk). O'zbekiston banklari amaliyotida kredit risk bo'yicha talablар va ularga amal qilish masalalari.

Foiz riski mohiyati va yuzaga kelish sabablari, unga tasir qiluvchi omillar. Banklarda foiz riskini baholash va uni boshqarish usullari. Tijorat banklari passivlari va aktivlari bilan bog'liq risklarni boshqarish. GEP - tahlil orqali foiz riskini boshqarish. Foiz riski bo'yicha BAZYEL talablari. Banklarda foiz riskini samarali boshqarish yo'llari.

Operatsion risk yuzaga kelishining ichki va tashqi sabablari. Operatsion risk bo'yicha BAZYEL qo'mitasining tavsiyalari va talablari. Operatsion riskni baholash va boshqarish usullari bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Tijorat banklarining fond bozoridagi operatsiyalari riski va portfel riskini baholash va boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Tijorat banklarida likvidlilik va valyuta risklarining sabablari va turlari, bank likvidiligi va kapitali bilan bog'liq risklarni boshqarish bo'yicha qaror qabul qilish va strategiya ishlab chiqish.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:


- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rيلayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTYERFAOL TA'LIM MYETODLARI.

### Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinushi.

#### Muzokaralarni o'tkazish jarayonining tuzilishi



**Bahs** – o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

#### Anjuman-bahsining roli

**Olib boruvchi** – o'rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning daliligini, tushuncha va atamalarning aniqligiga e'tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o'tishini kuzatadi.

**Opponent** – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so'zlovchining assosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o'z variantini taqdim etishi zarur.

**Mantiqchi** – nutq so’zlovchi va opponent fiklaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsiyini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

**Psixolog** – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalga oshirib, kelishuvga erishadi, babsning mojaroga aylanishiga yo’l qo’ymaydi.

**Ekspert** –bahs usulining natijaviyligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyligini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qo’shgan hissasi to’g’risida fikrlarni bildiradi va boshqalar.

### «Aqliy hujum»

**Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo’roni)** – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbولي va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.


Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o’qib-o’rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko’nikmalarni shakllantirish, fikrlash inertsiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

•**To’g’ridan-to’g’ri jamoali aqliy hujum** – iloji boricha ko’proq fikrlar yig’ilishini ta’minlaydi. Butun o’quv guruhi (20 kishidan ortiq bo’lmagan) bitta muammoni hal etadi.


•**Ommaviy aqliy hujum** – mikro guruhlarga bo’lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

•Har bir guruh ichida umumiylar muammoning bir jihatni hal etiladi.

## Ko'rgazmali taqdim etish: grafik tashkil etuvchilar



## Venn diagrammasi



## SWOT-tahlil jadvali

**SWOT** – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:

**Strengths** – kuchli tomoni, korxonada ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;


**Weakness** – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi;

**Opportunities** – imkoniyatlar; korxona rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar;

**Threats** – xavflar; tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

Qoidaga ko’ra, SWOT – tahlilining muvaffaqiyati tashkilotga bog’liq bo’lmay, balki kelgusidagi strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda uning natijasi hisobga olinishiga bog’liq bo’ladi. Uni qo’llashda elementlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

### “Kuchlar tahlili” grafigi



### «Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o’qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxona rivojlanishi yoki muayyan biznes loyihasini amalga oshirishga xalaqit beruvchi to’siqlar joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta’siri hamda jiddiyligiga mos kelishi lozim bo’ladi.

So’ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni yengib o’tish vositalari strelka ko’rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafikning o’ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo’lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo'laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

### “Keys-stadi” metodi

**«Keys-stadi»** - inglizcha so'z bo'lib, («tsase» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rghanmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rghanish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rghanishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

#### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

## **Keys**

Amaliy vaziyat. Tijorat bankining faoliyat natijalari shuni ko'rsatadiki, bank kredit portfelining holati oldingi yillarga nisbatan muammoli kreditlar salmog'ining oshayotganligidan dalolat bermoqda. Bank boshqaruvi tomonidan ko'rilgan chora va tadbirlar natijasida kredit portfelning sifati ko'rsatkichi nisbatan yaxshilangan bo'lishiga qaramasdan kredit portfelining holati bundan 2 yil oldingiga qaraganda ancha tahlikali ekanligi siznibank faoliyatida ma'lum qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirish zarur ekanligiga undamoqda. Bank jamoasida ba'zi xodimlar o'rtasida ham e'tirozlar yuzaga kela boshladi.

Bunday holatda Siz bank rahbari yoki ijrochi sifatida qanday yo'l tutasiz?

1. Riskning yuzaga kelish sabablarini o'rganasiz va vaziyatni to'g'rilashga harakat qilasiz.

2. Risklarni aniqlash va ularni boshqarish bo'yicha qarorlarni tahlil qilib o'rganasiz.

3. Risklarni boshqarish bo'linmasi xodimi o'z vazifasini bajara olmayotganligi, uni o'z vazifasiga yondashuvi va qobiligi masalasiga e'tibor qaratasiz, mutaxassis vazifalarini o'zingiz bajarib vaziyatni to'g'rilaysiz.

4. Bankdagi riskli holatni oddiy hol deb qabul qilib o'z faoliyatning bilan odatdagidek mashg'ul bo'lasiz.

5. Yoki boshqacha yo'llarini topasiz.

### **III. NAZARIY MATYERIALLAR.**

#### **1-mavzu. Bank risklari, mohiyati, turlari va tasnifi.**

Reja:

**1.1** Bank risklari tushunchasi va uning mohiyati. Bank risklarining turlari va uning tasnifi.

**1.2** Banklar faoliyatida risklarning yuzaga kelish ehtimoli va uning bank faoliyatiga tasiri.

**1.3** Bank risklarini boshqarishning nazariy asoslari va boshqarish usullari.

**1.4** Banklarda risk-menejment tizimi: tarkibi va joriy qilish mexanizmi.

**Kalit so'zlar:** Risk, moliyaviy risklar, risklarni baholash, risklarni baholash modellari, korxona, tartibga soluvchi organ, baholash amaliyoti, investor, nazorat, tijorat banklari.

#### **Keltirilgan qisqartmalar ro'yxati**

YaIM Yalpi ichki mahsulot

MB Markaziy bank

AJ Aktsiyadorlik jamiyati

VAR Risk ostidagi qiymat

CvaR Riskning shartli qiymati

LVAR sozlangan likvidlik va risk ostidagi qiymat

SaR qisqa risk, o'rtacha yo'qotish

NPV sof diskontlangan daromad

IRR ichki daromadlilik darajasi

COSO -Tredvey Komissiyasining xomiy tashkilotlari qo'mitasi(AQSH)

AQSH Amerika Qo'shma Shtatlari

FERMA Risk-menejerlar Yevropa assosiyatsiya federatsiyasi standarti

ISO Xalqaro standartlashtirish tashkiloti

IRM Risk-menejment instituti

AIRMIC Risk-menejment va sug'urta assotsiyatsiyasi

ALARM Risk-menejment bo'yicha milliy forum

AS Avstraliya

NZS Yangi Zelandiya

IEC Risklarni baholash usullari(ko'rsatmalar)

MEK Riskni baholash bo'yicha qo'llanma

INTEK Rossiyada ilmiy texnik markaz

GOST R ISO Risklarni boshqarish.Tamoyillar va ko'rsatmalar

YADTM Yagona dasturiy-texnik majmua.

## **1.1. Bank risklari tushunchasi va uning mohiyati. Bank risklarining turlari va uning tasnifi.**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning joriy bosqichida korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv amaliyotlarini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, so'ngi yillarda jahonda va asosiy savdo hamkor davlatlarda sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni inobatga olib, ularning mamlakatimiz iqtisodiyotiga salbiy ta'sirining oldini olishga, ichki talab va real sektordagi investitsion faollikni rag'batlantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda barcha sohalarda ishlab chiqarish hajmlarining kengayishini ta'minlash orqali muvozanatlari iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishishga qaratilgan davomli makroiqtisodiy siyosat yuritilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarda zamonaviy boshqaruv usul va uslublarini joriy etishda muhim burilish yasadi<sup>1</sup>.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Har tomonlama mukammal va samarali boshqaruv tizimini yaratish – oldimizda turgan ulkan vazifalarni bajarishning asosiy shartidir."<sup>2</sup>

2022 yilda yillik inflyatsiya darajasini 9% gacha va 2023 yilda 5% hamda fiskal taqchillikni 3% gacha pasaytirish choralar ko'rilib, keyinchalik inflyatsiya va Davlat byudjeti taqchilligi ushbu ko'rsatkichdan oshmasligi ta'minlab boriladi;

Bunda, davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026 yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqariladi.

2023 yildan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12% gacha hamda bank, moliya va telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik yo'nalishlarida foyda solig'i stavkasi 15% gacha tushiriladi<sup>3</sup>.

Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O'zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi.<sup>4</sup>

Shu bilan birga bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy tavakkalchilikni hisobga olish va baholash, boshqaruv nazariyasi va amaliyotining muxim tarkibiy kismi sifatida mustakil nazariy, amaliy axamiyat kasb etadi. Aksariyat boshqaruv qarorlarini tavakkalchilik sharoitida qabul kilinishi bir kator to'liq axborotlarni

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

<sup>2</sup> Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi.//Xalq so'zi. 2020 yil. 25 dekabr.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

<sup>4</sup> Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi.//Xalq so'zi. 2020 yil. 25 dekabr.

mavjud emasligi, o'zaro qarama-qarshi g'oyalar, ehtimollik elementlari va boshqa ko'pgina omillar bilan bog'lik.

Shuning uchun 2022 yildan boshlab bosqichma-bosqich tadbirkorlikka oid barcha majburiy talablarni yagona elektron reestrga kiritish tartibi joriy etilsin hamda takrorlanuvchi va o'z ahamiyatini yo'qotgan majburiy talablar qayta ko'rib chiqilib, yagona reestr 2025 yil 1 iyuldan boshlab to'liq ishga tushiriladi.

Ma'lumki, xar qanday tadbirkorlik olamidagi yutuqlar, ko'p hollarda tadbirkorlik faoliyatining tanlangan strategiyasini qanchalik to'g'ri va asosli ekanligiga bog'lik. Bunda jiddiy vaziyatlar hisobiga olinishi lozim. Tadbirkorlik faoliyatini esa tavakkalchilik va risksiz tasavvur etish, iqtisodiy savodsizlik hisoblanadi.

Risklar har qanday tashkilotning moliyaviy holatiga zarar keltirishi va korxonaning butunlay bankrot bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatlarni inobatga olib korxonalar faoliyat davomida risklarni boshqarish orqali uning xavf darajasini pasaytirishga harakat qiladi.

Korxonalarda moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini tashkil etishning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Chunki tadbirkorlik faoliyatida moliyaviy tavakkalchiliklarning paydo bo'lishi tabiiy hisoblanib, korxona moliyaviy menejerlari tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda alohida e'tibor qaratilishi va boshqarilishi lozim bo'lган ob'ekt sifatida namoyon bo'ladi.

Tavakklikchilikni kuchayishi-bu, moxiyatdan tadbirkorlik erkinligining aksi bo'lib, bu tadbirkor uchun o'ziga xos to'lov hamdir. Bozor munosabatlari sharoitida yashab qolish uchun, texnikaviy yangilanish va dadillik, jo'shqin xarakatga tayaniladi, bu esa o'z navbatida tavakkalchilik(risk)ni kuchaytiradi. Demak, bunda tadbirkorlikning bosh hislati tavakkalchilik(risk)dan qochmaslik, balki, uni oldindan ko'ra bilishda va uning eng past darajagacha pasaytira olishda namoyon bo'ladi.

Shuning uchun zamonaviy iqtisodiyotga xos bo'lган omillardan biri-bu tavakkalchilikni hisobga olgan holda iqtisodiy jarayonlarni sifat va miqdoriy xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni chukurlashtirish va kengaytirish hisoblanadi. Qarorlarni qabul qilish jarayonida moliyaviy tavakkalchilik(risk)ni hisobga oluvchi va modellashtiruvchi bir kator namunaviy uslublarni o'rganib muammolar yechimini topishda, amalda qo'llash maqsadida tegishli usullarni o'zlatirish ham davr talabidan kelib chiqadi.

Yuqoridaq ko'rib o'tilgan muammolarning mavjudligi va ulami hal etilish zaruriyati to'risida mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoev quyidagilarga to'xtalib: "Mahalliy boshqaruv faoliyatiga axborot texnologiyalarni keng joriy qilish, hududlarning 40 dan ortiq, jumladan transport, infratuzilma, ijtimoiy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lumotlarni jamlovchi tahliliy geoportallarini ishga tushirish.

.... «Raqamli idora» loyihasi doirasida davlat organlarida ish yurituvini raqamlashtirish orqali ma'muriy tartib-taomillarni optimallashtirish va boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish.

.... Raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish.

Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy ob'ektlarni hamda magistral avtomobil yo'llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish.

Iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish.

Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSH dollariga yetkazish.

26-maqсад: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish.

Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, «pastdan-yuqoriga» tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish.

2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish.”<sup>5</sup> bilan bog'liq vazfalarini belgilab berdilar

Bularning barchasi albatta, bugungi kunda risklarni baholash tizimini takomillashtirish, xususan, moliyaviy risklarni boshqarishni chuqur omilli tahlil qilish mexanizmini joriy etish, zahiralarni shakllantirish, investitsiya portfelini diversifikatsiyalash, muammoli kreditlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan choralarini ko'rish, kutilayotgan yo'qotishlar modellari asosida ehtimoliy yo'qotishlarga zahiralarni shakllantirishga talablarni takomillashtirish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish ko'zda tutilgan.

Demak, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning raqobatbardoshligini oshirishning eng samarali usulini tanlash maqsadida strategik menejment vositalarini o'rganar ekanmiz, shuni ta'kidlaymizki, raqobatdosh ustunliklarni rivojlantirish bo'yicha strategik rejalshtirish maqsadlariga korxona tomonidan tavakkalchiliklarni boshqarishning samarali usullarini qo'llagan holdagina erishish mumkin.

Keyingi yillarda risklar tadqiq etilgan qator ilmiy ishlarda ularni minimallashtirishni amalga oshirish borasida ma'lum natijalarga erishish ta'kidlansada, mazkur jabhada hamon o'z yechimini kutayotgan qator muammolar mavjudligini alohida qayd etish lozim. Xususan, bu jarayonda risklarning mohiyati, ularning yuzaga kelish sabablari va o'zaro boqliqligi, shuningdek, oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan faoliyat, ya'ni risk-menejment imkoniyatlarini tadqiq etish dolzarb mavzularidan biri hisoblanishini qayd etish o'rindir.

Har qanday iqtisodiy faoliyat doimo risk elementlarini o'z ichiga oladi. Biroq, adabiyotda ushbu tushunchani aniqlashda yagona yondashuv yo'q.

Mavjud adabiyotlarda riskning xislat, xususiyat va elementlari ob'ektiv va sub'ektiv jixatlari o'zaro munosabatlari, uni mazmunini anglash turlichay tavsiflangan.

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

Riskning mohiyati to'g'risidagi xilma-xil fikrlar, ko'p xollarda bu xodisaning serqirraligi amalda mavjud xo'jalik faoliyati konuniyatlarida uni to'liq tan olinmasligi, real iqtisodiy amaliyotida va boshqaruv faoliyatida yetarlicha qo'llanilmasligi bilan sharxlanadi. Undan tashqari rik bu-bir biriga mos kelmaydigan, ba'zida xatto qarama-qarshi real xolatlar yig'indisidan iborat murakkab jarayondir.

Xo'jalik sub'ektlari faoliyatidagi risklar va ularga xos xususiyatlarni tadqiq qilishdan avval «risk» so'zining lug'aviy ma'nosi va risk kategoriyasiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq sanaladi.

Riskning yagona ta'rifining yo'qligi ushbu hodisaning ko'p qirrali, murakkabligi va nomuvofiqligidan kelib chiqadi. Nikolay Lumanning ta'kidlashicha, so'z tarixi va "risk" tushunchasi haqida bat afsil izlanishlar olib borilmagan, chunki u nisbatan kamdan-kam hollarda har xil fanlarda paydo bo'lган, ammo, eng avval risk tushunchasini qo'llanilishidagi muhim sohalardan kemachilik va dengiz savdosi sohasi hisoblangan.<sup>6</sup>

Shuning uchun, balkim, "risk" so'zining etimologiyasi lotin tilidagi "restsum" – "dengizdagi risk", "xavf" so'ziga borib taqaladi. "Risk- bu shunday narsaki, undan qochish lozim".<sup>7</sup>

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida "risk" talqini boshqa sohalarga, shu jumladan iqtisodiy fanlarda tavakkalchilik talqini "risk" tushunchasini "noaniqlik" tushunchasidan ajratish bilan bog'liq holda paydo bo'lган edi.

Agar risk ommaviy hodisalar bo'lган ishlab chiqarish va iqtisodiy tizimlar uchun xos bo'lsa, oldingi davrlar uchun statistik ma'lumotlarning yo'qligi sababli sub'ektiv ravishda unda noaniqlik, qoida tariqasida, aniqlanishi kerak bo'lган holatlarda mavjud bo'ladi. Risk va noaniqlik toifalarini talqin qilishga bunday yondashuv neokeynschilar maktabi tarafidori bo'lган Frank Nayt tomonidan qabul qilindi, u risk bilan noaniqlik tushunchalari o'rtasidagi amaliy farqni ko'rsatib berdi. Uning fikricha "birinchi holda, guruhdagи natijalarning taqsimlanishi ma'lum (risk) chunki unga oldingi statistikani o'rganish orqali erishilgan, lekin ikkinchisida buning imkon mavjud emas."<sup>8</sup>

1930-yillarda iqtisodchilar A.Marshall va A.Pigu tadbirkorlik risklari neoklassik nazariyasi asoslarini ishlab chiqdilar. Ushbu neoklassik maktabning keyingi vakillari A. Marshall, A. Pigu, T. Bachkay, D. Messen va boshqalar tomonidan keltirilgan "risk" va "noaniqlik" tushunchalari to'g'risidagi qarashlar ham bir-biriga o'xshashdir.

Mazkur nazariyaning asosi quyidagi ko'rsatmalarga tayanadi<sup>9</sup>:10 mavhumlik sharoitida faoliyat yurituvchi va olinajak foydasi tasodifiy o'zgaruvchi bo'lmish tadbirkor har qanday bitim tuzishda ikki mezonga asoslanadi: kutilayotgan foya miqdori va uning mumkin bo'lган o'zgarishlari (tebranishlari) ko'lami. Iqtisodiy fanga "noaniqlik" va "risk" tushunchalari orasidagi o'xshashlik va farqni keltirib chiqarishga harakat qilgan birinchi tadqiqotchi F. Nayt bo'lib, u barcha haqiqiy

<sup>6</sup> Luman, N. Ponyatiye riska /N. Luman // Thesis. - 1994. - вýр.5. - s. 141

<sup>7</sup> Sinki Dj.Upravlenie finansami v kommerchiskix bankax.-M.: Catallaxy, 1994. - c. 428.

<sup>8</sup>Nayt, F. Ponyatiya riska i neopredelennosti /F. Nayt // Thesis. - 1994. - вýр.5. - s. 10

<sup>9</sup> Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – Toshkent, "Fan va texnologiya", 2007. 137-b.

foyda noaniqlik bilan bog'liq degan fikrni ilgari surgan. P. Samuelson esa buni: "Noaniqlik odamlar kutgan narsalar va chinakam sodir bo'ladigan narsalar o'rtaсидаги тафовутни келтирib чиқаради. Ushbu nomutanosiblikning miqdoriy ifodasi foyda (yoki zarar) bo'ladi deb tushuntiradi."<sup>10</sup>

Riskni iqtisodiy faoliyatda noaniqlik sifatida qabul qilish, uni amalga oshirish uchun tanlangan loyihani asoslanadi ("xarajat-foyda" mezoniga muvofiq) agar u asosli bo'lsa. Iqtisodiy sub'ektning xatti-harakatlari, kutilayotgan va haqiqiy natijalar orasidagi bo'shilqni qisqartirishga qaratilgan xedjer(sug'urtalovchi) ning xatti-harakatlariga o'xshaydi. Ushbu kontseptsiya doirasida, ko'plab noma'lum omillar tufayli yuzaga keladigan haqiqiy va taxmin qilingan natija o'rtaсида og'ish paydo bo'lgandagina risk deyiladi.

Zamonaviy sharoitda noaniqlik, eng maqbul qarorni qabul qilishda yetarli ma'lumot yo'qligi yoki uning haddan tashqari ko'pligi bilan bog'liq bo'lib, bu to'g'ri yechimni tanlashda qiyinchiliklarga olib keladi. Noaniqlik tashqi muhitning to'liq ma'lumotlar oqimini qamrab olishning iloji bo'limganda, maqsadlarni aniq belgilash yoki harakatlarni belgilash mumkin bo'limganda yuzaga kelishi mumkin.

Moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotlarning mavhumligi, ya'ni operatsiyaning davomiyligi, axborotlarni qabul qilish vaqtin, masalan, aktivni sotib olish yoki sotish vaqtin, to'lovlar oqimining xususiyatlarini o'zgartirish va hokazolar vaqtinchalik noaniqlikka olib keladi

Risk iqtisodiy faoliyatning eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma'noga ega bo'lgan ko'p tarmoqli tushuncha: shuning uchun bank faoliyatining samaradorligini oshirish, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiyotdagи mavjud risklar, ularning bank faoliyatiga ta'sir qilish tomonlarini chuqur o'rganib chiqish zarur.

Risk insoniyat faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan tarixiy va iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilar faoliyatida yoki tabiiy hodisalarda mumkin bo'lgan yo'qotishlar salmog'ini bildirgan. Tovar pul munosabatlarining rivojlanishi riskning iqtisodiy kategoriya sifatida yuzaga kelishiga va sub'ektlar faoliyatida mustahkam o'rashib olishiga imkoniyat yaratadi. Bunday natija salbiy va ijobjiy bo'lishi mumkin. Riskning sinonimi sifatida biz ishonchsizlikni, imkoniyatsizlikni, bir voqeа bo'lish bulmasligini oldindan aytib bera olmaslik kabilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Riskning tub moxiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak «risk» so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib, «suv ostidagi qoya» degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun ham risk xavf tug'dirish ehtimoli mavjudligini bildiradi.

"Risk" so'zi Yevropaning ko'p tillarida mavjud. Misol uchun greklarda ridsikon so'zi mavjud bo'lib, u qoya, cho'qqi ma'nosini bildiradi. Italiyaliklar tilida "risiko" so'zi xatar, tahdid ma'nosini, risitsare so'zi qoyadan mohirona o'tish ma'nosini bildiradi<sup>11</sup>. Webster lug'atida risk - xavf- xatar, zarar va yo'qotish ehtimoli deb ta'riflangan<sup>12</sup>.

Frantsuzcha «risdoe»-taxlika, xavf-xatar, qo'rqinch, (tik qoyadan aylanib

<sup>10</sup> Samuelson, P. Ekonomika / P. Samuelson. - M.: MGP «Algon» VNIISI, 1993. - 120s.

<sup>11</sup> Rouz P.S.Bankovskiy menedjment. Per.s.ang.so 2-go izd.-M:Delo,1997. 768s..

<sup>12</sup> Valvaran K.D. Upravlenie riskami kommerchiskom banke.-Washington D.C.,Mirovoy bank,1997. 303 s.

o'tishda guyoki tavakkal qilish) mazmunini anglatadi.

Moliyachilar riskni-xatar "yo'qotish xavfi" orqali aniqlashga moyil, chunki har qanday moliyaviy operatsiya, birinchi navbatda, foyda olish maqsadida amalga oshirilsa, ushbu maqsadga har doim ham erishmaslik va hatto undan ham yomoni - yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Riskni xavf deb talqin qilish odatga aylandi. Birinchidan, N. Luman "risk" va "xavf" tushunchalarini ajratib, quyidagicha izohladi: "Farq kelajakda zarar haqida noaniqlik mavjudligini anglatadi. Yoki mumkin bo'lgan zarar qarorning natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Unda biz qaror riski to'g'risida gapiramiz. Yoki bunday zararning sabablari tashqaridan ta'sir qilgan bo'lsa, biz noaniqlik haqida gaplashamiz."<sup>13</sup>

Bu yerda tadbirkorlik riskining klassik nazariyasida risk uchun to'lov tanlangan boshqaruv qarori natijasida ro'y berishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning matematik kutilishi sifatida talqin etilgan. Risk bu yerda tegishli qarorni amalga oshirishdan ko'rila jihatda zararni ifodalagan.

Keyinroq risk tushunchasi xavf kontseptsiyasi sifatida urf-odatlarga asoslangan xatti-xarakatlarning ifodasi sifatida tabiat, texnosoha, jamiyat, iqtisodiyot tarmoqlariga yoyildi.

Rus olimi V.A.Akimov xavfning manbai - bu sub'ekt tomonidan amalga oshiriladigan va noaniqlikni riskga aylantiradigan harakatdir. Buni "... tashkilot uchun ma'lum bir faoliyat sohasida cheklangan, uni biron bir shakldan boshqa shaklga o'tishiga olib keladigan, atrof-muhitdagi noqulay sharoitlarning shakllanishi bilan bog'liq holda olib boradigan ma'lum bir faoliyati va salbiy ta'sirlar, yo'qotishlar natijasidagi holati"<sup>14</sup> deb ta'riflaydi. Riskning pasayishi salbiy hodisalar ehtimolini kamaytirish uchun resurslarni taqsimlashni o'z ichiga oladi. Risk ko'pincha xavfli bo'lgan salbiy holatlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, ushbu kontseptsiya doirasidagi risk ko'rsatkichi salbiy voqeа ehtimoli va u bilan yetkazilgan zararning mahsuli bo'lib hisoblanadi. Ushbu tarkibiy qismlarni kamaytirish maqsadida risklarni boshqarish uning muhim vazifalaridan biri izohlanadi.

Xuddi shunday izohlar maxsus iqtisodiy va boshqa lug'atlarda ham keltirilgan. Jumladan, mashhur Vebstera lug'atida «risk»-zarar yoki ziyon ko'rish imkoniyati, xavf-xatari deyilsa, taniqli lug'atshunos S.Ojegovning rus tili lug'atida «risk» so'ziga «xavf-xatar holati imkoniyati» yoki muvafaqiyatli xarakat» deb tarif beriladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, ayrim maxsus lug'atlarda (falsafa, xarbiy, iqtisodiy va x.z) «risk» tushunchasi umuman uchramaydi. U xatto Katta sovet entsiklopediyasi va Sovet entsiklopedik lug'atning oxirgi nashrlarida, besh tomli falsafiy entsiklopediya va falsafiy entsiklopedik lug'atida, hamda «Ilmiy-texnik taraqqiyot» lug'ati va boshqalarda xam uchramaydi. Tahlillar adabiyotlarda «risk» to'g'risidagi tushunchaga omadsizlik yoki xavf-xatarga (xavf-xatar xolati) imkoniyat degan tarif keng tarqalganini ko'rsatadi.

<sup>13</sup> Luman, N. Ponyatie riska / II. Luman // Thesis. - 1994. - въип.5. - с.150

<sup>14</sup> Akimov, V.A. Riski v prirode, texnosferе, obshchestve i ekonomike / V.A. Akimov, V.V. Lesnykh, N.N. Radaev. - M.: Delovoy ekspress, 2004. - с. 150

Qadimgi zamonlardan risk foydani shakllantirish omili hisoblanadi. J.B.Sey va Kursel Seneylar fikricha risk foydaning faqat bir qismini shakllantirish omili hisoblanadi.<sup>15</sup> XIX- asrlarda odamlarning risk qilishga tayyorligi ular foydasining shakllanishi va o'zlashtirilishiga olib kelishi bilan izohlanar edi.

Hozirgi kunda shakllanayotgan foydaning asosiy qismi riskni samarali boshqarishdan vujudga keladi. Risk va foyda o'rtasidagi bog'liqlik imkoniyat sifatida riskni idrok etish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Foyda olish uchun risk, investitsiya qilish istagi va tajovuzkor xatti-harakatga olib keladi, uning maqsadi tezda ijobiy natijalarga erishishdir.

Risk nazariyasini o'rganishda klassik maktab namoyondalari muhim hissa qo'shishgan. A.Smit risk va foyda o'rtasidagi o'zaro proporsionallik tushunchasini oydinlashtirishga harakat qilgan. A. Smitning ta'kidlashicha "riskli holatlar yuqori bo'lган maydonda qonun bo'yicha daromad kichik bo'ladi, bu esa o'z navbatida kutilayotgan daromad darajasini ko'paytirish uchun usullar salmog'i yanada ortib boradi". Shunga ko'ra odatdagagi daromadlilik darajasiga erishish har doim katta yoki kichik miqdordagi risk bilan bog'liq<sup>16</sup>.

Boshqa bir xorijlik iqtisodchi olim P. Xayn buni: "... foyda noaniqlik tufayli yuzaga keladi. Agar u yo'q bo'lsa, foyda olish bilan bog'liq hamma xarakat barchaga ma'lum bo'ladi, uni amalga oshirishning hamma imkoniyatlaridan to'liq foydalaniladi, shuning uchun foyda hamma joyda nolga teng bo'ladi." Deya talqin qiladi.<sup>17</sup> Demak, yo'qotish riski bilan birga qo'shimcha daromad olish imkoniyati mavjudligi sababli, xo'jalik sub'ekti noaniqlik sharoitida tavakkal qilishga tayyor. I. Shumpeter ta'kidlaganidek, agar iqtisodiy rejada risklar hisobga olinmasa, u holda ular bir tomondan yo'qotishlar va boshqa tomondan foyda manbaiga aylanadi.<sup>18</sup>

Iqtisodchi E.S.Stoyanovning "Moliyaviy menejment" kitobida "Risk - bu zararning paydo bo'lishi yoki prognozlashtirilganidek daromad ololmaslik xavfi ehtimoli"<sup>19</sup> deb ta'rif beradi. Sh.Z.Abdullaevaning fikricha: risk va xavf-xatar alohida narsa, ya'ni risk bu iqtisod sub'ektining faoliyatidir va u tanlov bilan bog'liq. Bu faoliyat sub'ektning xavf-xatar sharoitidagi tanloviga asosan amalga oshiriladi<sup>20</sup>

Professor V.Usoskin "risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, oxirgi, o'z navbatida oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'lмаган voqealar bilan bog'liq bo'ladi", deya izohlaydi. Ye.Stoyanova fikricha: "risk - bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola bilmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolidir"<sup>21</sup>. (2006)

Risk to'g'risidagi fikrlarni umumlashtirilgan holda prof V.V. Kovalyov quyidagicha ta'rif berib o'tadi:

<sup>15</sup> Nayt F.X. Risk,neopredelyonnost i pribyl. Per.s angl. - M.: Delo, 2003. – S. 35.

<sup>16</sup>Smit, A. Issledovaniya o prirode i prichinax bogatstva narodov (knigi I-IP) / A. Smit. - M: Nauka, 1992. -s.234.

<sup>17</sup>Nayt F.X. Risk,neopredelyonnost i pribyl. Per.s angl. - M.: Delo, 2003. – S. 36.

<sup>18</sup> Shumpeter, I. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya (Issledovanie predprinimatelskoy pribilly, kapitala, protsenta i sikla kon'yunktury) / I. Shumpeter. — M.: Progress, 1982. — s.21

<sup>19</sup> Stoyanov Ye.S."Finansoviy menedjment" (2-e izd).- M.: «BDS-press», 2004.- 143 s.

<sup>20</sup>Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. -T: Moliya, 2002. -304 b.

<sup>21</sup>Mirzaev F.I. Moliyaviy risklarning turlari, tasnifi, boshqarish va baholash usullari. – Toshkent: Moliya, 2006 –B. 12-13.

Risk bu moliyaviy yo'qotish darajasini belgilab:

- A) qo'yilgan maqsadga yetib bormaslik;
- B) noaniqliq holatda natijani belgilash;
- V) subektiv holatda belgtlangan natijani baholash.

Prof. Sh.Abdullaeva o'z tadqiqotlarida yana boshqa bir fikrni bildiradi. Uning fikricha "risk - xato, ikkilanish, noaniqlik, mavhumlik va hokozalar deb talqin qilish xalqaro amaliyotga mos kelmasligi va shu holatga yaqinlashgan holda "risk" "bank riski", "kredit riski" deb yuritilishni maqsadga muvofiq<sup>22</sup>.

A.O'lmasov, A.Vahobovlarning "Iqtisodiyot nazariyasi" darsligida "tadbirkorlik riski - bu firmaning ko'zlagan maqsadiga erishish yo'lida u duch keladigan iqtisodiy xavf-xatardir"<sup>23</sup>, deya talqin etilgan. Kichik biznes faoliyatining har qanday turi bilan shug'ullanish risk bilan bog'liqdirki, shu boisdan riskning bu ko'rinishi tadbirkorlik riski deb ham ataladi.

Iqtisodchi-olimlardan T.Malikov, O.Olimjonovlarning risk to'g'risidagi qarashlari diqqatga sazovodir. "Risk" atamasi o'zbek tilidagi ayrim manbalarda "tavakkalchilik", "xavf-xatar", "tahlika" va "g'ov" ma'nolarida tarjima qilinayotgan bo'lsada, ularning hech biri, mualliflar fikricha, "risk" atamasining asl ma'nosini bildirmaydi. "Zararlarni vujudga kelishi yoki daromadlarning ko'zda tutilgan darajadan kamroq olinishi ehtimoliga risk deyiladi"<sup>24</sup>.

Kichik biznes risklari hamda uning iqtisodiy jihatlari bo'yicha klassik va neoklassik nazariyasining qiyosiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik foydasi tadqiqida klassik nazariya vakillari Dj.Mill, I.U.Seniorlar tadbirkorlik daromadi tarkibida foiz (qo'yilgan kapitalga ulush)ni, tadbirkorning ish xaqini va risk uchun to'lov (tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq riskni qoplash)ni ajratib ko'rsatishgan<sup>25</sup>.

«Bank ishi» kitobi muallifi I.R.Toymuxamedov esa «Risk - bu ma'lum maqsadni ko'zlagan xolda olib borilayotgan faoliyat natijasida bo'lgan ishonchsizlik, ba'zan qoniqarsiz tugashi natijasidagi yo'qotishlardan iboratdir. Risklar bank faoliyatida o'lhash mumkin bo'lgan ko'rsatkichdir va ular doim bankning bajarayotgan operatsiyalaridan olgan zarariga, yo'qotgan daromadiga teng bo'ladi»<sup>26</sup> deya ta'rif keltiradi.

Amerikacha ta'rifga ko'ra, risk — bu biron ish bilan shug'ullanish oqibatida zarar ko'rib qolishdan qutulib qolish imkoniyati. Albatta, ba'zi xavflarni sug'urta kompaniyalari bilan shartnoma tuzish orkali oldini olish mumkin. Biroq xavfning asosiy og'irligi, ya'ni:

- menejerning xatosi;
- narx o'zgarishi;
- talabning susayishi;
- noto'g'ri tanlangan loyiha;

<sup>22</sup> Abdullaeva Sh.Z. Bank risklarisharoitidatijoratbanklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taq. et. diss. - T.: 2000. – B. 63-70.

<sup>23</sup> O'lmasov A., Vahobov A.. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Sharq, 2006. – B.192.

<sup>24</sup> Malikov T., Olimjonov O. Moliyaviy menejment. - T.:Akademiya, 1999.6-b., 26-b.

<sup>25</sup> Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – Toshkent, "Fan va texnologiya", 2007. 103-b.

<sup>26</sup> «Bank ishi» I.R.Toymuxamedov, 2005 yil, 105-bet.

- ishchilarining noroziliklari va boshqa bir ishbilarmonning yelkasiga tushadi.

Mamlakatdagi moliyaviy institatlarning rivojlanish jarayoni iqtisodiyotdagi boshqa turli tuzilmalarning paydo bo'lishi bilan parallel ravishda amalga oshiriladi. Ulardan birining ma'lum bir davrda ustunligi institutsional munosabatlarga, moliyaviy munosabatlarning tuzilishiga va iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Noaniqlik holatida qabul qilinadigan usullarni izlash moliyaviy jarayonlarning beqarorligiga olib keladi, bunda asosan vaqt omili muhim rol o'yndaydi.

Vaqt va noaniqlik omiliga urg'u berish moliyaviy beqarorlik gipotezasida aks ettiriladi X. Minski ushbu gipotezaga ko'ra, "molivayi kapitalizm tub kamchiliklarga ega: inqiroz rivojlanishini cheklashdagi har qanday muvaffaqiyat risklarning yanada oshishiga olib keladi. O'z navbatida, bu kamchilik iqtisodiyotning moliyaviy tuzilmasidagi murakkablikning natijasidir, unda kapital aktivlarning barqaror ravishda kengayish tendentsiyasi bilan tavsiflanadi."<sup>27</sup> degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, moliyaviy faoliyat sohasidagi risklarni qoplash bozor munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirishda, qoida tariqasida, qaror qarama-qarshi tomonlardan birining foydasiga qabul qilinadi. Shu bilan bir qatorda, ko'ptanlovlik yechim, yo'naliish, harakatni tanlashni imkoniyatini anglatadi. Tanloving yo'qligi risk masalasini yo'q qiladi. Tanlov bo'limgan joyda riskli vaziyat ham va shuning uchun hech qanday risk ham bo'lmaydi. Riskli vaziyatning o'ziga xos tarkibiga qarab, tanlov har xil murakkablik darajasiga ega va uni turli yo'llar bilan hal qilish mumkin. Agar oddiy vaziyatlarda tanlov, qoida tariqasida, o'tgan tajriba va sezgi asosida amalga oshirilsa, qiyin vaziyatlarda qo'shimcha usul va uslublardan foydalanish kerak bo'ladi.

Moliya bozorida sub'ektning riskga salbiy munosabati, zarar yetkazadigan hodisa sifatida, moliyaviy qoniqishni olish imkoniyatini kamaytiradi. Har qanday moliyaviy operatsiyalarini amalga oshiradigan "risk qilishga tayyor bo'lgan" kishi, birinchi navbatda, boyib ketish istagi bilan boshqariladi va shundan keyingina salbiy oqibatlar ehtimolini ko'rib chiqadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, jamiyatning yangi iqtisodiy formatsiyaga o'tishi moliyaviy munosabatlar mexanizmlarini murakkablashtirmoqda. Axborotlashtirish va texnik qo'llab-quvvatlash darajasi yuqori bo'lgan tobora rivojlanayotgan jamiyat risklarni anglash va ularga munosabatda bo'lishga yangicha yondashuvlarni talab qiladi.

Zamonaviy jamiyatda sub'ektning "risk" so'ziga nisbatan hissiy munosabati salbiy ma'noga ega. Ko'pchilik insonlar "risk" ni, birinchi navbatda, har qanday zarar yetkazadigan holatlarning boshlanishi sifatida, boshqa tomonidan esa mablag'larning qo'shimcha manbasini olish imkoniyati deb izohlaydilar.

Moliyaviy munosabatlarni isloh qilish sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining riskka bo'lgan munosabatini o'zgartirishlari kerak, ularni tadbirkorlik faoliyatida qo'shimcha qiyinchiliklar sifatida emas, balki qaror qabul

---

<sup>27</sup> Nesvetaylova, A. Ekonomicheskoe nasledie Xaymana Minski / L. Nesvetaylova // Voprosy ekonomiki. -2005. - №3.- s. 101

qilish va moliyaviy boshqaruvning yangi usullarini ishlab chiqish jarayonida iqtisodiy faoliyatning normal holati natijasi sifatida qabul qilishlari kerak. Riskni imkoniyat sifatida qabul qilish kontseptsiyasining natijasi ijtimoiy taraqqiyotdir, innovatsion sohada esa ilmiy-texnik taraqqiyot, chunki risk sezilarli natijalarga erishish uchun yangi usullarni izlashga yo'naltirilgandir.

Shunday qilib, risk yangi, istiqbolli faoliyat turlarining ijtimoiy taraqqiyotiga to'sqinlik qiladigan va muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan ijodiy tashabbuslar, innovatsion g'oyalar, ijtimoiy tajribalarni amalga oshirishni ta'minlashda tormoz sifatida turib qoladigan konservativizm, dogmatizm, psixologik to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradi. Boshqa tomondan esa, risk avanturizm, ixtiyoriylik, sub'ektivlik, ijtimoiy taraqqiyotni to'xtab qolishiga va natijada ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy xarajatlarni kelib chiqishiga olib keladi.

Umuman olganda, dastlabki ma'lumot to'liq bo'limgan sharoitida qaror qabul qilishda riskli vaziyat tanlov sifatida hodisalar rivojining ob'ektiv qonuniyatlarini hisobga olmasdan tanlanadi. Imkoniyatlar sifatida riskni idrok etishning yuqoridaq ko'p qirrali oqibatlari uning qo'shimcha xususiyatini – qarama-qarshiliklarini ochib beradi.

## **1.2 Banklar faoliyatida risklarning yuzaga kelish ehtimoli va uning bank faoliyatiga tasiri.**

Riskning mohiyatiga berilgan ko'plab ta'riflarning tahlili risk vaziyatini keltirib chiqaruvchi asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi: yuzaga kelgan holatning tasodifiy xususiyati; muqobil qarorlarning mavjudligi; kutilajak natijaning ma'lumligi yoki aniqlash ehtimolining mumkinligi; zararlar yuzaga kelish ehtimoli; qo'shimcha daromad olish ehtimollari va boshqalar.

Yuqoridaq riskka berilgan ta'rif-tavsiflarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, risk - bu kutilishi mumkin bo'lgan omad yoki xatar, ya'ni ko'zlangan foydani olish jarayoniga xos bo'lgan mablag'lar yoki imkoniyatning yo'qotilishi va shu bilan birga ortib ketishi ehtimolliklari bo'lib, u qandaydir holatlar, omillar ta'sirida kutiladigan foydaning kamayishiga yoki yo'qotilish holatida namoyon bo'ladi. Risk xo'jalik sub'ekti faoliyatining barcha bosqichlarida mavjuddir.

Jadal o'zgarish sur'atlariga ega bo'lgan zamonaviy iqtisodiyot iqtisodiy institutlarning ishlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan juda ko'p murakkab risklarni keltirib chiqaradi. E.N. Nikolaeva ta'kidlaganidek: "..... iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish davri noaniqlik omillarining ya'ni ishlab chiqarish munosabatlarining beqarorligi, inflyatsiya, kreditlar bo'yicha yuqori foiz stavkalari, narxlarning nomutanosibligi va boshqalarning ko'payishi bilan tavsiflanadi"<sup>28</sup>.

Insoniyat tabiatan riskdan qochishga intiladi. Agar biz riskni nazorat qila olmasak odatda undan qochishga harakat qilamiz. Chunki har qanday ishonchszizlik o'ziga xos tarzda ma'lum darajadagi yo'qotishlarni olib keladi. Xavf sub'ektiv tuyg'u sifatida qaror qabul qilish yoki qaror qabul qilmaslik jarayonida yoki yuzaga kelgan holatlar sub'ektning moliyaviy ahvolini yomonlashtirishi mumkin

<sup>28</sup> Nikolaeva, N.Yu. O problemakh analiza riska i; neopredelennosti v ekonomicheskikh i sotsialnykh sistemakh // H.KX Nikolaeva // Matematicheskie metody i informatsionnye texnologii v ekonomike, sotsiologii i obrazovani: sb.statey. — Penza: Penzenskaya gos. texnolog. akademiya, 2007. — s.262

bo'lgan hollarda yuzaga keladi. Risk yechimni tanlash bosqichida ham, uni amalga oshirish bosqichida ham mavjud. N. Luman "risksiz xatti-harakatlar mavjud emas"(1994)<sup>29</sup> deb ta'kidlaydi.

Shunday qilib, risk har qanday ishlab chiqaruvchi yoki har qanday bank faoliyatining vaziyatga bog'lik bo'lgan tomoni bo'lib, shu faoliyatning oxiri nima bilan tugashi noaniqligini va omad yurishmasa, oqibatda zarar ko'rishi mumkinligini aks ettiradi.

Risk foydadan maxrum bo'lismi va boshqa sababalarga ko'ra zarar ko'rish singari yomon oqibatlar ruy berish extimoli bilan ifodalanadi. Shu ma'noda:

Risk - bu oqibatning yaxshi bo'lishiga umid bog'lab, xavf extimolligini zimmasiga olingan xolda qilinadigan xarakat.

Risk — bu resurs yoki daromaddan to'la yoki qisman yo'qotish xavfi.


Risk — bu noaniqlik sharoitida xar qanday dovyurak menejer uchun tabiiy xolat, vaziyat.

Risk — bu omadsiz oqibatning miqdoriy bag'olanishi.

Risk — bu kelgusidagi vaziyat noaniq bo'lgan sharoitda pirovard natija yaxshi bo'lishiga umid bog'lab, mol-mulk yoki foydadan mahrum bo'lismi (to'liq yoki qisman) xavfini o'z bo'yning olib amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatidir.

Ammo, umuman, xorij tajribasi ishbilarmonlik risksiz mumkin emasligidan guvoxlik beradi. Kimki xech bir risk qilmasa, oxir-oqibatda xonavayron bo'ladi.

Risk iqtisodiy kategoriya sifatida ma'lum funktsiyalarini bajaradi va bu uning mazmun-mohiyatini yanada oydinlashtiradi.(1-rasm)



### **1-rasm. Riskning funktsiyalari va ularni keltirib chiqaruvchi omillari.**


Risk funktsiyalari ko'rib chiqilayotgan paytda shuni esda saqlash lozimki, risk o'z mohiyatiga ko'ra, nafaqat zarar keltirishi mumkin, balki iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi xususiyatga ham egadir. Lekin, asossiz yuqori riskka borish, xuddi riskdan butanlay voz kechilishi kabi zarardir.

<sup>29</sup> Luman, N. Ponyatiye riska / II. Luman // Thesis. - 1994. - въип.5. - с.150

Yuqoridagilarni mujassamlashtiradigan bo'lsak, risk qilishdan oldin uni iloji boricha o'rganib, baholash va boshqarishga intilish lozim. Uni boshqarishda esa albatta risk tamoyillarini (o'z kapitali imkoniyatlaridan ortiq riskka bormaslik, risk oqibatlarini har doim hisobga olish zarur, kam miqdordagi foyda uchun ko'p miqdordagi mablag'lar bilan risk qilish kerak emas) hisobga olish kerak.

Risklarni banklar foydasiga ta'sirini baholash va kamaytirish maqsadida ularni turli belgilari bo'yicha tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha tuzilmalar joriy va uzoq muddatli vazifalarni amalga oshirishlarida ya'ni o'zining faoliyat jarayonida yuzaga kelish joyi va vaqt bo'yicha, faoliyatiga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra tashqi va ichki omillar hamda ularni tahlil qilish, tavsiflash usullari jihatidan farq qiladigan risk turlariga duch keladilar. Har bir riskning o'z to'plamidagi o'rnini aniq aniqlash risklarni ilmiy asoslangan holda tasniflashga imkon beradi. Shuning uchun risklarning tabiatini va turlarini yoritish uchun ularni tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Risklarni tasniflashning maqsadi – ularni tadqiq etish va tahlil qilish jarayonlarini soddalashtirish, shuningdek samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Risklarni tasniflash protsedurasi riskni keltirib chiqaruvchi omillarni tasniflashning murakkab muammosiga duch kelishi mumkin, chunki ularning o'zi muayyan faoliyat turining xususiyatlarini va ushbu faoliyat olib borilayotgan noaniqlikning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.



## 2-rasm. Korxonalarda risklar tasnifi.

2-rasmdan ko'rinish turibdiki, alohida holda risklarni turli omillariga qarab turkmlash ularni tashqi muhit bilan boqliq holda, xo'jalik faoliyati asosida, tijorat va moliyaviv risklar kabi guruhlariga ajratish imkonini beradi. Bunda ushbu risklar tashqi muhit omillariga ko'ra, siyosiy, xarbiy xarakatlar bilan bog'liq kabi turlarga bo'linadi.

Tabiiy xatarlar sababi tabiiy ofatlar, urushlar, baxtsiz hodisalar, jinoiy harakatlar, tashkilotning qobiliyatsizligi va boshqalar bo'lishi mumkin. So'nggi uchta risklar iqtisodiy risklarning asosiy qismi hisoblangan sub'ektning moliyaviv-

iqtisodiy faoliyati jarayonida yo'qotish xavfini anglatadigan tijorat va tadbirkorlik risklarni tashkil etadi.

Umuman olganda risklarni belgilari va mezonlari asosida tizimlashtirish, ularni kichik guruhlarini umumiylashtirish bu faoliyatni olib borayotgan sub'ektning motivatsiyasiga bog'liqdir.(1-jadval).

1-jadval.

## Risklarning turlanishi va ularning tasnifi

No	Risklarning tasnifi belgilari	Risklarning turlari	Risklarning tasnifi
1	Paydo bo'lish xususiyatiga ko'ra	Sub'ektiv	Malaka, ish tajribasi va bilimning yetishmasligi, bozor qoidalariga riosa etmasligi, bitim mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetmasligi va boshq.
		Ob'ektiv	Ma'lumotlarning yetishmasligi: bozor konyu'yunkurtsasining, qonunchilik, kreditlash shart-sharoilari, soliqqa tortish, investitsiyalash va boshqalarning kutilmagan holda o'zgarishi
2	Qaromi qabul qilish bosqichiga bog'liq holda	Qarorlar qabul qilish bosqichida	Ma'lumotlarni yetishmasligi natijasida risk darajasini aniqlashga imkon beruvchi usullarni qo'llashdagi xatoliklar
		Qarorlarni tatbiq etish bosqichda	To'g'ri qarorlar qabul qilishdagi xatoliklar
3	Ko'lami bo'yicha	Mikroiqtiodiy	Alohiда firmalar riski
		Tarmoqlar	Tarmoq xususiyati bilan bog'liq bo'lgan risklar
		Hududiy	Mamlakat iqtisodiy tumanlari darajasidagi tadbirkorlikni qamrab olishi
		Makroiqtisodiy	Makroiqtisodiyot darajasida (qonunchilik, kreditlash, soliqqa tortishdagi kutilmagan o'zgarishlar ko'rinishida)
		Xalqaro (global)	Jahon bozori konyu'nkturasining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan risklar
4	Paydo bo'lish sohasiga ko'ra	Tashqi	Makroiqtisodiy ishlab chiqarishdagi iqtisodiy-siyosiy kutilmagan o'zgarishlar natijasida paydo bo'ladigan risklar, masalan valyuta riski
		Ichki	Korxona ixtisoslashu bilan bog'liq risklar: ishlab chiqarish, moliyaviy, sug'urta
5	Sug'urtalash imkoniyatlarga qarab	Sug'urtalanidan	Vaziyatlarning vujudga kelish ehtiymolligini sug'urtalash
		Sug'urtalanmaydigan	Fors-major risklar va moliyaviy risklarning shunday guruhlari mavjudki, ularni sug'urta kompaniyalari sug'urtalashdan bosh tortadi. Ammo aynan sug'urtalamaydigan risklar korxona qo'shimcha daromadining potensial manbalari bo'lib hisoblanadi.
6	Tadbirkorlik faoliyati turlari bo'yicha	Moliyaviy	Fond bozoridagi risklar: likvidlik, axborot, valyuta va boshq.; bank risklari – kredit, foiz, portfel; inflatsiya, bank mijozlarining xususiyatiga bog'liq bo'lgan lizing va faktoring risklari
		Yuridik	Qonunchilik hujjatlari sifatining pastligi va qonunchilikdagi kutilmagan o'zgarishlar
		Ishlab chiqarish	Ishlab chiqarish fondlarining ishdan chiqishi, ishlab chiqarishdagi uzilishlar, aylanma mablag'larning yo'qotilishi, xom ashyo va uskunalarini o'z muddatida yetkazib berilmasligi
		Tijorat	Bozor konyu'nkturasidagi kutilmagan o'zgarishlar va tijorat faoliyati bilan bog'liq boshqa shart-sharoitlar
		Investitsiya	Investitsion muhitda, innovatsiya faoliyatida kutilmagan holatlar va noaniqliklar
		Sug'urta	Sug'urt fondini shakllantirish va boshq.
		Innovatsion	Innovatsion sohada noaniqlik sababli yuzaga keluvchi holatlar (innovatsion g'oyanining yaratilishidan boshlab to uni hayotga tatbiq etishgacha bo'lgan jarayon)
7	Diversifiktsiyalash imkoniyatlari bo'yicha	Tizimli	Tadbirkorlik faoliyatining u yoki bu ko'rinishlariga xos bo'lgan
		O'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan	Aniq sharoitda tadbirkorlik faoliyatidan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan
8	Kutilishi mumkin bo'lgan oqibatlar	Foya	Riskka borgani uchun olinadigan mukofot
		Zararlar	Zararlar faqat nomaqbul vaziyatlardagina yo'l qo'yilgan xatolar va kamchiliklar oqibatida kelib chiqadi
		Yo'qotishlar	Yo'qotishlar, odatda, oldindan rejalashtirilmaydi, lekin ro'y berishi mumkinligi ko'zda tutilishi mumkin.
		Bankorot bo'lish	Korxona barcha mulkining yo'qotilishi va faoliyatini to'xtatishi
9	Kelib chiqishi mumkin bo'lgan natijasiga bog'liq holda	Sof risklar	Salbiy natija olish imkonini anglatadi. Unga ekologik, siyosiy, tabiiy, transport va tijorat risklari (mulkiy, ishlab chiqarish, savdo risklari) tegishlidir
		Chayqovchilik risklari	Ijobiy natijalar bilan birga salbiy natijalarini olish imkoniyatida namoyon bo'ladi, ular moliyaviy risklardan iborat
10	Ta'sir vaqtiga ko'ra	Retrospektiv	Kichik biznes korxonalarining o'tgan davrdagi turli risklarga bog'liqligini ifodalaydi va joriy hamda istiqboldagi risklarni baholashga yordam beradi
		Joriy	Kichik biznes korxonalarining amaldagi faoliyati barqarorligiga ta'sir etuvchi risklar
		Istiqboldagi	Kelajakda kichik biznes korxonasi duch kelishi mumkin bo'lgan risk
11	Ta'sir etish vaqt uzoqligi bilan belgilanishi bo'yicha	Uzoq muddatli	Bu risk turi asosan korxona kengaytirilish, rivojanish va takomillashtirish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar bilan bog'liq bo'ladi. Uning natijalari istiqbolda namoyon bo'ladi.
		Qisqa muddatli	ko'pincha tarmoqli bo'lib, kundalik hayotda qabul qilinayotgan qarorlar bilan bog'liq bo'ladi. Uning natijalari qisqa vaqt ichida namoyon bo'ladi.
12	Vujudga kelish omili bo'yicha	Siyosiy risk	Siyosiy risk bu tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi siyosiy vaziyatni o'zgarishiga asoslangan tavakkalchilik..
		Iqtisodiy risk	Iqtisodiy risk- bu mamlakat yoki tashkilot iqtisodiyotidagi noxush salbiy o'zgarishlar

Ta'kidlash joizki, oqibatlar mohiyati bo'yicha xatarlar sof va chayqovchilikka bo'lingan. Sof xatarlar iqtisodiy faoliyatda faqat salbiy og'ishlar bo'lishi mumkinligini anglatadi. Shuning uchun sof risklar ostida biz zarar ko'rish yoki hech qanday natijaga erishmaslik xavfini tushunamiz.

Chayqovchilik (moliyaviy) risklari esa bu, bir tomondan resurslarni yo'qotish ehtimolligi yoki faoliyatining mazkur sohasida resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan variant bo'yicha daromadlarni oxirigacha ololmaslik havfidir. Natijadan ko'rinish turibdiki xo'jalik sub'ekti risk ta'sirida yaxshilikka (foyda olishga) va yomon tomonga (zarar etkazishga) og'ishi mumkin.

Chayqovchilik risklarining kelib chiqish sabablari bozor sharoitidagi o'zgarishlar, valyuta kurslarining o'zgarishi, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Tijorat banklari ham iqtisodiyot tuzulmasining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ajralmasi qismi bo'lganligi sababli risklar ular faoliyatiga ham u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi.

Har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy faoliyati uning faoliyatining natijalariga jiddiy ta'sir etuvchi ko'plab risklar bilan birga kelganligi sababli, moliyaviy risklarni o'rganishga bиринчи navbatda e'tibor berish kerak, chunki barqaror moliyaviy holatni ta'minlash har qanday iqtisodiy tuzilmaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Risk nazariyasi sohasidagi tadqiqotchilar "moliyaviy risk" ni uning paydo bo'lish sohasiga qarab belgilaydilar:

- moliyaviy resurslarni yo'qotish ehtimoli sifatida (ya'ni pul mablag'lari);<sup>30</sup> (1998)
- kompaniya faoliyatini moliyalashtirish uchun qarzlardan foydalanishi natijasida investorlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajara olmaslik qobiliyati sifatida;
- notijorat tashkilotlari va jismoniy shaxslar tomonidan har qanday faoliyatni amalga oshirish yoki alohida bitimlar tuzish jarayonida muntazam ravishda foyda olishga yo'naltirilmagan xarajatlarning yuzaga kelishi;
- joriy kunda moliyaviy sektorda amalga oshirilgan har qanday operatsiyalar natijasida keljakda paydo bo'ladigan yo'qotish ehtimoli sifatida;<sup>31</sup> (2005)
- moliyaviy operatsiyalar tabiatiga kiritilgan investitsiya yoki savdo faoliyati natijasida keljakdag'i kutilayotgan foya va zararlarning noaniqligi sifatida;
- moliya-kredit va birja sohasidagi har qanday operatsiyalar, aktsiyalar qiymatlari bilan bog'liq operatsiyalar natijasida zarar ko'rish ehtimoli, ya'ni ushbu operatsiyalarning tabiatidan kelib chiqadigan risk;
- moliyaviy oqimlarning harakatlanishidagi noaniqliklar, noqulay moliyaviy oqibatlar (yo'qotish, zarar) yoki qo'shimcha foyda (daromad, foyda)

<sup>30</sup> Finansoviy menedjment: teoriya i praktika: uchebnik / Ye.S. Stoyanova, T.B. Kr'ylova, I.T. Balabanova i dr.; pod red. Ye.S. Stoyanovoy. - M.: shd-vo «Perspektiva», 1998. - s.442

<sup>31</sup> Bardaeva, P. Finansovye riski na rossiyskom rynke aktsiy / P. Bardaeva. - Internet-resurs:po sostoyaniyu na 15.07.2005 g.

olish natijasida keljakda katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan ehtimoli (tahdidi) sifatida.<sup>32</sup> (2005)

Ko'p hollarda, "moliyaviy risk"-“ehtimollik” ya’ni fikrimizcha riskning miqdoriy o'lchovi yoki riskning oqibatida paydo bo'lgan "yo'qotishlar" sifatida tushuniladi.

2-jadval

### Moliyaviy xavflarning turlari va ularning tasniflanishi

Nº	Tasniflash mezoni	Moliyaviy xatar turlari
1	Pul oqimlarini mahalliylashtirish sohalari bo'yicha:	1. Ishlab chiqarish sohasidagi moliyaviy risk; 2. Moliyaviy sektorda moliyaviy risk; 3. Investitsion sohadagi moliyaviy risk; 4. Favqulodda faoliyatdagi moliyaviy risk.
2	Ish joylari va javobgarlik markazlari bo'yicha:	1. Bitta operatsiyalarining moliyaviy xavfi; 2. Majburiyat markazlarining moliyaviy risklari. Korxona bo'yicha umumiy moliya riski
3	Risk darajasi bo'yicha:	1.Yuqori moliyaviy risk; 2.O'rtaча moliyaviy risk; 3.Past moliyaviy risk.
4	Investitsion qarorlar bo'yicha:	1.Alohidha moliyaviy risk; 2. Portfel moliyaviy riski.
5	Paydo bo'lish omili bo'yicha:	1.Tashqi (tizimli moliyaviy risk); 2.Ichki (tizimsiz moliyaviy risk).
6	Moliyaviy oqibatlari bo'yicha:	1. To'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy yo'qotishlar yoki daromadlarni keltirib chiqaradigan moliyaviy xavf; 2.Bilvosita iqtisodiy yo'qotishlar (yo'qotilgan foyda) yoki iqtisodiy nafning moliyaviy riski.
7	Korxona aktivlari turlari bo'yicha:	1.Likvidlikni yo'qotish riski; 2.Samaradorlikni pasaytirish riski; 3. Depozit riski; 4. Kredit riski; 5.Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik riski.
8	Shakllantirish manbalari bo'yicha:	1.O'z kapitalining moliyaviy riski; 2.Qarz kapitalining moliyaviy riski; 3.Vaqtinchalik jalb qilingan mablag'lar moliyaviy riski; 4.Kapital tuzulmasi riski.
9	Namoyon bo'lish vaqtি bo'yicha:	1.Doimiy moliyaviy risk; 2.Vaqtinchalik moliyaviy risk.
10	Boshqarish darajasi bo'yicha:	1.To'liq chiqarib tashlanadigan moliyaviy risk; 2.Pasayadigan moliyaviy risk; 3.Pasaymaydigan moliyaviy risk.
11	Moliyaviy yo'qotishlar darajasi bo'yicha:	1.Qabul qilinadigan moliyaviy risk; 2.Qaltsi moliyaviy risk; 3.Makisimal(yuqori darajadagi)moliyaviy risk.
12	Tadqiqotning murakkabliishi bo'yicha:	1.Oddiy moliyaviy risk; 2.Murakkab moliyaviy risk.
13	Moliyaviy boshqaruv funktsiyalari bo'yicha:	1.Moliyaviy rejalashtirish riski; 2.Moliyaviy bashoratlash riski; 3.Moliyaviy tartibga solish riski; 4.Moliyaviy tahlil riski; 5.Buxgalteriya hisobining moliya riski.
14	Korxonaning faoliyati (tsikli)ning bosqichlariga ko'ra:	1. Tayyorgarlik bosqichining moliyaviy riski; 2. Investitsiyalash bosqichining moliyaviy riski; 3. Bozorni egallash bosqichidagi moliyaviy risk; 4. O'sish bosqichining moliyaviy riski; 5. Etilish bosqichidagi moliyaviy risk;

<sup>32</sup> Paramonov, Ya.V. Finansovye riski korporatsiy: dne. ... kand. ekon. nauk: 08.00.10 / Paramonov Yaroslav Viktorovich. - Moskva, 2005. - s.45

		6. Tanazzul bosqichining moliyaviy risk.
15	Korxonani rivojlantirish turi bo'yicha:	1.Evolyutsionnogo rivojlantirish moliyaviy riski; 2.Revolyutsion rivojlantirish moliyaviy riski.

Bizning fikrimizcha, har qanday faoliyat turiga nisbatan moliyaviy risk, birinchi navbatda, yuzaga keladigan vaziyatdir: a) iqtisodiy sub'ektni qaror qabul qilishi orqali maqsadli xarakatlarni amalga oshirganda; b) ma'lum miqdordagi pulni olish yoki yo'qotishlar natijasi sifatida; v) iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarni hal qilish uchun mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida tashkil etilgan pul munosabatlarining buzilishi natijasidagi tahdidlar va boshqalar.

Moliyaviy risklarni turlari bo'yicha tasniflash mezoni ularni boshqarish jarayonida ularni farqlashning asosiy parametridir. Bizning fikrimizcha, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun 2-jadvalda keltirilgan moliyaviy risklarni turlarga qarab tasniflash maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy risklar sohasidagi ko'plab tadqiqotchilar xalqaro amaliyotda tan olingan risklarning asosiy turlariga: kredit, foizlar, bozor, operatsion va likvidlilik tavakkallariga e'tibor berishadi.<sup>33</sup> Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy risklarning yagona tasnifi mavjud emas, bu esa ularni optimallashtirish to'g'risida qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi.(2-jadval) Bu risklarning tarkibini chuqur tahlil qilishni talab qiladi, shunga qaramay, moliyaviy risklarni tizimli va tizimsizlarga bo'lish to'g'risida umumiy fikr mavjud. Moliyaviy risklarni tizimli va tizimsiz bo'linish differentsiatsiyasi nuqtai nazaridan chuqur o'rganilishi "risklarni boshqarish nazariyasining muhim boshlang'ich qismlaridan biri" ekanligidan kelib chiqadi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy risklar xususiyatidan kelib chiqib, ularning yuzaga kelishi har doim bir vaqting o'zida tizimsiz ravishda yuzaga keladigan va tizimli moliyaviy riskni o'z zimmasiga oladigan xo'jalik yurituvchi subektlarning maqsadli harakatlari bilan bog'liq deb ta'kidlash mumkin. Eslatib o'tamiz, moliyaviy riskning ta'rifi, ilgari berilgan holat sifatida, bozorda ma'lum bir xo'jalik yurituvchi subektning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tizimsiz riskka mos keladi. Tizimli risklarga kelsak, iqtisodiy adabiyotlarda ular moliyaviy risklarni tasniflash tuzilmasida bozor ob'ekti yoki tizimga, umuman bozorga taalluqli ta'riflarni ko'rsatmasdan faqat "yuzaga kelish manbai bo'yicha" ko'rib chiqiladi. Tizimsiz va tizimli xatarlarni uchta xususiyat bo'yicha taqqoslash mumkin. Tizimli risk-bu holat, a) iqtisodiy sub'ektlarning bozordagi birgalikdagi faoliyatini amalga oshirish natijasida vujudga keladigan; b) tizimsiz risklar bilan almashinushi jarayonida; v) makroiqtisodiy darajada o'zgarishlarga olib keladigan; d) yo'qotish yoki sotib olish ehtimolining miqdoriy jihatdan tavsiflanishidan vujudga keladi.

Shuni yodda tutingki, tizim xavflari ma'lum bir sub'ektning faoliyati doirasida lokalizatsiya qilinadi, bozor risklari esa global xarakterga ega. Narxlar, foiz stavkalari va valyuta kurslarining o'zgarishi har bir alohida shaxsning holatiga ta'sir qiladi va shu bilan birga ularni tizimli risklarni "qabul qiluvchi" ga aylantiradi. Moliyaviy risklarning ta'siridan kelib chiqadigan zararlar ko'pincha ushbu risklarni kompleks baholash, tahlil qilish va monitoringini o'tkazmaydigan

<sup>33</sup> Mnirkin, Ya.M. Rossiyskiy g'ilok sennix bumag: vliyanie fundamentalnyx faktorov, prioritety i mexanizm razvitiya: dis. dokt. ekon. nauk: 08.00.10 / Mirkin Yakov Moiseevich. - Moskva, 2003. - s.404

korxona uchun juda katta bo'lishi mumkin, bu esa ularning zaiflik darajasining oshishiga olib keladi.

Bozor risklarini o'rganish so'nggi yillarda ustuvor vazifaga aylandi. Fond bozorlarida sodir bo'layotgan voqealar bozor risklarini o'rganishni faollashtirishda muhim rol o'ynadi. Global fond inqirozi davlat va korporativ qimmatli qog'ozlarning daromadliligi 10-20% darajasida o'sishiga olib keldi. Bu bir qator tashkilotlar uchun katta yo'qotishlar manbai bo'lган bozor risklari edi.

XX-asrning ikkinchi yarmidagi turli mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi tafovut valyuta bozorida qayd etilgan stavkalar tizimini o'zgaruvchan kurslar tizimi bilan almashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Yangi tizimga o'tish bir qator omillar ta'sirida bo'lган valyuta kurslarining o'zgarishi ta'sirida yuzaga keladigan valyuta xavfinining riskining ta'sirini oshirdi. Asosiy omillar bo'lib to'lov balansi holati, inflyatsiya, qisqa muddatli kapitalning tarmoqlararo ko'chishi, har bir valyutaning talab va taklif nisbati, shuningdek siyosiy o'zgarishlar hisoblanadi.

Qarz majburiyatları moliya bozorining elementlari sifatida ularning operatsion maydonini - pul bozorini shakllantirdi. Qarz vositasini chiqarish yoki sotish narxi ko'plab omillarga, shu jumladan foiz stavkasiga bog'liqdir. Tez va keskin ravishda yuzaga keladigan foiz stavkalarining o'zgarishi qarz oluvchilar va qarz beruvchilar uchun noaniqlikni keltirib chiqaradi va moliyaviy aktivlarning qiymatiga ta'sir qiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida foiz stavkasi riski ma'lum sinflar va turlarga oid qimmatli qog'ozlarning daromadliligining o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi. Binobarin, aktivlarning bozor qiymati, o'z navbatida, bozor qiymati bilan bog'liq. U obligatsiyalar va sertifikatlar bo'yicha foiz stavkalarini, chegirma foizlar, veksellar bo'yicha foizlar, aktsiyalar bo'yicha dividendlar va mos ravishda bozorda ushbu qimmatli qog'ozlarga talab va talabning o'rtacha darajadagi o'zgarishiga qarab o'zgarib turadi.

A.V. Suvorovning ta'kidlashicha, foiz stavkalarining o'zgarishi "foyda olish imkoniyatidan ko'ra ko'proq shinish riski sifatida ko'rildi"<sup>34</sup>. Har qanday faoliyat bilan shug'ullanuvchi va kapitalini qo'yuvchi iqtisodiy birlikning vazifasi – foiz stavkalarini riskini boshqarishdan iboraddir. Bu o'z navbatida bu fond bozoridagi qimmatli qog'ozlar riskni boshqarishga ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Narxlар riski, bu o'zgarishlar ma'lum bir mahsulotga xos bo'lган omillar yoki bozorda sotiladigan barcha mahsulotlarga ta'sir etuvchi omillar tufayli kelib chiqqanligidan qat'i nazar, mahsulot yoki moliyaviy vositaning bozor narxidagi o'zgarishlari bilan bog'liq riskdir.

Moliya bozorining dinamik rivojlanishi bilan bog'liq bo'lган noaniqliklarni hisobga olishning miqdoriy tavsifi o'zgaruvchanlikdir. O'zgaruvchanlik - bu foiz stavkalarini, valyuta kurslari, aktsiyalar, tovarlar yoki boshqa moliyaviy vositalar kabi bozor parametrlarining o'zgaruvchanligidir. O'zgaruvchanlik - bu bozor moliyaviy vositasining asosiy risk o'lchovi sifatida o'rtacha qiymatidan og'ishdir.

<sup>34</sup> Suvorov, A.V. Immunizatsionnye strategii povedeniya investora na rynek finansovykh obyazatelstv: dis. kand. ekon. nauk: 08.00.13 / Suvorov Anton Vladimirovich. - Voronej, 2000. - s.8

Muayyan moliyaviy vositalarni sotib olish yoki sotish to'g'risidagi qarorlar moliya bozorining harakatiga ta'sir qiladi va bozor narxlarining vaqtı-vaqtı bilan boshqasiga o'zgarishiga olib keladi. O'zgaruvchanlik rentabellikning o'zgarish darajasini aks ettiradi. Aktivlar o'zgaruvchanligining past darajasi uning rentabelligini sezilarsiz o'zgarayotganligidan dalolat beradi. O'zgaruvchanlikning past darajasida bo'lgan aktivlar yuqori darajadagi o'zgaruvchanlik darajasiga ega aktivlarga qaraganda kamroq risklidir. Aktivning o'sib borayotgan o'zgaruvchanligi, odatda, uning qiymatini pasayishi bilan bog'liq, ammo bozor indeksining o'zgarishi uning aktsiyalari narxlarining pasayishiga to'g'ri keladi. Ammo o'zgaruvchanlikning o'sishiga nafaqat narxlarning pasayishi sabab bo'ladi. Bunda, o'z navbatida, o'sib borayotgan bozor yuqori darajadagi o'zgaruvchanlikka ega bo'lishi mumkin.

Moliyaviy risklarning tabiatи va tasnifi masalasini ko'rib chiqishni yakunlab, shuni ta'kidlaymizki, O'zbekistonda, bozor iqtisodiyoti bo'lgan ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi, moliyaviy risklar muammosi juda dolzarbdir. Uzoq vaqt davomida moliyaviy risklar, asosan, davlatni "yashirin" holatda iqtisodiyotni "muzlatish" siyosati bilan bog'liq edi. Hozirgi kunda ular to'liq namoyon bo'ldi va bozor iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi.

Rivojlanayotgan, bozor munosabatlari tobora ko'p sonli murakkab o'zaro bog'liq risklarni shakllantirmoqda, bu esa iqtisodiy riskni keltirib chiqaradigan noaniqlik sharoitida xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatida muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan moliyaviy risklarni baholash va boshqarish uchun riskning mohiyatini umuman uning xususiyatlari va mumkin bo'lgan tasniflarni tahlil qilish orqali aniqlash hisoblanadi:

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy riskining mohiyati, zararlar xavfi mavjud bo'lganda foyda olish maqsadida qilingan xo'jalik yurituvchi sub'ektning harakatlaridan kutilayotgan natijalarni ehtimoliy baholash imkoniyatini qo'llab-quvvatlaydigan noaniqlik, nomuvofiqlik va alternativlik xususiyatlarining kombinatsiyasida namoyon bo'ladi. Riskning mohiyati subektiv va ob'ektiv birlikda namoyon bo'ladi, chunki uning paydo bo'lishi sub'ektiv munosabatlar bilan bog'liq.

2. Moliyaviy risklarni ularni tuzilish shakli sifatida tasniflash boshqaruva tizimining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi, shu bilan birga asosiy tasniflash moliyaviy risklarni tizimsiz va tizimli risklarga ajratishdir. Tizimsiz risklarning asosiy turlari moliyaviy barqarorlikning pasayish riski, to'lovga noqobiligi (likvidlik), investitsiya, kredit va operatsion risklardir. Asosiy tizimli risklarga inflyatsiya va deflyatsiya, foiz, narx va valyuta risklari kiradi. Bozor tizimidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning individual tizimsiz risklar majmuini birlashtirgan holda ishlashi bir qator tizimli moliyaviy risklarni aniqlashga imkon yaratadi.

3. Moliyaviy risklarning ta'sir doirasini kengaytirish sub'ektlarning iqtisodiy faoliyatida tizimsiz risklarning mahalliy va ma'lum darajada subektiv xususiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda ularni boshqarish usullarini ishlab chiqish zarurligini belgilaydi. Shuning uchun tizimli risklar oldindan aytib bo'lmaydigan, global ta'sir va tahlilining murakkabligi bilan ajralib turadi, ularni boshqarish

usullari universal xarakterga ega bo'lib, mikro va makro darajada samarali bo'lishi mumkin.

Har qanday mamlakatning moliya bozori kredit va fond bozorlaridan iborat bo'lgan pul bozori va kapital bozoriga bo'linadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ko'pchilik mualliflar "fond bozori" va "qimmatli qog'ozlar bozori" atamalarini sinonim sifatida ishlata dilar. Tor ma'noda fond bozori deganda faqat birja savdosi bilan shug'ullanadigan klassik uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bozori - aktsiyalar va obligatsiyalar bozori tushuniladi. Natijada, qimmatli qog'ozlar bozori deganda moliyaviy aktivlar (qimmatli qog'ozlar) almashinuvni mexanizmini amalga oshiradigan munosabatlар va institutlar tizimi tushuniladi.

Fond bozori u yoki bu davlatning iqtisodiyotiga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. U to'g'ri tashkil qilinib, davlat tomonidan ustalik bilan tartibga solinsa, fond bozorining xalq xo'jaligiga ta'siri ijobjiy bo'ladi. Qimmatli qog'ozlarning muntazam aylanmasi mamlakat moliya tizimini tubdan yangilashni rag'batlantiradi. Bozor yordamida asosiy iiqtisodiy operatorlar – ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatuvchilar, tijorat banklari, birjalar va aholi o'rta sida aloqalar mustahkamlanadi. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlar bozori yordamida pulni "ko'p ishlashga" majbur qilish va bu bilan butun xalq ho'jaligi samaradorligini oshrishi mumkinligidan tashqari, qimmatli qog'ozlari bozori jamiyatning muhim ijtimoiy muammolarini hal etish imkonini beradi. Qimmatli qog'ozlarga egalik qilish va ular bilan savdo qilishda ishtirok etish aholining daromadlarini ko'paytiradi, shuningdek jamiyatning xarakatlanuvchi kuchi bo'lgan insonni faollashtiradi.

Fond bozori riski – qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bilan bog'liq yo'qotishlar va muqarrar ravishda ularga hos ehtimollardir.

Qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga doir risklar qandaydir operatsiyani bajarishda ko'pgina tasodifiy omillarning unga ta'siri tufayli istalgan natijaga ega bo'la olmaslik ehtimoli bilan bog'liq.

Qimmatli qog'ozlar bozorining barcha sub'ektlari faoliyati risk ostida bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchisining moliyaviy risklarini shartli ravishda "shaxsiy moliyaviy risk" va "xavfsizlik bilan bog'liq moliyaviy risk" ka bo'lismumkin. Chunki risk uning asosiy mulki hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yangi emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni birlamchi segmentga joylashtirishi va ikkilamchi qimmatli qog'ozlar aylanmasi bilan bog'liqligi sababli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rta sida digi bitimlardagi qimmatli qog'ozlar ishtiroki sababli risklar qayta taqsimlanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchisining moliyaviy risklari doirasini kengaytirish ushbu risklarni boshqarish usullari va jarayonlarini takomillashtirishni talab qiladi, bu esa iqtisodiy subektning moliyaviy aktivlarni sotish texnologiyalari sohasidagi malakasi va tajribasi bilan bog'liqdir.

Xususiy kapitalni shakllantirish va ko'paytirish, qarz mablag'larini jaib qilish maqsadida emitentlar qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali emissiya operatsiyalarini amalga oshiradilar. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, emitentning moliyaviy riski-uning natijasi kapitalning kamayishi yoki ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan emissiya va dastlabki joylashtirish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan

bog'liq bo'lган holat sifatida belgilanadi. Emitent sifatida ish yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subektda noto'lovilik riski, kredit xavfi, moliyaviy yo'qotish riski, boshqa tijorat risklarining asosiy omillari to'lov qobiliyati darajasi, moliyaviy barqarorlik va menejment sifati, investorlarning xabardorligi va vositachilik kommutativligning darajasi va boshqalardan iborat bo'ladi.

Emitent o'ziga quyidagi asosiy tizimsiz risklarni oladi:

- birlamchi bozorda emissiyaning to'liq yoki qisman joylashtirilmaganligi riski;
- ikkilamchi bozorda aktivni sotishda yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq likvidlik riski;
- vaqtinchalik risk - moliyaviy positani noto'g'ri vaqtda chiqarish riski;
- emissiya operatsiyalariga xizmat ko'rsatish, texnik xodimlarning professionalligi, dasturiy mahsulotlarning yetishmasligi, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish texnologiyasida buzilishlar, shuningdek texnik tizimlardagi nosozliklar bilan bog'liq operatsion risk;
- kredit riski - kontragentning o'z majburiyatlarini bajara olmasligi tufayli mumkin bo'lган to'liq yoki qisman yo'qotish riski.

Daromad olish uchun investorlar o'zлари va jalb qilingan moliyaviy mablag'larni fond qiymatliklariga sarflaydilar, ularni fond birjasida va birjadan tashqari bozorda sotib olib, shu bozorda investitsiya jarayonlari riskini belgilaydigan investitsiya operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Bunda ko'rildigan risk xo'jalik yurituvchi sub'ektning talab va taklifdag'i kutilmagan o'zgarishlar va ularning qiymatini qayta ko'rib chiqish natijasida yo'qotilishi bilan bog'liq bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar natijasida daromadlilik, to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yo'qotishlar yoki foydaning pasayishi qimmatli qog'ozlar emitentlarining moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning ko'pligi tufayli yuzaga keladi.

Moliya bozorining ko'rib chiqilayotgan segmenti doirasida tizimli risk, pasaymaydigan va differentsiatsiya qilinmaydigan qimmatli qog'ozlar bozoridagi pasayish riski bilan tavsiflanadi.

Tizimsiz risk pasaytiriladigan va differentsiatsiyalanadigan investitsion sifatga ega bo'lган aniq qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq. Unda risk darajasi qimmatli qog'ozlar soni, ularning xalqaro standartlarga muvofiqligi, qimmatli qog'ozlarning rentabelligi, qimmatli qog'ozlar portfelining tarkibi bilan belgilanadi.<sup>35</sup>

Brokerlar, dilerlar, depozitariylar, ro'yxatdan o'tkazuvchilar va boshqa professional ishtirokchilarning faoliyati quyidagi tizimsiz risklarning turlari bilan bog'liq:

- operatsion risk - ma'lum bir ishtirokchining faoliyatini amalga oshirish natijasida vujudga keladigan vaziyat natijasi bajarilgan ishning professionalligi darajasiga va axborot-texnik ta'minotdan foydalanishiga bog'liqdir;

---

<sup>35</sup> Maslenchenkov, Yu.S. Ekonomika banka. Razrabotka po upravleniyu finansovoy deyatelnosti banka //Yu.S. Maslenchenkov, A.P. Dubankov. - "BDS-press", 2003.

- Hisob-kitoblarni amalga oshirish riski emitentning depozitariy, kliring va ro'yxatga olish tizimlarining rivojlanmaganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin;

- Xizmat ko'rsatiladigan mijozlarning moliyaviy zararlari riski, investordan komissiya, badallar va xizmatlar uchun to'lovlardan mahrum qilish shaklida o'tkazilishi mumkin.

Moliyaviy globallahuv nafaqt milliy moliyaviy tizimlarning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini, ularning cheksiz, sayyoraviy, virtual bozorga qo'shilish yo'lidagi birgalikdagi harakatini, balki moliyaviy risklarni, ayniqsa bozor risklarini ob'ektiv o'zaro bog'liqligini keltirib chiqardi.

M. Kastelsning so'zlariga ko'ra, fond bozorlarini xalqarolashtirish manbalaridan biri va shuning uchun risklar "moliyaviy oqimlarning spekulyativ harakati"dir<sup>36</sup>, buning natijasida bozorlar o'zgaruvchanligi kuchayadi, ya'ni o'zgaruvchanlik kuchayadi. Bunday sharoitda dastlab riskka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan moliyaviy institutlar endi global integratsiyaning, chayqovchilik va moliyaviy beqarorlikning asosiy vositasiga aylandi.

Globallahuv moliya sohasini o'zgartirmoqda, V.V. Chashkin buni quyidagicha izohlaydi: "Agar ilgari moliyaviy bozorlar asosan iqtisodiyotning real sektoriga xizmat ko'rsatgan bo'lsa (tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar, eksport kreditlari, investitsiyalar), 20 asrning 80-yillarning o'rtalaridan boshlab unda spekulyativ va sug'urta operatsiyalari ustunlik qildi."

Bu risklarning kelib chiqishiga sabab hali qimmatli qog'ozlarning milliy bozori jahon andozasi rejimida ishlay olmasligidir. Endi shu risklarni birma-bir ko'rib chiqaylik:

#### 1. Inflyatsiya jarayoni bilan bog'liq risk.

Sarmoyador (investor) qimmatli qog'ozlarni sotib olgan vaqtda har doim inflyatsiya xavfli bo'lishi mumkin. Inflyatsiyaning yuqori bo'lishi ko'zlangan daromadni olishga yo'l bermaydi va investor ma'lum darajada ziyon ko'rishi mumkin.

#### 2. Qonunchilikni o'zgarishi bilan bog'liq bo'lган risklar.

Mamlakatda xukumat o'zgarishi bilan yoki boshqa sabablarga ko'ra amaldagi qoununlar o'zgarishi mumkin yoki ularga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Natijada hukumat o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaydi. Bu hol qimmatli qog'ozlar bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. (Masalan, soliq tizimidagi o'zgarishlar, savdo qoidalarining o'zgarishi va h.k.).

#### 3. Foiz darajasining o'zgarishi.

Bu hol qimmatli qog'ozlar bozorida bozor bahosining o'zgarishi natijasida olinadigan foizga ta'sir ko'rsatadi. Kredit tizimini, valyuta kursini o'zgarishi natijasida moliya bozoridagi o'zgarishlarga olib keladi va ko'zlangan foydani olishni kamayish riski yuzaga keladi.

#### 4. Harbiy konfliktlar (mojarolar) bilan bog'liq bo'lган xavf-risklar.

Harbiy holat natijasida mamlakatda birjalar ishi yopiladi, qimmatli qog'ozlar bozoridagi savdolar to'xtatiladi va bu hol bir butun moliya bozoriga ta'sir ko'rsatadi.

<sup>36</sup> Kastels, M. Globalnyiy kapitalizm / M. Kastels // Ekonomicheskie strategii. - 2000. - №5-6. - s. 17

Risklarni baholash darajasiga qarab quyidagi hulosaga kelish mumkin, ya'ni:

- umum davlat miqiyosidagi risklar;
- tarmoq miqiyosidagi risklar;
- korporativ (korxona, firma) miqiyosidagi risklar;
- ayrim investorlar holati bilan bog'liq risklar.

Bularning kelib chiqish sababi, huquqiy-ijtimoiy, moliya, inflyatsiya, likvidlik bozorining rivojlanish darajasi bilan bog'liq.


Moliyaviy risklarni belgilovchi sifatida fond bozori institutsional elementlar orqali davlat, fond birjas, emitentlar va investorlar darajasida riskni boshqarish vositalarini shakllantiradi, ularning har biri ortib borayotgan risk bilan kurashish uchun umumiy yoki individual strategiyalarni ishlab chiqadi.

Yuqoridagilarga tayangan holda aytish mumkinki, risk ob'ektiv xususiyatga egaligidan kelib chiqib, unga ta'sir etuvchi omillarni yaxlit holda ko'rib chiqish lozim va ularni tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan ichki va tashqi omillarga bo'lismumkin.

Tashqi omillarni ikki guruhgaga bo'lib o'rghanish maqsadga muvofiq:

- bevosita ta'sir etuvchi omillar;
- bilvosita ta'sir etuvchi omillar.

Bevosita ta'sir etuvchi omillar riskka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi va bularga: qonunchilikning o'zgarishi, tadbirkorlikdagi raqobat, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan munosabatlarning o'zgarishi, soliq tizimining o'zgarishi, korruptsiya va reket kabi omillarni kiritish mumkin. Bilvosita ta'sir etuvchi omillar risklarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmasa ham ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi va bularga: siyosiy holat, xalqaro miqyosdagi voqealar (masalan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi), faoliyat yuritilayotgan davlatning iqtisodiy nobarqarorligi, faoliyat olib borilayotgan sohaning iqtisodiy ahvoli, tabiiy ofatlar kabilarni kiritish mumkin.(3-rasm).



### 3-rasm. Risklarni yuzaga keltiruvchi va ularning darajasiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi.

Risk - moliyaviy kategoriyadir. Shuning uchun, Risk darajasi va qiymati moliyaviy mexanizmi orqali ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday ta'sir moliyaviy boshqarish texnik yordami va maxsus strategiyasi bilan amalga

oshiriladi. Birgalikda, strategiya va texnikada, ya’ni, risk menejment mexanizmi bir hil shakllantirish tushuniladi. Shunday qilib, risk menejment, moliyaviy menejmentni bir qismidir. Risk menejmentning pirovard maqsadi foyda va xavfni optimal darajada bilish, maqbul nisbatda foydani qo’lga kiritishdan iborat.

Bank faoliyatida risklarni bank va bankdan tashqari muhim risklar , ya’ni, umumiy risklar) va bank faoliyati xususiyatidan kelib chiquvchi - tarkibiy risklarga tasniflash mumkin.

**Umumiyl bank risklar** quyidagicha tasniflanadi:

1. Kredit riski;
2. Bozor riski:
  - fond bozorlari riski;
  - valyuta riski;
  - foiz riski;
3. Likvidlilik riski;
4. Operativ risk;
5. Mamlakat riski;
6. Huquqiy risk;
7. Imidj riski.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki “Tijorat banklarining bank risklarini boshqarishga nisbatan qo’yiladigan talablar to’g’risida” Nizom (O’z.R. Adliya vazirligi 2011 yil 25 may № 2229 –son bilan ro’yxatga olingan) ga asosan: Bank riski – bank faoliyatiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy, texnologik ichki va (yoki) tashqi omillarga bog’liq bo’lgan holatlar natijasida bank faoliyatiga xos bo’lgan moliyaviy zararlar ko’rish va (yoki) bank likvidligi (bank o’z majburiyatlarini vaqtida bajarish qobiliyati) ni to’liq yoki qisman yo’qotish xavfining mavjudligi.

Bank faoliyatida, asosan, qo’yidagi bank risklari yuzaga kelishi mumkin:

A) kredit riski – qarzdorning shartnomada belgilangan shartlar bo’yicha bank oldidagi o’z moliyaviy majburiyatlarini qisman yoki to’liq bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo’qotish bilan bog’liq risk;

V) bozor riski – bankning qimmatli qog’ozlar portfelidagi instrumentlari narxlarining, shuningdek, xorijiy valyutasi va qimmatbaho metallar kurslarining salbiy o’zgarishi natijasida bankga yuzaga keladigan moliyaviy yo’qotish bilan bog’liq risk. Bozor riski fond, valyuta va foiz risklarini o’z ichiga oladi, bunda:

fond riski – qimmatli qog’ozlari portfelidagi instrumentlarning bozor narxlaridagi salbiy o’zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo’qotish bilan bog’liq risk;

• valyuta riski – xorijiy valyutasi va qimmatbaho metallarning ochiq pozitsiyalari bo’yicha shu xorijiy valyutalari kurslari va qimmatbaho metallar baholarining o’zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo’qotish bilan bog’liq risk; Valyuta risklariga majburiy me’yorlar ham o’rnatalidi: operatsion kun oxirida barcha valyutalar bo’yicha uzun (qisqa) ochiq pozitsiyalar bank o’z kapitalining 20% idan oshmasligi kerak va operaitson kun oxirida har bir

xorijiy valyutalar bo'yicha uzun (qisqa) ochiq pozitsiyalar bank o'z kapitalining 10% idan oshmasligi kerak.

foiz riski – aktivlar, passivlar va ko'zda tutilmagan xolatlardagi instrumentlar bo'yicha foiz stavkalarining salbiy o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk;

v) likvidlilik riski – bankning o'z moliyaviy majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk. Bankning likvidlilik riski asosan, aktiv va passivlarning so'ndirish muddatlarining o'zaro nomuvofiqligi oqibatida yuzaga keladi; U quyidagicha vujudga keladi:

- bankning moliyaviy aktivlari va moliyaviy passivlari nomutanosibligi;
- bank o'z majburiyatlarini zarur hollarda tez muddatda bajaraolmasligi natijasida yuzaga keladi.

g) operatsion risk – bankning ichki tizimlari, jarayonlari, axborot texnologiyalari, xodimlar harakatlarida yo'l qo'yilgan xatoliklar yoki tashqi tabiiy jarayonlar, shu jumladan tabiiy ofatlar, natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk; Operatsion risk - quyidagi holatlar natijasida paydo bo'ladigan zararlar riski:

- amaldagi qonunchilik talablari va bank faoliyati tavsifiga ko'ra bank operatsiyalarining o'tkazilish tartibining buzilishi;
- bank xodimlari tomonidan bank operatsiyalarini o'tkazilish tartibining buzilishi;
- bank foydalanadigan texnik va axborot tizimlarining to'liq shakllanmaganligi natijasida bo'lishi mumkin.

d) mamlakat riski – bankning xorijiy hamkorlari tomonidan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlar sababli o'z moliyaviy majburiyatlarining bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk;

e) huquqiy risk – bank tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar va tuzilgan shartnomalarga rioya qilinmaslik, ish jarayonida huquqiy xatoliklarga (notug'ri yuridik maslahat yoki hujjatlarni noto'g'ri tuzilishi) yo'l qo'yilishi, huquq tizimidagi kamchiliklar, hamkorlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk; Huquqiy risk - quyidagi holatlar:

\*bank tomonidan tuzilgan shartnomalar va huquqiy me'yorlar talablariga rioya qilmaslik;

\*faoliyat davomida huquqiy xatolarga yo'l qo'yish;

\*huquqiy tizimning noaniqliginatijasida paydo bo'ladigan risklardir.

.j) biznesda obro'-e'tiborni yo'qotish riski – bankning moliyaviy barqarorligi to'g'risida omma ichida salbiy tasavvur yuzaga kelishi sabali, mijozlar sonining kamayishi, ko'rsatilayotgan xizmat sifatining tushishi natijasida, bankda zararlar yuzaga kelishi riski;

**Imidj riski** - bankning moliyaviy holati haqidagi salbiy ko'rinishlar natijasida bank xodimlari sonining qisqarishi tufayli ham paydo bo'lishi mumkin.

z) firibgarlik riski – bankda xodimlar, mijozlar va boshqa hamkorlarning firibgarlik yoki boshqa jinoiy xatti – harakatlari oqibatida moliyaviy zararlar ko’rish xatari. Bankdan naqd pul va boshqa qimmatliklarning o’g’irlanishi hamda bank xodimlari tomonidan ataylab moliyaviy hisob va hisobotlarda zararlarni (vaqtincha yoki tekshirish orqali aniqlanguncha) yashirilishi natijasida bankning moliyaviy ziyon ko’rishi.

**Tarkibiy jihatdan bank risklari** quyidagicha tasniflanadi:

1. Operatsion xarajatlar o’sish riski:

- foiz xarajatlarining o’sishi riski;
- foizsiz xarajatlarning o’sish riski.

2. Nooperatsion xarajatlar o’sish riski.

3. Passiv operatsiyalardan keladigan daromadlarning qisqarishi riski.

4. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromadlarning qisqarishi:

- operatsion daromadlar (foizli va foizsiz) ning qisqarishi riski;
- nooperatsion daromadlarning kamayish riski.

5. Aktivlar qadrsizlanishi va yo’qolishi riski.

6. Boy berilgan foyda riski.

7. Daomadlarning qisqarishi (olinmagan) riski.

8. Zararlarning ko’payishi riski.

9. Kapitalning xavfli darajasiga tushish riski.

10. To’lovga layoqatsiz riski.

Bank xarajatlarini o’sishini ko’rsatuvchi **moliyaviy risklar** quyidagicha tasniflanadi:

- operatsion xarajatlarning (bank faoliyatining ta’minlovchi xarajatlar) o’sishi;

- foiz xarajatlarining o’sish riski, ya’ni jalb qilingan mablag’lar (olingan kreditlar, qarzlar, qo’yilmalar, depozitlar) bo’yicha to’lanadigan foizlar;

- foizsiz xarajatlarning o’sish riski, ya’ni xodimlarga moddiy va ish haqi xarajatlari, boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari, komission to’lovlar, to’langan dividendlar, kreditlar va boshqa operatsiyalar bo’yicha zararlarni qoplash maqsadida yaratiladigan zaxiralar bilan bog’liq xarajatlar;

- kooperatsion xarajatlarning o’sish riski, jumladan:

- ❖ soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning ortiqcha to’lashdagi yo’qolishlar riski;

- ❖ penya va jarimalarni to’lashdagi zararlar riski;

- ❖ mulkni sotishdangi zararlar riski;

- ❖ bankning ayrim turdagи aktivlarini qayta baholash jarayonida salbiy kurs farqidan keladigan zararlar riski.

**Daromadlarni qisqartirishni** ko’rsatuvchi moliyaviy risklar bankning to’lov qobiliyatiga, foydaliligiga, kapitaliga va likvidlik darajasiga salbiy ta’sir ko’rsatadi, ular quyidagicha tasniflanadi:

- passiv operatsiyalar bo’yicha keladigan daromadlarning qisqarish riski, jumladan hisobraqamlarni yopish, yuritish, ochish, naqd pullarni berish, mijoz hisobvarag’idan ko’chirmalar berishda oladigan komission daromadlar;

- aktiv operatsiyalar bo'yicha keladigan daromadlarning qisqarishi:
- ❖ operatsion daromadlarning qisqarish riski, xususan, foizli daromadlarning, jumladan berilgan kreditlar va qarzlar, boshqa banklarga depozit qo'yilmalar, lizing va qarz qimmatli qog'ozlar bo'yicha;
- ❖ foizsiz daromadlar qisqarish riski, jumladan, bank tomonidan olingan valyuta ayirboshlash operatsiyalaridan, trast operaitsyalaridan, yuridik shaxslar faoliyatida qatnashishdan daromadlar;
- ❖ nooperatsion daromadlar qisqarish riski, jumladan, ko'rsatilgan axborot va maslahat xizmatlaridan, mulkni sotishdan, garovni sotishdan va qimmatli qog'ozlarni qayta baholash jarayonida ijobji kurslardan keladigan daromadlar.

Bank riskini umumiyl chegaralab turish uchun quyidagi qoidaga amal qilish kerak: bankning o'z kapitali uning aktivlar hajmidan oshib ketmasligi kerak.

### **1.3 Bank risklarini boshqarishning nazariy asoslari va boshqarish usullari.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatish korxonalardan faoliyatning yuqorida keltirilgan tamoyillarini o'zgartirishni talab qiladi. Endi har bir bozor munosabatlari sub'ektining faoliyati qonun doirasida o'z me'yorlariga ega bo'ldi. Nobarqaror, tez o'zgarib turuvchi bozor munosabatlari sharoitida banklar o'z mijozlari, raqobatchilari tomonidan bo'ladigan xarakatlar va qonun hujjatlari o'zgarishi bilan bog'liq turli xil natijalar va ularning bank faoliyatiga ta'sirini inobatga olib borishi lozim. Chunki bunday o'zgaruvchan xolatlar bank faoliyati davomida yuqori risk qilishga olib keladi. Zamonaviy bank tizimini risksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bankning risksiz operatsiyasi yo'q, uning barcha operatsiyalari risk bilan bog'liq bo'lib, ularning darajasi operatsiya turiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Bank amaliyotida riskni umuman yo'q qilish mumkin emasligi bois, uni oldindan ko'ra bilish, uni kamaytirish choralarini ko'rish lozim.

O'zbekistonda bozor munosabatlari tamoyillarining amal qilishi tijorat banklaridan o'z faoliyatlari bilan bog'liq risklarni boshqa xo'jalik sub'ektlariga nisbatan ko'proq o'rganishlarini talab yetadi. Chunki tijorat banklari o'z faoliyatlari bilan bir tomondan, o'z aktsiyadorlari oldida javobgar bo'lsalar, ikkinchi tomondan, o'z mablag'larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalananayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar.

Rivojlangan mamlakatlar banklariga nisbatan MDH davlatlari shu jumladan, respublikamiz banklari faoliyati yanada ko'proq riskka ega bo'lmoqda. Buning asosiy sababi rejali iqtisodiyot davridagi bank faoliyatini bugungi davr talabiga javob beradigan holda qayta tashkil etilmaganligi va yangi turdag'i bank operatsiyalarini amalga oshirishda yetarli tajribaning yo'qligi banklar faoliyatidagi risk darajasining yanada oshishiga olib kelmoqda.<sup>37</sup>

Iqtisodiy risklar – bular mamlakat yoki bankning iqtisodiy ahvoldagi salbiy o'zgarishlar oqibatida yuzaga keladigan risklar. Yeng ko'p tarqalgan iqtisodiy risk

---

<sup>37</sup> «Bank risklari va kreditlash» Sh.Z.Abdullaeva, «Moliya» nashriyoti 2002 yil, 85-bet.

turiga balanslashmagan likvidlilik riski kiradi, ya’ni majburiyatlar bo’yicha tulovlarni o’z vaqtida bajara olmaslik.

Iqtisodiy risk deganda, umumiy yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida, shu jumladan, agar bunday tizimning umumiqtisodiy muvozanatini va uning YaIMning o’sish sur’atini jahon borzorida raqobatbardosh mahsulotni chiqarish orqali o’rnatish maqsadi qo’yilgan bo’lsa, u xolda ishlab chiqarish shakllarini oqilona uyg’unlashuvini tanlashda yuzaga keladigan risklar majmui tushuniladi, davlatning antitsiklik usullar va boshqalardan foydalanib samarali chora-tadbirlar o’tkazishini taqozo qiladi.

Har bir mamlakatning rivojlanish mavqeい bilan bog’liq bo’lgan iqtisodiy risklar, halqaro bank amaliyotida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari soxasida bo’lgan risklar bilan bevosita bog’liq. Bu risklarning bo’lishi va ularning darajasi esa importchi yoki eksport davlatga yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka bog’liq. Har bir mamlakatda iqtisodiy yoki siyosiy barqarorlikka asoslanib, shu mamlakatdagi iqtisodiy risk darajasini baholay olish chet el kapitali ishtirokida tashkil topgan qo’shma banklar va bosh litsenziyaga ega bo’lgan bank tashkilotlari uchun dorlzarbdir. Shuning uchun biror davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o’rnatishda, ayniqsa kredit va hisob-kitoblar bilan bog’liq munosabatlarni olib borishda, undagi iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash lozim. Jaxon amaliyotida shu maqsadda tavsiya yetiladigan yo’llardan biri bu mamlakat iqtisodiy risklari hajmini taxlil qiluvchi BYeRI indeksidan foydalaniladi. Uning yordami bilan oldindan mamlakat iqtisodiy risklarining hajmi belgilanadi.

Mamlakat iqtisodiy riskini bashorat qilish davlat qurilmasining tarkibi va sifat darajalarini tahlil qilishga, shuningdek amaliy ma'lumotlar va nisbatlarni o’rganishga asoslangan miqdor ko’rsatkichlariga tayanishi kerak.

Makrodarajada mamlakat iqtisodiy riskini baholashda asosiy ko’rsatkichlar sifatida quyidagilar tahlil qilinishi mumkin:

- iqtisodiyotning samaradorligi (bunda YaMMning o’rtacha yillik o’sishi hisoblanadi);
- siyosiy risk darajasi;
- jahon banki ma'lumotlariga asosan olingan kreditlar miqdori, ular bo’yicha qarzdorlik darajasi, kreditni qaytib tulash jarayonining amalga oshirilish sifati, eksport xajmi, tashqi qarzlar, tashki savdo oboroti va boshqalar;
- bank kreditlarini olish imkoniyati;
- qisqa muddatli kreditlash imkoniyati;
- uzoq muddatli kreditlash imkoniyati;
- fors-mojor xolatlarining yuzaga kelishi;
- mamlakatning kreditga layoqatlilik darajasi;
- tashki karzlar bo’yicha to’lanmagan majburiyatlar.

Iqtisodiyotning mezodarajadagi risklarining salmoqli turi - sanoat riski ma'lum tarmoqning ichida ham, boshqa tarmoqlarga nisbatan ham alohida olingan tarmoq iqtisodiy ahvolning o’zgarishi, uning rivojlanishi va amal qilishining o’ziga xosligi bilan bog’liq.

Xo'jalik tarmog'iga nisbatan soliq me'yorlaridagi, tarmoq yo'riqnomalari, kredit olish shartlari va boshqalardagi o'zgarishlar risk manbai bo'lib hisoblanadi. Sanoat riskini baholashda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

- alohida olingan tarmoqning bir-biriga bog'liq tarmoqlar bilan o'zaro aloqada ma'lum vaqt mobaynidagi faoliyati (tarmoqning hayotiy davri);
- bir-biriga bog'liq tarmoqlar faoliyati mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan qanchali barqaror bo'lishi;
- korxona yoki firmalarning o'z kapital qo'yilmalarini boshqa tarmoqlarga o'tkazish imkoniyati;
- firmalarning bajarayotgan ish xajmi, ishlaydiganlar soni, tarmoq ichidagi ularning xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalari bo'yicha qay darajada tasnif qilinganligi va h.k.

Iqtisodiyotning ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining sub'ektlari hisoblangan korxonalar, xorijiy investorlar, davlat, yakka xujaliklar va ular bilan bog'liq ashyoviy (tovar) va monetar (pul) oqimi tebratadi. Xujalik oborotining g'ildiragi bu – pul mablag'lari bo'lib, ular banklar va boshqa moliyaviy muassasalar orqali oqib o'tadi. Shuning uchun iqtisodiyotning qaysidir bir sohasi yoki kanalida mavjud risklar banklar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Iqtisodiyotda nafaqat pul oqimida, balki barcha jarayonlarda riskning yuzaga kelishi uni yuzaga keltiruvchi manbalarga bog'liq bo'ladi. Aniqrok qilib aytadigan bo'lsak, risk bu faoliyat ko'rsatuvchi sub'ektlar amaliyotida yuzaga kelib iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda aniq va yechimi bo'lмаган holatning son va sifat jihatdan bog'liq bo'lган vokeliqni anglatadi.

Banklarning bajaradigan operatsiyalariga qarab emissiya va tijorat banklariga bo'linadi. "Banklarning eng muhim vazifalaridan biri bu "pulni yaratish". Pulni yaratish bu pulni "ishlab chiqarish" bilan cheklanmasdan, buning o'rniga bank rezervlaridan "tomchilanma" usulida ham pulni ko'paytirish mumkin", - deydi xorijlik olim Stefan D.Simpson.<sup>38</sup>

Har qanday mamlakatda emissiya banklari kredit tizimining markazi hisoblanadi, ularga davlat banknotalar chiqarish, emissiya uchun monopoliyalik huquqini beradi. Ular boshqa banklarni kreditlaydi va shu ma'noda banklarning banki sanaladi. Bizning mamlakatimizda kredit tizimining markazi, emissiya banki va banklarning banki O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki hisoblanadi.

Ma'lumki, tijorat banklarida risklarni minimallashtirishga risk strategiyasini ishlab chiqish orqali erishish mumkin.

Bank riskini boshqarish tizimi riskning yuzaga kelishini oldindan xom-cho't qilish, risk tufayli yuzaga keladigan salbiy xolatlarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish borasida chora-tadbirlar, usullar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Bank riskini boshqarish tizimining ob'ekti banklar faoliyatida yuzaga keluvchi risklar bo'lsa, uning sub'ekti sifatida riskga o'z ta'sirini o'tkazuvchi gurux, bank bo'limi hodimi yoki menejeri hisoblanadi.

Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish uchun bank faoliyatini chuqur bilish, bank bajaradigan operatsiyalarning samaradorligini

<sup>38</sup> "The Banking System" by Stephen D.Simpson, CFA. Investopedia 2016

aniqlay bilish, bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyatlarini bo'yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo'jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlari va boshqalarni bilish lozim.

Bankning risklarni boshqarish strategiyasi bankning barcha imkoniyatlaridan to'la foydalanish, bankni rivojlantirish istiqbollarini belgilab berish va bank risklarini oldini olib banklar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayoni tijorat banklarining barqaror faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Chunki tijorat banklari bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning barqarorligi davlat ahamiyatiga egadir.

Bank faoliyatida riskning yuzaga kelishi ba'zi bir salmog'i, ta'siri, shakli jihatdan turlicha bo'lgan noaniqliklar bilan bog'liq bo'ladi. Chunki bank faoliyati tashqi muhitga bog'liq bo'lib, unga ob'ektiv iqtisodiy va siyosiy jarayonlar va ulardagi bo'ladigan o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadi.

Bank faoliyatida risklarning yuzaga kelishining quyidagi sabablari mavjud:

- bozorni yaxshi o'rganmaslik;
- resurslarni jalg qilish va ularni joylashtirish sohasida ma'lumotlarning yetarli emasligi;

- kreditlanadigan loyiha, ob'ekt va mijozlar to'g'risida, ularning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumot va axborotlarning to'liq emasligi;

- tarmoqlar faoliyatini xususiyatining inobatga olinmasligi;
- sub'ektlar yoki mijozlarning ongi, saviyasi, mablag'lardan foydalanish bo'yicha bilimi va maqsadlarining turli xilligi va boshqalar hisoblanadi. Shu sababli bank risklarining iqtisodiy kategoriya sifatida ta'rifi uning ob'ektiv va sub'ektiv sabab va oqibatlarini o'zida ifoda qilmog'i lozim.

Bugungi kunda biz bu sohani rivojlantirmsandan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta'minlay olmaymiz. "Aqli biznes egalari bilishadiki, xodimlarni maqsad sari to'g'ri yo'naltirish bu omad sari yetaklovchi kuchdir", - deb ta'kidlaydi iktisodchi Jim Blasingeym o'zining zamонавији qarashlarida.<sup>39</sup>

Risk darajasini baxolashga hamda uni kamaytirishga qaratilgan eng qadimiy choralardan biri bu risklarni sug'urta qilish usulidir. Bugungi kunda respublikamiz tijorat banklarining bu usuldan foydalanishlari bir muncha kiyinroq bo'lmoqda, chunki o'tish davrida barcha MDH davlatlaridagi kabi bizning respublikamizda ham sug'urta faoliyati yangi davr talablari ostida qayta tashkillashtirilmoqda va yangi o'zlashtirilayotgan sohalar qatoriga kirmoqda. Bank risklarini paydo qiluvchi faktorlar asosida eng avvalo iqtisodiy hamda siyosiy faktorlar yotadi. Kuyidagi 3-jadvalda bank risklarini boshqarish jarayonining vazifalarini belgilovchi to'rtta asosiy bosqichi ko'rsatilgan:

1. Kapital yetarlilikiga minimal talab (kredit, operatsion va bozor risklarining baholash jihatlarini aks yettiruvchi tijorat banklari kapitali yetarliliga

<sup>39</sup> "Motivating employees is good business" by Jim Blasingame, "The Small Business Advocate" August 5/2015.

minimal talab). Bundan asosiy maqsad, bank regulyativ kapitalining mavjud iqtisodiy risklarga nisbatan ta'sirchanlik darajasini yanada aniqlashtirishdan iborat.

2. Nazorat jarayonlari (joriy nazorat). Bazel qo'mitasi risklarni hisoblashda nafaqat kapitalga nisbatan minimal talablarga rioya qilinishini tekshirish, balki tijorat banklari va nazorat organlarining tahlil imkoniyatlarini rivojlantirish, xususan kapital yetarlilikini ichki baxolash metodlari bilan baxolashda stress-testni yo'lga qo'yishni taklif etadi.

3. Bozor dastaklaridan samarali foydalanish (bozor intizomi). Bu komponent yuqorida ikkita komponentni to'ldiradi, shuningdek bozor intizomining mustahkamlanishiga imkon yaratadi.

3-jadval

### **Bank risklarini boshqarish jarayonining vazifalarini belgilovchi bosqichlari**

<b>Bank risklarini tahlil qilish va baholash.</b>	<b>Risk miqdorini aniqlash.</b>	<b>Bank risklarini boshqarish.</b>	<b>Bank risklarini boshqarish.</b>
Bank axborot manbalari-dan kredit risklarini va ular o'rtaсидagi bog'liq-liklarni o'rganib chiqish hamda ularni nazorat qiladigan risklarga ajratish kerak.	Riskning miqdoriy ko'rsatkichini aniqlash extimoliy yo'qotish-lar miqdorini aniq-lashga va aktiv boshqarish instru-mentlari vositasida risk darajasini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.	Boshqariladigan risklar va ularning miqdori aniqlanganidan keyin, kredit risklarini boshqa-rish metodologiyasi va strategiyasi ish-lab chiqilishi zarur.	Risklarni boshqa-rish bo'yicha tadbir-lar natijalari na-zorat ostida bo'lishi lozim.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi 2004 yil iyun oyida tijorat banklari kapitali yetarlilikini ta'minlash muammosi hamda ular tomonidan iqtisodiy me'yorlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni yaxshilash masalalariga bag'ishlangan yangi yondashuv «Kapitalni o'lchash va kapital standartlarining halqaro konvergentsiyasi (Bazel III ni) e'lon qildi. Bu talablar uchta komponentga asoslanadi:<sup>40</sup>

Baza ko'rstanichlari asosida yondashuvda bank operatsion risklarni qoplash uchun oxirgi uch yilda o'rtacha yillik yalpi ijobiy foydaning **15%** iga teng kapitalni ko'zda tutishi lozim. Kapitalni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$KBIA = [ \sum (GI_{1...n} * \alpha) ] / n(1)$$

Bu yerda: **KBIA** - kapitalga qo'yilgan talab; **GI** - oxirgi uch yilda urtacha yillik yalpi ijobiy foya; **n** - yillar miqdori (uch yil); **α** - 15% bu kurstakich Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan.

Shuni hisobga olgan holda, banklarda kredit risklari bo'yicha aniq ma'lumotlarning yetarli emasligi bank aktivlari sifatini baholashda qiyinchilik tug'diradi, bu esa kutiladigan zararlarga qarshi zaxiralarni shakllantirish uchun qo'shimcha mablag'larga ehtiyoj uyg'otadi. Bank kapitali esa ko'zda tutilmagan zararlar uchun himoya vazifasini o'taydi.


Standartlashgan yondashuvda butun bank faoliyati 8 ta yo'nalishga ajratiladi: korporativ moliya, oldi-sotdi va sotish, chakana bank xizmatlari, bankning tijorat operatsiyalari, to'lovlar va hisob-kitoblar, agent xizmatlari,

<sup>40</sup> «Bozor, pul va kredit» jurnali, 2007yil, 9 sentyabr, 27-29 betlar.

aktivlarni boshqarish va chakana brokerlik operatsiyalari. Xar bir yo'nalish bo'yicha yalpi foyda mazkur yo'nalish uchun foiz me'yorini aniqlashda asos bo'ladi. Ushbu foiz me'yori risklarning har bir yo'nalish bo'yicha darajasi va turiga bog'liq holda 12 dan 18 foizgacha tebranadi. Kapitalni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$K_{SA} = \{ \sum_{yillar=1-3} \max [ \sum (GI_{1-8} * \beta_{1-8}), 0 ] \} / 3 (2)$$

Bu yerda:  $K_{SA}$  - kapitalga qo'yilgan talab;  $GI_{1-8}$  - har yil uchun 8 ta yo'nalish bo'yicha o'rtacha yillik yalpi ijobiy foyda;  $\beta_{1-8}$  - 12-18% bu ko'rstanich Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan.



Rivojlantirilgan yondashuv operatsion riskni qoplash uchun kerak bo'ladigan kapital miqdorini hisoblashning xususiy usuliga asoslanadi. Ushbu usulni ma'lum bir sifat va miqdor andozalariga javob beradigan banklar ishlatishi mumkin. Bank rahbariyati Markaziy bankni operatsion riskni baxolash tizimi, ma'lumotlar jamlash sifati, nazorat mexanizmini shakllantirilganligiga ishontirishi lozim.

Kredit riskini kamaytirishning navbatdagi yo'nalishi bizning fikrimizcha o'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2 dekabr 1998 yildagi №557 "o'zaro bog'liq qarz oluvchilar guruhi yoki bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi maksimal risk miqdori to'g'risidagi yo'riqnomaga amalda rioya qilishdan iborat. Bu yo'riqnomaga bo'yicha - bir qarz oluvchiga beriladigan kredit miqdori bankning ustav kapitali miqdorining 10% dan yuqori bo'lmasligi;

- bank tomonidan beriladigan yirik kredit miqdori bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 10% dan oshmasligi;

- bir qarz oluvchiga yoki o'zaro bog'liq qarz oluvchilar guruhiga to'g'ri keluvchi maksimal miqdori bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 15% dan oshmasligi;

- ishonchli (blankali) kreditlar bo'yicha maksimal risk miqdori bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 5% dan oshmasligi;

- bank tomonidan berilgan yirik kreditlarning umumiyligi summasi bank regulyativ kapitalining 1 darajasidan 8 martadan oshmasligi lozim.

Xalqaro bank amaliyotida kredit risklarining oldini olish bo'yicha qabul qilingan yo'riqnomalarning tahlili shuni ko'rsatadi, jahon amaliyotida kredit risklarining oldini olish bo'yicha quyidagi talablar qo'yilgan.

- biror bir qarz oluvchi bankning asosiy kapitalining 10% yekvivalentidan ortiqcha mablag' ola olmaydi;

- bir tarmoqqa beriladigan kredit miqdori bankning umumiyligi portfelining 25% idan oshmasligi lozim;


- bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi taxminiy risk (garovga qo'yilgan mulk baholanganidan keyin) bankning asosiy kapitalining 1% dan oshmasligi lozim;

- taxminiy (kutilag'tgan) risk miqdori mijozdan olinishi kutilag'tgan yillik foyda miqdorining 3 barobaridan oshib ketmasligi kerak.

#### **1.4 Banklarda risk-menejment tizimi: tarkibi va joriy qilish mexanizmi.**

Xalqaro moliya bozorlarida resurslarning yanada samarali taqsimlanishini ta'minlash yo'li bilan moliya innovatsiyalari, moliya bozorlarining ochiqligi hamda globalizatsiya mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi va iqtisodiy o'sishlariga turtki bo'ldi. Shuningdek, kapital harakatining erkinligi qarzdorlar uchun yangi moliyaviy manbalarga yo'l ochilishiga va oqibatda investitsiyalar miqdorining haddan tashqari ko'payib ketishiga hamda bank riskini oshishiga olib keldi. Bu o'z navbatida, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda banklarni sinishiga sababchi bo'ldi.

Ohirgi 25 yilda risklarni boshqarish sohasida revolyutsion o'zgarish sodir bo'ldi: risk-menejment faqatgina moliyaviy korporatsiyalarda emas, balki iqtisodiyotning boshqa sektorlarida ham qo'llanila boshlandi. Risklarni boshqarishdagi yangi paradigmasi, kompaniyalar, holdinglar va iqtisodiyotning butun tarmoqlari risklarini boshqarishda aniq operatsiya va faoliyat sohalari bo'yicha tor doirada qismli yondashuvidan kompleks boshqaruvga o'tishni ko'zda tutadi.



**4-rasm. Risk menejmenti standartlarining rivojlanish tarixi**

XX asr 90-yillarining boshida jahon tajribasida risk-menejment sohasida standartlarini shakllanishi kuzatildi. (1-rasm)

Standartlarning yoyilishi davllatlarda, xalqaro darajada va hattoki, tarmoq darajasida (bank, sug'urta tashkilotlari) amalga oshirildi. Buning isboti bo'lib, risklarni boshqarishning anglosakson huquqli davlatlar (Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, JAR, Kanada) milliy standardlari, shuningdek, Homiylik tashkilotlari Treadway komissiya Komiteti (COSO, AQSH) ishlab chiqqan standart, risk-menejerlar yevropa assosiyasiya federatsiyasi standarti (FERMA) va risklarni boshqarish standarti ISO 31000:2009 hisoblanadi.

Tarmoq risklarini boshqarish standartlari orasida sug'urta tashkilotlari (Solventsy, Solventsy 2) va bank (Bazel, Bazel 2, Bazel 3) faoliyati bilan bog'liq bo'lgan standartlar mashhurdir.

Yevropa Ittifoqidagi davlat instittlari risk-menejmentining amaliy ko'nikmalarini ekologik, texnologik, sotsial va boshqa masalalarni yechishda qo'llay boshladilar. Risk-menejment menejmentning muhim va ajralmas qismlaridan biri bo'lib, risk ko'rsatkichlari top-menejerlardan boshlanib, kichik boshqaruvchilarga qadar rag'batlantirish va mukofotlash omiliga, shuningdek, KPI5 ning hal qiluvchi indikatoriga aylandi.

Risk-menejment sohasidagi standartlar quyidagi unifikatsiyani ko'zlaydi:

Bu sohada ishlatilayotgan terminologiya;

Risk boshqarish jarayoni tarkibi;

Risk-menejmentning tashkilotlardagi tizimini tuzish yo'llari.

Bunda risk boshqarish jarayoni bir-biri bilan bog'liq 8 tarkibiy qismdan iborat deyiladi, ular:

Ichki muhitni aniqlash;

Maqsadlarni aniqlash;

Riskli voqealarini aniqlash;

Riskni baholash

Risk ta'siriga javob berish;

Nazorat vositasi;

Axborot va aloqa;

Monitoring.

Jahon tajribasida "COSO kubi" nomini olgan bu standart tashkilotlar maqsadlari (strategik, operatsion, hisobotga tayyorgarlik va qonunlarga rioxalish), kompaniyaning tashkiliy tuzilmasi va risk boshqaruv jarayoni tarkibiy qismlari o'rtasida bog'liqlikni ifodalaydi.

Rivojlangan mamlakatlar banklari tomonidan o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi 15-20 yil mobaynida bank nazorati nafaqat moliya sektorida, balki butun iqtisodiyotda juda muhim rol o'ynaydi.

Federal moliyaviy institutlarni tekshirish konsulligi

Ushbu Konsullik 1979 yil 10 mart kuni tashkil etilgan. Konsullik rasmiy tashkilot bo'lib, u moliyaviy institutlarni tekshirish uchun umumlashgan standartlar, tamoyillar va hisobot shakl-larini ishlab chiqishda vakolatdor tashkilot hisoblanadi. Konsullik standartlarni ishlab chiqishda FRT ning boshqaruv kengashi, DSFK, kredit uyushmalarini milliy Boshqaruvi, Pul Muomalasi Nazorati

Ofisi va Jamg’arma Nazorati Ofisi bilan ishlab chiqadi. Ushbu konsullik moliyaviy institutlarni, jumladan, tijorat banklarini UBOR(Uniform Bank Performantse Report) bo'yicha nazorat qilishni ishlab chiqqan. Bank faoliyatining hisoboti (UBOR) har chorakda banklarga yuboriladi va u federal darajada banklarni nazorat qiladi. UBOR hisobotida bankning aktivlari, uning majburiyatları, kapitali, daromad va xarajatlarining joriy yil hamda oldingi 3 yildagi holati haqida malumotlar beriladi. Shuningdek, taqdim etilgan kreditlar strukturasi, lizing bo'yicha majburiyatlar, muammoli kreditlar bo'yicha hamda kreditlar bo'yicha yo'qotishlar tahlili va bankning risk darajasi taqdim etiladi. UBOR yordamida AQSHda tijorat banklari masofadan turib nazorat qilinadi.

Angliya banki tomonidan qo'llanilayotgan nazorat tizimi har bir bank bo'yicha alohida xususiyatga egadir. O'tkazilgan nazorat natijasida banklarning shart - sharoitlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularning rahbarlari bilan kelishilgan holda tadbirlar ishlab chiqiladi.

Mazkur tadbirlar bankning kerakli darajada kapitalga nisbatan eng kam operativ xavfsizligini, rezerv mablag'lar, likvidlik, buxgalteriya hisobi va boshqaruv xodimlari bilan suhbat o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Bank rahbariyati bilan suhbat o'tkazish Buyuk Britaniya nazorat tizimining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatdagi barcha kredit institutlari Federal nazorat boshqarmasi hamda Nemis Federal banki (Bundesbank)iga o'z faoliyatlaridagi barcha o'zgarishlar to'g'risida hisobot berib borishadi. Shuningdek, oylik hamda yillik hisobotlarni taqdim etadilar. Banklar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Federal boshqarma Bundesbank bilan kelishilgan holda kredit institutlari faoliyati uchun majburiy iqtisodiy me'yorlar o'rnatib boradi.

Respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirish muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda esa moliyaviy mablag'larning muhim manbasi sifatida bank aktivlari muhim o'rinn tutadi.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy qismini aktiv amaliyotlari tashkil qiladi. Aktiv amaliyotlar – bankning foyda olish maqsadida o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni samarali joylashtirishi bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, banklar aktivlari hajmining o'sishi bilan bir qatorda bank aktivlari tarkibida muammoli, ya'ni qaytishi dargumon bo'lgan aktivlar hajmining o'sishi, bank aktivlarining muayayn sohaga yig'ilib qolishi natijasida aktivlar tavakkalchiligi darajasiningortishi, bankda daromad keltirmaydigan aktivlar hajmining me'yor darajasidan oshib ketishi kabi salbiy holatlarning yuzaga kelish ehtimoliham ortadi. Fikrimizcha, bunday sharoitda banklarda samarali menejment tizimi, ya'ni maqbul boshqaruv mexanizmini rivojlantirish asosiy masalalardan hisoblanadi.

Bank menejmenti moliyaviy menejmentning asosiy bo'g'ini sifatida o'zida bank faoliyatini samarali tashkil etish, boshqarish va istiqbolli rivojlantirishning aniq mexanizmini qamrab oladi. Zamonaviy bank menejmenti tizimi bankni

rivojlantirish, moliya instrumentlarini hamdahududlarda bank tarmoqlarini kengaytirish, raqobat siyosatini to'g'ri yo'lgaqo'yish, muloqot strategiyasini rivojlantirishni samarali boshqarishga oidmunosabatlarni mujassamlashtiradi.

Banklarda aktivlarni boshqarish masalalari bank menejmentining asosiy yo'nalishi sanaladi. Bunda bank menejmentining muhim unsurlaridan hisoblangan – rejalashtirish, tahlil (monitoring), muvofiqlashtirish, nazorat (baholash) tamoyillari bank aktivlarini boshqarishning tashkiliy asoslarini ifodalaydi. Shuningdek, banklarda aktivlarni boshqarish tizimi passivlar, likvidlik, samaradorlik, xodimlarni boshqarish kabi bank menejmentining tarkibiy qismlari bilan chambarchas bog'langan. Bank aktivlarini boshqarishda strategik, tavakkalchilik, sifat, marketing, innovatsiya kabi menejmentning turi usullaridan foydalanish zarurati asoslab berilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini ko'rsatishicha, bank aktivlarini boshqarish, aktivlarning samaradorlik darajasini saqlab turish, aktiv operatsiyalar hajmini oshirib borish banklarni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Bunday vaziyatda bank aktivlarini to'g'ri boshqarish orqali bankning resurslar bazasini mustahkamlash, aktiv amaliyotlarni ko'paytirish asosida bank daromadini oshirish talab qilinadi. Bundan tashqari, moliya bozorida banklarning raqobatbardoshligini mustahkamlash, mijozlar, aktsiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini to'liq kafolatlay oladigan bank mexanizmini shakllantirish ko'p jihatdan banklarda aktivlardan samarali foydalanish, xarajatlar samaradorligini oshirish kabi bir qator ichki imkoniyatlardan keng foydalanishni talab etadi.

Aktivlarni boshqarishda asosiy e'tibor tavakkalchilikning eng past darajasi sharoitida daromadlar va xarajatlar orasidagi ijobiy farqni mumkin qadar oshirish yoki uni juda bo'limganda barqaror darajada saqlab turishga qaratilishi zarur.

### **Bahs munozaralar uchun savollar**

1. Risk va uning iqtisodiy mohiyati deganda nimani tushunasiz ?
2. Bank riski, uning mohiyati, yuzaga kelish sabablarini keltiring va bank riskiga qaysi omillar ta'sir etadi?
3. Bank risklarini boshqarish qanday usullari mavjud?

## **2-mavzu. Bank risklarini yuzaga keltiruvchi va ularning darajasiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi**

**Reja:**

**2.1 Risklarni yuzaga keltiruvchi va ularning darajasiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi va ularni boshqarish zaruriyati.**

**2.2 Banklarning moliyaviy risklarini tahlil qilish usullari. Risklarni boshqarish usullari.**

**2.3 Bank risklarini aniqlashga yondashuvlarni shakllantirish.**

**2.4 Bank risklarining sabab va oqibatlarini o'rganish va ularni guruhlash.**

**Kalit so'zlar:** kredit riski, operatsion riski, valyuta riski, kapital riski, likvidlilik riski, foiz riski, riskni aniqlash, riskni baholash, riskni boshqarish, metod, usul, variatsiya.

### **2.1 Risklarni yuzaga keltiruvchi va ularning darajasiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi va ularni boshqarish zaruriyati.**

Turli omillarni iqtisodiyotga ta'sir etish tabiatini va qonuniyatlarini iqtisodiyot sub'ektlari tomonidan ko'pincha doimo uzlucksiz, o'z vaqtida aniq va to'la idrok qilinishi qiyin bo'lganligi sabali va shu munosabat bilan tabiatan ehtimoliy bo'lgan risklarni moliyaviy xizmatlar bozorida vaqt-vaqt bilan vujudga kelishi tufayli unda sodir bo'luvchi riskli hodisalar, jarayonlar va hatti-harakatlar hozirgacha bu bozorning asosiy muammolardan bo'lib kelmoqda.

Kredit riskining yuzaga kelishiga quyidagi hollar:

a) turli xil makro va mikroiqtisodiy omilar, iqtisodiy qonunilik va me'yordagi o'zgarishlar;

b) qarz oluvchi o'z faoliyatida bo'ladijan iqtisodiy va siyosiy muxitdagi o'zgarishlar, salbiy hollar tufayli olingan kreditni to'lashga mos pul oqimini tashkil qila olmasligi;

v) kreditning ta'minlanganligi uchun olingan garovning qiymati va sifati bo'yicha to'liq ishonchning yo'qligi;

g) yuqori bilimga ega bo'lgan bank xodimlar va mijozlarning kamyobligi;

d) qarz oluvchi sub'ektning maxalliy yoki davlat miqyosida obro'sining tushib ketishi, uning ishchanlik faoliyatida yuzaga kelgan o'zgarishlar va boshqa sabablar bo'lishi mumkin.

Kredit riski tashqi omillarga (bozor holati bilan, iqtisodiy muhit holati bilan bog'liq) va ichki omillarga (bankning o'zining xato faoliyati sabab bo'lgan) bog'liq bo'ladi.

Tashqi omillarni boshqarish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa ham, ammo o'z vaqtidagi xarakatlar bilan bank ushbu omillarning ta'sirini yumshatishi va yirik zararlarni bartaraf qilishi mumkin.

Bankda kredit riskining yuzaga kelishi birinchidan puxta ishlab chiqilgan kredit siyosati va unda qayd etilgan mijozlar bilan bo'ladijan operatsiyalarga tegishli umumiy yo'riqnomalarning mavjudligiga; ikkinchidan, ushbu

yo'riqnomalarni hayotga tadbiq etayotgan bank xodimlarining bilim darajasiga va xarakatlariga, ya'ni riskni boshqarish qobiliyati bank rahbarlarining omilkorligiga, hamda kredit shartnomalarining shartlarini ishlab chiquvchi, kredit loyihalarni tanlab oluvchi bank xodimlarining malaka darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi kreditlash tizimini rivojlantirish quyidagilarga bog'liq:

1.Banklar va boshqa maxsus kredit institutlarining kredit berish hajmi, ular tomonidan jalg qilingan kredit resurslari miqdoriga bog'liqdir. (1:10):

2.Banklar tomonidan kredit berish tijorat asosiga mo'ljallangan (arzon olib - qimmat sotish va marja):

3.Kredit berish, olish, qoplash, nazorat qilish kredit oluvchi v bankning kelishuviga ya'ni kredit shartnomasiga asoslanadi:

4.Kreditlashda xozirgi kunda asosiy bo'lib ya'ni birlamchi bo'lib kredit sub'ekti, so'ng esa kredit ob'ekti hisobga olinadi:

5.Kreditlash miqdori (hajmi) bank bo'yicha (potentsiali) Markaziy bankning iqtisodiy normativlariga bog'liqdir (N1 - kapital yetarligi, bank likvidligi, majburiy zaxira miqdori, qayta moliyalashtrish stavkasi va boshqalar).

Ba'zi bir mijozlar kredit olish, uni to'ldirish jarayonida oldingi davrdagi kabi kredit ob'ektlari bo'yicha hujjat, ba'zi bir mijozlar esa yangi usul yordamida kredit olish uchun xarakat qiladilar.

Kredit berish tizimining yangi zamонавиу belgilaridan keyingisi bu banklar tomonidan yuqori darajada kafolatlangan, bank ssudalarini berishni tashkil qilishdir. Risklarni boshqarish jarayonida asosiy e'tibor uni baholashga qaratiladi. Riskni baholash-uning darajasini miqdoriy yoki sifat o'lchamlari bilan aniqlashdir.

Bankning foiz siyosati kredit siyosatining asosiy bo'limi hisoblanadi. Bu siyosat turli kreditlar va qarzdorlar bo'yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniqlashda foydalilaniladigan quyidagi 3 omillarni o'z ichiga oladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi;

2. Kredit resurslari (o'z va jalg qilingan mablag'lari) manbalari;

3. Kreditlash, qarzdorlar turlari va yo'naliishlari.Moliyaviy riskni boshqarish ko'p xilma-xil va ba'zan bir-biriga zid bo'lgan real asoslarga ega bo'lgan moliyaviy risklarning ko'p qirrali tabiatini va namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab faoliyat turidir.

Risklarni boshqarish bu risklarning paydo bo'lish ehtimolini kamaytiradigan yoki ularning oqibatlarini lokalizatsiya qiladigan usul va uslublarni majmuini amalga oshirish jarayonidir<sup>41</sup>.


Bizning fikrimizcha risklarni baholash bu-maxsus texnik vositalardan foydalangan holda korxonadagi salbiy moliyaviy oqibatlarni oldindan ko'rish, minimallashtirish va zararsizlantirish maqsadida risklarni aniqlash, baholash, oldini olish va sug'ortalash bilan bog'liq faoliyat majmuasidir.

<sup>41</sup> Finansoviy menedjment / Pod red. Ye.I. Shoxina. – M.: KNORUS, 2011. – S.67.

## 2.2 Banklarning moliyaviy risklarini tahlil qilish usullari. Risklarni boshqarish usullari.

Xozirgi kunda risklarni boshqarish masalasida asosiy e'tibor faoliyatning moliyaviy sohalarida ishtirok etadigan tashkilotlarga qaratilmoqda, chunki xatarlarni boshqarish va boshqarish muammolari an'anaviy ravishda moliyaviy institutlarning kundalik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Risklarni boshqarish jarayoni to'rt bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda korxona risklari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda risk darajasi tahlil qilinadi va miqdori belgilanadi, uchinchi bosqichda risklarni boshqarishning o'ziga xos usullari tanlanadi va to'rtinchchi bosqichda ushbu usullar amalga oshiriladi va erishilgan natijalar baholanadi<sup>42</sup>.



### 5-rasm - Moliyaviy risklarni boshqarish jarayonining bosqichlari

Ushbu 5-rasmida risklarni boshqarish bosqichlari keltirib o'tilgan. Birinchi bosqich quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: 1) umuman korxonaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati bilan bog'liq risk omillarini aniqlash; 2) tashkilotning moliyaviy risklarining tashqi va ichki (tizimli va tizimsiz) turlarini aniqlash; 3) korxonaning bo'lajak moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarning umumiy portfelini shakllantirish; 4) aniqlangan moliyaviy risklar portfeli asosida korxona moliyaviy-iqtisodiy faoliyatining eng riskli turlari va sohalarini (ular yuzaga keladigan xatarlarning kengligi mezoni bo'yicha) aniqlashdan iboratdir.

Menejment bosqichlari ichida eng asosiysi ikkinchi bosqich - moliyaviy risklarni tahlil qilish va baholash hisoblanadi.. Aynan shu bosqichda mumkin bo'lgan zarar ehtimolligi aniqlanadi va risk miqdori aniqlanadi. Tahlil sifat va miqdoriy usullaridan iborat bo'lishi mumkin. Sifat tahlilida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan risk turlari aniqlanadi, risk darajasiga ta'sir qiluvchi omillar o'r ganiladi.

<sup>42</sup> Abasova X.A.Razvitie metodov upravleniya finansovymi riskami v organizatsiyax nefteservisa. dis.na soiskanie uch.step.k.e.n.M., 2015g. S.43.

Miqdoriy tahlil natijasida moliyaviy risklar va ularning ayrim kichik turlariga jami pul zararining o'ziga xos hajmi aniqlanadi.

Kredit riskini boshqarishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat.

1. Kreditning maqsadi, ya'ni boshqarish strategiyasi determinantlarini aniq belgilab olish.

2. Turli kreditlarning daromadlilik darajasi to'g'risidagi taxminga ega bo'lish.

3. Tanlab olingan vositalarning oqilona nasbatini ta'minlash maqsadida taxminlar ustuvorligini aniqlash.


4. Portfel tarkibida tub o'zgarishlarga sabab bo'luvchi omillarni doimiy tarzda tahlil qilish va o'rganish.

5. Portfel faoliyatini baholash, ya'ni kredit riskiga nisbatan portfeldan olinadigan daromadlarga baho berish.

Tijorat banklari xar bir anik kelishuvlarida foiz me'yорини hisoblaganda kuyidagilar e'tiborga olinadi:

- ta'minlangan ssudalar buyicha eng kreditga layokatli mijozlar uchun anik muddatga beriladigan bazaviy foiz stavkasining darajasini;

- xar bir aloxida kelishuvning shartlarini inobatga olgan xolda tavakkalchilik uchun kushimcha tulov.



## **6-rasm Xo'jalik yurituvchi korxonaning moliyaviy risklarini tahlil qilish usullari.**

6-rasmda sifat va miqdoriy tahlilning asosiy usullari keltirilgan. Sifat tahlilini turli usullar bilan o'tkazish mumkin, ularning asosiylari analoglardan

foydanish va ekspert baholashdir. Moliyaviy risklarni miqdoriy tahlili matematik va statistik usullar yordamida amalga oshiriladi.

Umuman olganda ushbu muammoni bayon qilish paytida mavjud bo'lgan dastlabki ma'lumotlarning xususiyatiga va noaniqlikni tavsiflash uchun tanlangan usulga qarab, riskning oqibatlarini baholash uchun bugungi kunda quyidagi matematik modellar eng keng tarqagan: deterministik; stoxastik; lingvistik va stoxastik bo'limgan (o'yin).

1. Deterministik modellar sabablar va risk omillarining tabiatini aniqlanganda va har bir harakatga nisbatan ma'lum bir natijaga olib kelishi ma'lum bo'lsagina qo'llaniladi. Bunday holda moliyaviy riskni tavsiflashning matematik vositalari tahlil va dasturlashning klassik matematik usullari, matematik mantiq va boshqalardir.

2. Stoxastik modellar sabablar va risk omillarining tasodifiyligini taxmin qiladi, shuning uchun risk ma'lum to'plamdag'i ehtimollikning taqsimoti bilan tavsiflanadi. Stoxastik modellardan oqilona foydanish uchun zaruriy shart - bu aniqlanmagan o'zgaruvchi to'g'risida statistik ahamiyatga ega bo'lgan avvalgi ma'lumotlarning mavjudligidir.

3. Lingvistik modellarda noaniqlik asoan og'zaki berilgan tegishlilik funktsiyasi bilan tavsiflanadi. Tegishlilik funktsiyasini tuzish uchun potentsial hodisaning predmetga tayyorlik darajasi bo'yicha ekspert xulosalaridan qo'llaniladi. Bunday holda, loyihada mantiqiy apparatlar qo'llaniladi va voqealarning takrorlanishiga ishonch talab qilinmaydi.

4. Stoxastik bo'limgan (o'yin) modelini tuzishda, risk hodisasi oqibatlarining faqat potentsial amalga oshirishga qodir individual qiymatlari to'plami ko'rsatiladi. Uni kengroq yoritish maqsadida matematik va statistik o'yinlar, yordam nazariyasi va boshqalar ishlataladi.

Markaziy bank emissiya markazi sifatida makroiqtisodiy darajadagi pul aylanishi hamda bank tizimining likvidliligi nuqtai nazaridan tijorat banklarining ular tomonidan jalg qilingan mablag'lardan foydanish imkoniyatlarini doimiy ravishda tartibga solib turadi.

### **2.3 Bank risklarini aniqlashga yondashuvlarni shakllantirish.**

Riskning oqibatlarini baholash modeli umumlashtirilgan shaklda quyidagicha ko'rsatilishi mumkin:

$$F = f(P, I) \quad (1)$$

bu yerda: F - risk xodisasi oqibatlarini baholash;

P - riskli hodisaning ehtimoli;

I - riskli hodisaning mumkin bo'lgan oqibatlari.

Umuman olganda, risklarni baholash modelini yaratish sabablar va risk omillarining o'zgaruvchanligi sababli ularning natijalarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Shuning uchun risklarni baholash modellarini ishlab chiqish va asoslash, sabablar va risk omillari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarning mohiyatini, o'rganish maqsadini chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

Moliyaviy vaziyatni modellashtirish matematik modellarga asoslanadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda moliyaviy riskni baholash maqsadida moliyaviy sohada modellashtirishning yo'nalishlaridan biri bu riskli vaziyatlarni modellashtirishdir.

Matematika nuqtai nazaridan,  $S(t)$  qimmatli qog'oz bahosi odatda u yoki bu tasodifiy jarayon orqali modellashtiriladi. Ushbu jarayonni tasvirlash uchun dastlabki tasodifiy moddellashtirish jarayoni 1900 yilda L. Bashele tomonidan "Theorie de la spetsulation" nomli dissertatsiyasida keyinchalik esa N. N. Viner tomonidan taklif qilingan edi.

L. Bashele va P. Samuelsonning modellari fond bozorlaridagi narxlarning o'zgarishini tavsiflasa ham, ular risklarni boshqarish modeli emas, aksincha ularning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Riskli vaziyatlarda moliyaviy faoliyatni modellashtirishni rivojlantirishning navbatdagi bosqichi 1950 yillarda tug'ilgan portfel investitsiyalari nazariyasi edi. U xavfli investitsiyalar uchun daromadlarni aniqlashda oqilona yondashuvni taklif qildi, investorlarning "barcha tuxumlarini bitta savatga solmaslik"ga instinktiv urinishlari uchun ilmiy asos yaratdi. Ushbu nazariyani tashkil etadigan g'oyalarning aksariyati G. Markovitsga tegishli. U portfel tuzulmasining asosiy tamoyillarini bayon qildi.

Markovits portfelining nazariyasi ilk bor 1952 yili «Moliya jurnali»da "Portfolio Seletstion" mavzusida chop etgan. Unda, u birinchi muayyan sharoitlarda ostida ***optimal portfeli va portfeli qurilish texnikasini matematik modelini taklif qildi***. Markovits asosiy e'tiborni rasmiy matematik tilda optimal portfeli tanlash vazifasini o'tkazish uchun daromad va risk tushunchalarini taklif qilgan edi.

G. Markovits nazariyasi moliyaviy risklardagi haqiqatni soddallashtiradigan bir qancha taxminlarga asoslanadi:

1) investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilishda investor faqat ikkita mezon - investitsiyalarning daromadliligi va tavakkalchilik darajasi asosida faoliyat yuritadi. Daromadli qimmatli qog'ozlar daromadliligi taxminlar asosida qabul qilinadi;

2) investor o'zini oqilona tutadi: daromadliligi bir xil bo'lган ikkita investitsiya ob'ekti ichida u risk darajasi past bo'lган ob'ektni tanlaydi. Risksizlik va risk qaytishi standart og'ishi taxmin sifatida qaraladi.

3) sarmoyadorlar daromadni maksimal darajada oshirishga intilishadi. Risk va daromadni hisoblashda ishlatiladigan tarixiy ma'lumotlar, to'liq hosilaviy qimmatli qog'ozlarning kelajagini taxmin qiladi;

4) sarmoyadorlar kutilmalarining bir xilligi bilan ajralib turadi, ya'ni. ularning kelajakdagi daromadlari va risk o'lchovlari haqidagi taxminlari bir xil. Chiziqli korrelatsiya koefitsienti bilan qimmatli qog'ozlar o'rtasidagi munosabatlar ko'lami taxmin qilinadi.

Markovits portfeli hosilaviy qimmatli qog'ozlar modeliga ko'ra - bir og'irli va o'rtacha daromadli qimmatli qog'ozlar, uning tarkibiy qismlaridir, u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$R_p = \sum_{i=1}^N w_i \cdot r_i,$$

(2)

Bu yerda:

$N$  - portfelidagi qimmatli qog'ozlar soni;

$w_i$  - portfelidagi qimmatli qog'ozlar, salmog'i;

$r_i$  - qog'oz rentabelligi.

Portfelining o'rtacha standart og'ishi qimmatli qog'ozlar portfel riski bilan belgilanadi:

$$\sigma_p = \sqrt{\sum_{a=1}^N \sum_{b=1}^N (w_a \cdot \sigma_a \cdot w_b \cdot \sigma_b \cdot \rho_{ab})}$$

(3)

Bu yerda:

$w_a, w_b$  - portfelidagi qimmatli qog'ozlarning ulishi;

$\sigma_a, \sigma_b$  - Bu qimmatli qog'ozlar (standart og'ish) xavfi;

$\rho_{ab}$  - Chiziqli korrelyatsiya koeffitsienti.

Markovits modeli asosiy kamchiligi - qimmatli qog'ozlar kutilgan daromadi oldingi davrlardagi o'rtacha hosildorligiga teng bo'lishi kerak. Shuning uchun, fond bozori rivojlangan davlatlarda Markovits modelidan samarali foydalanishadi, u fond bozorida hayot qisqa yoki uzoq davri bo'lgan, har xil turdag'i qimmatli qog'ozlari portfelini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.


1973 yilda e'lon qilingan Blek-Shoulz formulasi optionlarning narxlarini sub'ektiv-intuitiv aniqlashlardan qochish va mazkur nazariyaga asosan boshqa hisilaviy instrumentlarni ham narxini hisoblash imkonini berdi. 70 yillarda boshlarida hisilaviy instrumentlarni hisoblashda matematikaning qo'llanilishi revolyutsion hisoblanardi.

Matematikaning qo'llanilishi riskni aniq miqdorda hisoblanishi imkonini bermasa ham investor uchun o'ziga qabul qiladigan riskning darajasi hamda kutiladigan mukofot qiymati to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Bu formula evropa variantlari (optionlari)ni moliyaviy narxini nazariy hisoblash uchun savdogarlar va investorlar tomonidan jahon moliya bozorlarida ishlatiladi.

Ushbu formula kuzatilgan bozor narxlariga juda yaqin narxlarni chiqarib beradi. Blek-Shoulz formula murakkab matematika talab qilmaydi. Yaxshiyamki, uni ishlatish uchun savdogarlar va investorlarga matematikani puxta bilish kerak emas.

Ular moliyaviy hisobni zaruriy tushunchalarinigina bilib olishlari kerak holos. Buning uchun zarur omillari:



### 7-rasm. Opcion narxlarni hisoblash bosqichlari.

Yuqorida keltirilgan 7-rasmdagi modelning afzalligi shundaki, Blek-Shoulz modeli optionni hisoblash davomida dividendlarni o'z ichiga olmaydi; model bir necha qiymatli optionlarni tez va yaqin ehtimollikda hisoblab beradi va nihoyat ushbu model berilgan vaqt davomida kelajakda kutiladigan narx harakatini oldindan aniqlaydi.

**Blek-Shoulz modelida optionlar narxlarning shakllanishi va hisoblash formulasida option quyidagi funktsiyalarning ketma-ketligi sifatida qaraladi:**

**Bazaviy aktivning qiymati va strayk narxi (amalga oshirish qiymati).** Option qiymatiga ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib aktivning optioni hamda strayk qiymati o'rtasidagi nisbat hisoblanadi. Bu nisbat optionning darajasini ("pulda" yoki "pulsiz") hamda optionning ichki qiymati (bazaviy aktivning koll va put optionlarning strayk qiymatidan katta yoki kichikligini) aniqlaydi. Optionning amalga oshishiga qolgan muddat. Vaqt optionlarni sotib oluvchiga qarshi ishlaydi ya'ni pulsiz optionlarning narxi uning amalga oshish vaqtini yaqinlashgan sari tushaveradi. Bu effekt «vaqt tomonidan buzilishi» deb ataladi (time detsay). Optionning amalga oshishiga uzoq muddatning borligi katta miqdordagi noaniqlikdan dalolat beradi.

**Tebranishlar darajasi.** Bu ko'rsatkich bazaviy aktivning narxlarning tebranishlariga ta'sirchanligini ko'rsatadi. Puldagi optionlarning mukofoti bazaviy aktivning narxdagi noaniqliklariga to'g'ri proportsional hisoblanadi.

**Dividendlar.** Dividendlarining oshirilishi koll optionning narxini tushishi va put optionning narxining ko'rarialishiga olib keladi, sababi dividentlar to'lovi option asosida turgan aktsiyalarning narxini divident miqdirida kamaytiradi. Dividendlar aktsiyalarni sotib olish va saqlashni naqd mablag'larni koll options bilan sotib olish va saqlab turishdan ko'ra jozibadorligini oshiradi. Aksincha qisqa muddatda sotuvchilar dividentlar to'lovini nazarda lozim shu sababali aktsiyalarni qisqa muddatda sotishdan ko'ra put optionlarni sotib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foiz stavkalar darajasi.** O'suvchi foiz stavkalari bazaviy aktsiyalarning forward narxini oshiradi ya'ni option davrida aktsiya narxi va risksiz aktivlar stavkasi yig'indisi. Modelda forward narxi deganda optionning muddati tugaganda aktsiyaning narxi tushuniladi.

Blek va Shoulz tomonidan kiritilgan o'zgartishlar risksiz aktivlar protsent stavkasi aniq diskont ko'paytuvchisi bo'lishi va ular investorlarning yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan ehtimollarini o'ziga oladigan risk tushunchasiga o'zgartirishga xizmat qildi.

Formulada to'rtta o'zgaruvchi ishtirok etadi: (1) optionning amal qilish muddati, (2) narx, (3) foiz stavkalar darajasi, (4) option uchun to'lanadigan mukofot yoki bozor tebranishlari darajasi.

$$C = S N(d_1) - K e^{(-rt)} N(d_2) \quad (4)$$

C – koll option uchun nazariy mukofot darajasi;

S – bazaviy aktsiyalarning joriy narxi;

t - vaqt, optionning amalga oshirish muddatining yildagi ifodasi (qolgan kunlar soni/365 kun);

K – optionni amalga oshirish narxi (strayk narx);

r – risksiz aktivlar bo'yicha foiz stavkasi;

N(x) – standart kummulyativ taqsimot;

e - eksponent (2,7183).

$$d_1 = \frac{\ln(S/K) + (r + s^2/2)t}{s\sqrt{t}}$$

$$d_2 = d_1 - s\sqrt{t} \quad (5)$$

s – bazaviy aktsiyalarning narxining yillik standart chetlanishi (tarixiy volatillik). Narxning standart chetlanishini qolgan kunlar sonini 260 (yil davomida savdo amalga oshiriladigan kunlar soni) dan ayirgan holad ko'paytmasini kvadrat ildizi orqali hisoblanadi ln - natural logarifm.

Modelning mohiyatini tushunish uchun uni ikki qismga bo'lamiz. Birinchi qism, SN(d1), eng bazaviy aktsiyalardan kutidigan daromadni ifodalaydi. Uni hisoblash bazaviy aktsiyalari qiymatini [S] koll optionlar mukofotini bazaviy aktivlar kursini [N(d1)] o'zgarishiga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Blek-Shoulz modelida nazarda utilishi lozim bo'lgan omillar.

1) Option tugashiga qadar bazaviy aktsiyalarga dividentlar to'lanmaydi. Ko'pgina kompaniyalar o'zlarining aktsionerlariga dividentlar to'lashadi, shu sabali ushbu modelda mazkur omil yuqori darajadagi dividentlar koll optionlar bo'yicha mukofot qiymatini tushirish yuborishini inobatga olganda juda muhim hisoblanadi. Bu holatda modelga tuzatishlar kiritish uchun oddiy yo'l bu bazaviy aktsiyaning kelgusi qiymatidan diskontlashgan qiymatni ayirish hisoblanadi.

2) Yevropa optionlarida vaqtinchalik muddatlardan foydalilanadi. Yevropa optionlari faqatgina o'z muddatini oxirgi kunida amalga oshirilsa, amerika optionlari amal qilish muddatining hohlagan vaqtida amalga oshirilishi mumkin

va bu amerika optionlarining egiluvchanligini sababli boshqalarga qaraganda jozibaliroq qiladi.

3) Bozorlar samarali hisoblanishadi. Bu omil odamlar har doim ham bozorning yoki alohida olingan aktsiyaning yo'nalishini oldindan aytib bera olishmsligi bilan izohlanadi. Fond bozori xarakati to'xtovsiz xarakat qonuni asosida ishlaydi deb hisoblanadi bunday to'xtovsiz jarayonning mohiyatini tushunish uchun Markov jarayoni bilan tanishish lozim-» t holatdagi kuzatish oldingi holatlardagi kuzatishlar natijasiga bog'liq bo'ladi». Jarayon Markov jarayonidan o'zining vaqt bo'yicha to'xtovsiz xarakat qilishi bilangina farq qiladi.

4) Undiriladigan komision to'lovlarning yo'qligi. Odatda optionlarning savdosida bozor ishtirokchilaridan ma'lum komission to'lovlari olinadi. Hatto zaldagi treyderlar ham oz miqdorla bo'lsa ham to'lovlarni amalga oshirishadi. Investorlarga to'lanadigan mukofotlar sezilarli miqdorda katta bo'lganidan modelni qo'llashda yuzaga keladigan natijadan chetlanish holatlari ham kuzatiladi.

5) Foiz stavkalari darajasi o'zgarmas bo'lib qoladi va avvaldan aniq bo'ladi. Blek-Shoulz modelida o'zgarmas va aniq bo'lgan o'zgaruvchi sifatida risksiz aktivlarning foiz stavkasi olinadi. Amaliyatda bunday risksiz aktivlarning foiz stavkasi bo'yicha aniq raqam mavjud emas va odatda bunday maqsadlar uchun so'ndirilishiga 30 kun qolgan kaznacheylik biletlar foiz stavkalari olinadi. Foiz stavkalarining tezda o'zgarish davrida 30 kunlik stavkalar ham o'zgaradi.

6) Model aktsiya narxlarining lognormal taqsimlanshiga asoslanadi. Normal taqsimlanish modelning ajralmas qismi bo'lsa ham eksponentlar taqsimlanishni logronormal holatga kelttiradi. Normal taqsimlanishdan foydalanishning kamchiligi shundaki u aktsiya narxining salbiy ko'rsatkichlaridan foydalanish imkoniyatini beridi.

Ma'lumki, kelgusida korxonalar faoliyatida daromadlilik va risk darajasini oldindan 100% aniq bilib bo'lmaydi. Lekin, aniq ma'lumotlardan foydalanilgan holda kelgusidagi erishilishi mumkin bo'lgan natijalarni ma'lum bir ehtimollik doirasida baholash mumkin.

## **2.4 Bank risklarining sabab va oqibatlarini o'rGANISH va ularni guruhlash.**

Tijorat banklari faoliyatida yuqorida keltirilgan risk turlarining barchasi uchrab turadi, lekin ularning faoliyatiga ko'proq ta'sir qiladigan risklar kredit riski, likvidlilik riski va foiz stavkasi riski hisoblanadi. Tijorat banklar faoliyatining asosiy qismi kreditlar berish va shu asosda foyda olishga yunaltirilgan bo'lganligi uchun ular faoliyatida bu risklarning salmog'i ham yuqori bo'ladi.

Tasniflangan kreditlarning har qaysi guruhga kirishi darajasi tez sotiladigan aktivlar va yuqori likvid mablag'larning mavjudligi bilan belgilanadi.


O'zbekiston Respublikasida 2015 yil 14 iyulda 2696-sodan bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha yehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi NIZOM" iga muvofiq tijorat banklarining kredit qo'yilmalari tasniflanadi va ular bo'yicha maxsus zahiralar shakllantiriladi.

Kredit portfelining sifat darajasini tahlil qilish quyidagi bosqichlar bo'yicha ya'ni:

- 1 - bosqich ta'minlanganlik darajasi bo'yicha;
- 2 - bosqich kreditni haqiqiy to'lash holati bo'yicha;
- 3 - bosqich risk darajasi bo'yicha;
- 4 - bosqich kredit portfelining turkumlangan kreditlar tarkibi bo'yicha amalga oshirish mumkin.

## 1-chizma

### Tijorat bankingning kreditlash jarayoni



Bunda kreditlar yuqorida belgilariga qarab guruhlarga birlashtiriladi va bir guruh bo'yicha barcha kreditlar yig'ib chiqilib, har bir guruhnинг hajmi to'g'risida axborot yig'iladi, ular tahlil qilinadi va yakunida butun kredit portfeli bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'linadi.

5 - bosqichda kredit portfeli bo'yicha umumiyligi risk aniqlanadi. Bunda har bir kredit summasi bo'yicha risk darajasiga asoslaniladi.

Oldingi davr bilan hozirgi kundagi bankning kredit portfeli holati taqqosladi va salbiy natijaga ega bo'lingan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

6 - bosqich. Kredit portfeli sifatiga qarab yetarli rezerv fondini tashkil qilinadi.

7 - bosqich. Kredit portfelining holati, tarkibi, unga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olib bankning kelajakdagagi kredit siyosati ishlab chiqiladi. Bu siyosatga:

Kredit resurslarini tashkil qilish va ularning qaysi maqsadga yunaltirilganligi, qo'shimcha garantiyalar olish, kredit shartnoma-sining bajarilishi ustidan oldindan va keyingi nazorat qilish, kreditlash jarayonini takomillashtirish va boshqalar lozim bo'ladi.

Kredit portfelini boshqarish-mavjud kredit resurslaridan samarali foydalanish san'ati demak, ya'ni samarali boshqaruv natijasida kredit resurslari nafaqat o'zining qiymatini saqlab qoladi, balki sezilarli darajada daromad keltiradi (inflyatsiya darajasidan qatiy nazar).

Kredit portfelini boshqarishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat.

1. Kreditning maqsadi, ya'ni boshqarish strategiyasi determinantlarini aniq belgilab olish.

2. Turli kreditlarning daromadlilik darajasi to'g'risidagi taxminga ega bo'lish.

3. Tanlab olingan vositalarning oqilonqa nasbatini ta'minlash maqsadida taxminlar ustuvorligini aniqlash.

4. Portfel tarkibida tub o'zgarishlarga sabab bo'luvchi omillarni doimiy tarzda tahlil qilish va o'rganish.

5. Portfel faoliyatini baholash, ya'ni kredit riskiga nisbatan portfeldan olinadigan daromadlarga baho berish.

Tijorat banklarining foiz siyosati ikki assosiy yunalishni uz ichiga oladi. Birinchisi, bu bank resurslarini yaratishda mablaglarni jalg kilish jarayonida olib boriladigan foiz siyosati, ikkinchisi, banklar tomonidan resurslarni joylashtirish soxasida olib boriladigan foiz siyosatidir.

Kreditlar va depozitlar buyicha foiz tulash vaktida emas, balki foyda kurish davrida hisoblanib, moliyaviy hisobotlarda davriylikka mos aks yettirilib borilishi lozim. Depozit va kreditlar buyicha hisoblangan foizlarni ifodalash uchun xar bir depozit turi va kredit buyicha aloxida hisobvaraklar ochiladi.

Depozitlar va kreditlar buyicha foiz stavkalarini, ularning summasi, ularni tulash vakti davri, tulash shartlari va boshkalar mijoz bilan bank urtasida kelishib olinadi va tuziladigan shartnomada aks yettiriladi. Kreditlar buyicha foiz stavkalar kreditning muddati, karz oluvchi tomonidan tavsiya kilingan garov xolati va kiymati, uning likvidligiga, kredit resurslari baxosiga, kredit tavakkalchiligining darajasiga kura tijorat banki tomonidan mustaqil belgilanadi va u kredit shartnomasida aks yettiriladi. Kredit buyicha foizlar muddati kelganda, memorial order bilan rasmiylashtirilib, mijozning asosiy talab kilib olinguncha bulgan depozit varagidan grafik buyicha undirib olinadi.

Foizlarni hisoblash kuyidagi formula buyicha amalga oshiriladi:

summa\*foiz stavkasi\*amaldagi kunlar soni

365

Banklar orasidagi resurslarni jalg qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo'lib turlicha foiz siyosati hisoblanadi, chunki qo'yilgan mablag'larga daromad olish mijozlarning qo'yilma qo'yishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Depozit foiz stavkalari darajasini har bir tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisob stavkasi, pul bozori holati va o'zining depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit schetlarining alohida ko'rinishlari bo'yicha daromad hajmi qo'yilma muddati, summasi, hisobvarag'in amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri va, nihoyat, mijozning qo'yilma shartnomasi shartlariga amal qilishiga bog'liq.

Likvid mablag'larga bo'lgan ehtiyojni belgilashda birinchi navbatda naqd pullarni boshqara olish kerak, ya'ni ularning shunday darajasini o'rnatish kerakki naqd pulning hajmi kun davomida mijozlarning majburiyatlarini bajarishga yetishi kerak. Ikkinchchi tomonidan naqd pullarning daromad keltirmasligini hisobga olib ularning eng minimal qiymatini kassada saqlash o'rini bo'ladi-bu esa juda mushkul jarayondir, bundan tashqari, kassadagi naqd pul mablag'larining hajmi har kuni hisobkitob qilinib hisobot tayyorlanadi.

Tijorat banklari tomonidan qachonki bank depozitlarini eng barqaror daromad manbasi ekanligi amaliyotda xalqqa ko'rsatila olinar ekan, shunda banklarning depozit bazasining barqarorligini ta'minlash muammosi barham topishiga erishishimiz mumkin bo'ladi.

Likvidlikni samarali boshqarish quyidagi omillar bilan ta'minlanadi:

- bank va uning atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, aniq ifodalangan va hujjatlashtirilgan likvidlikni boshqarish siyosatining mavjudligi;

- bankning turli bo'linmalarining muvofiqlashtirilganligi;

- bank likvidlik holatining monitoringi vazifalari yuklangan bo'linmaning mavjudligi;

- ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda bankning aktiv va passiv holatlarini tahlil qilish uchun axborot tizimining mavjudligi.

Likvidlikni boshqarish siyosati likvidlikni boshqarish bo'yicha asosiy holatlarni qamrab olishi hamda bankning turli xil moliyaviy vositalarni qo'llashga nisbatan munosabatini, masalan, turli moliyaviy vositalardan foydalanishini aniq ifoda etishi lozim.

Bazel II talablariga ko'ra, birinchidan, bank likvidlilik bo'limi boshqaruvi balansdan tashqari majburiyatlarga balansdagi majburiyatlar kabi katta e'tibor berishi lozim, ya'ni majburiyatlar kompleks ravishda o'rganish lozim;

Ikkinchidan, likvidlikni boshqarish strategiyasi aniq va tushunarli holda bo'lishi va bank kengashi tomonidan tasdiqlanishi, nazorat qilinishi, monitoring o'tkazishni kuchaytirishi lozim;

Uchinchidan, likvidlik strategiyasida vujudga keladigan riskning darjasini haqida boshqaruv a'zolarining voqif bo'lishi zarur;

To'rtinchidan, boshqa operatsiya risklarining (kredit, bozor va operativ risklar) likvidlik darajasiga ta'sir etishi va doimiy muqobil variantlarning tayyor bo'lishi;

Beshinchidan, har bir xorijiy valyuta turi bo'yicha tahlil olib borish, chegirmalar belgilash va ularni o'zgartirib turish.

Tijorat banklari faoliyatini Markaziy bank tomonidan nazorat qilishda ham muddati o'tgan va muddati o'tmagan brutto kreditlar bo'yicha joriy nazoratni amalga oshirish zarur. Xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan me'yoriy ko'rsatkich bo'lib, muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i 5 foizdan oshib ketmasligi lozim. Tijorat banklari faoliyati bank nazorati natijalari bo'yicha baholanganda ana shu ko'rsatkichga amal qilish hisobga olinishi zarur. Bu esa tijorat banklarini muddati o'tgan kreditlar hajmini me'yoriy darajada saqlab turishga undaydi.

Likvid mablag'lar bo'yicha choralarni ta'minlash quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Likvidlik davrida oldindan belgilangan reja bo'yicha kredit va depozit mablag'larining hajmi bashorat qilinishi kerak;
2. Shu davr uchun oldindan belgilangan reja bo'yicha kredit va depozit mablag'lari kutiladigan dinamikasi hisoblanishi kerak;
3. Likvidlikni boshqarish bo'yicha boshqaruvchi rejadagi davr uchun netto-likvid pozitsiyasining qiymatini aniqlashi zarur.

Tijorat banklarining resurslarini optimal darajada ushlab turishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish uchun tijorat banklari o'zlarining likvidlilik va to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlariga rioya qilgan holda, ushbu normativ ko'rsatkichlarni ta'minlab turishi uchun xizmat qiladigan mablag'lardan ham unumli foydalanishni talab etadi.

Shuning uchun ham, tijorat banki uchun likvidlilikning umumiylasosi bo'lib, faoliyatining foydalilagini ta'minlash hisoblanadi. Shunday qilib, agar asosiy normativ ko'effitsientning haqiqiy qiymati o'rnatilgan minimal normadan yuqori bo'lsa, foya olish uchun ishlatilmagan imkoniyat nuqtai nazaridan bank faoliyati salbiy baholanadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, balans likvidliligining tahlil daromadlilik bilan amalga oshishi kerak. Tijorat banklar tajribasi, banklar likvidliligining minimal normasida ishlashi maksimal daromad olishi mumkinligi nazariyasini yana bir bor isbotladi.

### **Bahs munozaralar uchun savollar**

- 1.Kredit risk va uning iqtisodiy mohiyati deganda nimani tushunasiz ?
- 2.Operatsion risk, uning mohiyati, yuzaga kelish sabablarini keltiring va operatsion riskga qaysi omillar ta'sir etadi?
- 3.Likvidlilik riskini boshqarish qanday usullari mavjud?
- 4.Likvidlilik riski kaysi sabablardan yuzaga keladi va uni qaysi usullar orqali boshqarish mumkin?
5. Foiz riski va unga ta'sir qiluvchi omillardan qaysi birining ta'siri kuchli hisoblanadi?

### **3-mavzu. Banklarda risklarni boshqarish jarayoni bosqichlari va modellari.**

**Reja:**

- 3.1 Jahon amaliyotida kredit riskini boshqarish tajribasi.**
- 3.2 Risk qiymati VAR (value at risk).**
- 3.3 Tijorat banklari passivlari va aktivlari bilan bog'liq risklarni boshqarish. GEP - tahlil orqali foiz riskini boshqarish.**
- 3.4 Operatsion risk bo'yicha BAZYEL qo'mitasining tavsiyalari va talablari.**
- 3.5 Tijorat banklarining fond bozoridagi operatsiyalari riski va portfel riskini baholash va boshqarish.**

**Kalit so'zlar:** foiz risk, operatsion risk, GEP, SPRYED riski, kapital riski, likvidlilik riski, aktiv va passiv operatsiyalar riskni aniqlash, riskni baholash, riskni boshqarish, metod, usul, VAR (value at risk).

#### **3.1 Jahon amaliyotida kredit riskini boshqarish tajribasi.**

Oldingi savollarda ko'rib o'tilganlarga xulosa qilgan holda aytish mumkinki, bugungi kunda iqtisodchi olimlar tomonidan korxonalarda risklarni baholash bo'yicha ko'plab metodlar ishlab chiqilgan va ilmiy asoslab berilgan. Izlanishlar natijasida risk menejment tushunchasi va sohasi muomalaga kirib keldi. Biroq shuni ta'kidlashimiz lozimki, O'zbekistonda risk-menejmenti standarti mavjud emas, uni milliy iqtisodiyotga tatbiq etishdan oldin, xalqaro andozalarni ko'rib chiqish ma'qul hisoblanadi, zero "Tayyoriga qarab to'n bichish" ham oson, ham qulay va eng asosiysi, vaqt ni va pulni tejaydi.

Bu sohani paydo bo'lishi 1973-yildagi 3 ta muhim voqeyleklar bilan bog'liq:

- Qat'iy belgilangan valyuta kurslar siyosatining tugashi (Bretton-Vuds tizimining qulashi);
- Chikago opsiyonlar birjasi ish faoliyatini boshlanishi (Chitsago Board Options Exchange);
- Amerika iqtisodchilari Blek, Shoulz va Mertonlarning opsiyonlar qiymatini hisoblash modeli (europacha) nashr etilishi.

Moliyaviy-risk menejmenti rivojlanishi, asosiy moliyaviy risklarni baholashning yangi metod va yondoshuvlari shakllangan 3 bosqichdan o'tdi, ular:

Birinchi sifat bosqichi, moliyaviy risklarni baholash, nazorat va boshqaruvi metodologiyasi sohasidagi, 1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshidagi risk me'yori qiymati modeli VAR (Value-at-risk, "riskdagi qiymat") paydo bo'lishi bilan bog'liq. VAR moliyaviy instrument bilan egalik qilgandagi yo'qotishning mutloq maksimal hajmini ko'rsatadi. VAR ko'rsatkichi birinchi navbatda, yirik moliyaviy institutlar tomonidan ma'qullangandan keyin, moliya bozori boshqaruvchilari tomonidan e'tirof etilgan. Bunda ehtimol so'ngisi bo'lib, 1994 yilda J.P. Morgan banki tomonidan RiskMetritss tizimida risklarni boshqarish metodologiyasini ochilishi bo'ldi. Shunday qilib, moliyaviy risk-menejment sohasidagi birinchi sifatiy yuksalish bozor riskini baholash, nazorat va boshqarish bilan bog'liq bo'ldi.

Moliyaviy risk-menejmentni rivojlanishining ikkinchi bosqichi 1990-yillarning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelib, kredit riskini baholash va nazorati bilan bog'liq. Bu yerda ham J.P. Morgan banki o'zining bozor riskini baholash va nazorat metodi bilan ssuda portfelining kredit riskini baholashi metodini umumlashtirib namoyon qilishi va 1997-yilda bank tomonidan ishlab chiqilgan CreditMetritss tizimi risk qiluvchilarda bozor va kredit riski oqibatlarini ehtimoliy yoqotishlari ko'rsatkichini integral hisoblab chiqish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu birinchi martda moliyaviy risklarda qo'llash mumkin bo'lgan, integratsiyalashgan risk-menejmenti haqida gapirishga imkon berdi.

Uchinchi bosqich 1990-yillar oxirida boshlandi va yildan-yilga jarayon rivojlanib bordi. Bu bosqich oldingi bosqichlarga nisbatan, klassik moliyaviy risklarga emas, bevosita operatsion risklarga aloqadorligi bilan ajralib turadi. Hozirgi vaqtda moliya bozori qatnashuvchilari operatsion risk baholashga umumiyligida "operatsion VAR" kabi, miqdoriy yondoshuv ishlab chiqishga harakat qilmoqdalar. Bu operatsion risklarni miqdoriy nazorati, moliyaviy risklarni nazorati bilan birgalikda qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilariga qabul qilinayotgan risklarni to'liq baholashga erishish imkoniyatini beradi deb hisoblamoqdalar.

Ushbu metodlarni quyidagi ikkita guruhga ajratishimiz mumkin<sup>43</sup>(2005)

1) Risklarni baholashning statistik metodlari: daromadlilikning standart chetlanishi ( $\sigma$ ); Value at Risk metodi; CVAR metodi.

2) Risklarni baholashning ekspert metodlari: reyting metodlari; ballik metodlar; Delfi metodi.

Oxirgi yillardagi moliyaviy risklarni baholashni 4 ta asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin, bular:

Sezgirlik tahlili – tashqi omillarning o'zgarishiga sezgirlik tadqiqotini senariy metodi

Tebranuvchanlik (volatilnost) tahlili - umumiyligida ko'rsatkichga nisbatan kutilgan qiymatning o'zgarish o'lchovini o'rganish;

Negativ risk tahlili (downside risk). VAR metodi boshqa risk tahlili metodlariga qo'shimcha tarzda qo'llaniladi. Bundan tashqari, LVAR va SaR metodlari ham mashhur.

Nisbiy tahlil - benchmark bilan taqqoslash orqali riskni ko'rib chiqadi (tanlangan indeksda).

### **3.2 Risk qiymati VAR (value at risk).**

Har bir metod asosida aniqlangan moliyaviy risk darajasi turli xil chiqsada, ammo miqdoran bir-biriga yaqin chiqadi. Daromadlilikning standart chetlanishi metodi amaliètda risklarni baholashning ko'p uchraydigan metodlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ammo ushbu metod risklarni baholashning Value at Risk metodi tarkibida ham qo'llaniladi. Demak Value at Risk metodi kengroq va nisbatan risklarni baholashda aniqlilik darajasi yuqori bo'ladi. Shu sababli quyida Value at

---

<sup>43</sup> Blank I.A. Upravlenie finansovymi riskami. M.: Nika-Sentr, 2005. S. 259-261.

Risk metodining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Value at Risk metodi ayrim holatlarda Monte Karlo metodi deb ham yuritiladi.

Risklarni baholash usulining hozirgi kundagi eng zamonaviy usullaridan biri VAR (Value at Risk) orqali amalga oshiriladi. VAR – bu statistik jihatdan yondashuv bo'lib, bu orqali risklarni baholash jarayonida ehtimolliklar taqsimoti asosiy tushuncha hisoblanadi. Bu ehtimolliklar bozordagi har qanday iqtisodiy omillarning qiymatlari bilan bog'liq holda baholanadi. Bu usul orqali moliyaviy risklarni baholash murakkab matematik formulalar orqali amalga oshiriladi.

VAR –juda oson va intiyutiv kontseptsiya bo'lishiga qaramasdan, uning hisoblanishi juda qiyin statistik muammodir. VAR ni hisoblash usullari odatda parametrik va nparametrik modellarga bo'linadi. Parametrik modellar risk omili taqsimlanishining statistik ko'rsatkichlari asosida bo'ladi, nparametrik model esa simulyatsiya yoki tarixiy modellardir.

Odatda VAR ning hisoblashda qo'llaniladigan metodlar 3 ta kategoriya bo'linadi:

- Tafovut – qoplash metodlari.
- Tasvirlash metodlari.
- Eng ko'p qiymat nazariyasi metodlari.

**Tafovut-qoplash yondashuvi** parametrik yondashuv hisoblanadi. Bu faraz bozor parametrlerida o'zgarishlar va portfel qiymati me'yoriy taqsimlanishiga asoslanadi.

**Tarixiy simuliatsiya.** Endi nparametrik metodlarga to'xtalsak, tarixiy simuliatsiya – amalga oshirish uchun eng qulay yondashuvdir. Bu mantiqan juda oddiy, joriy portfel VAR ni hisoblash uchun tarixiy bozor ma'lumotlaridan foydalilanadi. Tarixiy simuliatsiyaning birinchi qadami bu portfeldagi instrumentlarni aniq davrda ushbu instrumentlar uchun vaqt seriyalarini qulga kiritishdir. Keyin joriy portfelda taxminiy daromadliklarni keltirib chiqarish uchun vaznlardan foydalilanadi. Ushbu taxminiy daromadliklar joriy portfel kuzatilayotgan davrda o'zgartirilmaydi degan farazdan kelib chiqadi. VAR hisob – kitoblari portfel daromadliligi gistogrammasidan ham ko'rinishi mumkin.

Monte-Karlo usuli – bu loyiha sezgirligini tahlil qilish usuli va stsenariylar usulining uyg'unlashtiruvchi usul bo'lib, uni asosi bo'lib ehtimollar nazariyasi xizmat qiladi. Agar stsenariylar tahlilida mutahassis uch xil variantdagi stsenariy tuzsa, Monte-Karlo usulida bu variantlar soni 500 ta va minglab stsenariylarni tashkil etadi. Ba'zi bir (yoki bir nechta) loyiha parametrlerini o'zgartirib tahlilchi ularni uchta variantdan ko'rib chiqadi va har bir variantga loyiha natijasini hisoblab chiqadi. Ushbu natijalar yig'indisi asosida qaror qabul qilinadi.

Monte-Karlo usulining asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Usul modelini tayyorlash, ya'ni tahlil uchun asos qilib olingan ko'rsatkichlarni (NPV, IRR, sof foya, naqd pul oqimi yoki boshq.) matematik ko'rinishini kompyuterga kiritish lozim;
2. Ehtimollarni taqsimlash bosqichi, ya'ni parametrlerini o'zgarish chegaralarini va ehtimollik qonuniyatlarini aniqlash;
3. Korreletsiya shartlarini belgilash – o'zgaruvchan miqdorlarni o'zaro bog'lanishini ko'rsatib berish;

4. Immitatsiya natijalarini yig'ish;
5. Natijalarini statistik tahlil qilish.

Har bir loyiha stsenariysi ma'lum ehtimol miqdorini anglatadi.

Bu usulning afzalliklari deb quyidagilar hisoblanadi:


- bozorni turli ko'rinishlari va o'zgarishlarini modellashtirish imkoniyati;
- modellarni kengaytirish imkoniyati va vaqt bilan chegaralanmaganligi (faqat loyiha xayoti davrida emas);
- tashqi omillarni barchasini hisobga olish imkonini beradi.

Usulni kamchiliklari:

- hisob-kitoblar serquvvat kompyuter programmalarini talab qiladi;
- tahlilchi ma'lum matematik va statistik bilim va tushunchalarga ega bo'lishi lozim;
- xatolar ehtimoli mavjudligi.

Ko'p xollarda tahlil natijalari bo'yicha diagramma yoki gistogramma tuziladi. Ularda tahlil natijasi yaqqol namoyon ko'rsatib beradi.

Biroq so'ngi yillarda risklarni boshqarishdagi yangi yondoshuvlar paydo bo'ldi. Endi xar bir korxona, kompaniya, holdinglar va iqtisodiyotning butun tarmoqlari risklarini boshqarishda aniq operatsiya va faoliyat sohalari bo'yicha tor doirada qisqli yondashuvidan kompleks boshqaruvgaga o'tishni ko'zda tutadi.



#### **8-rasm. Tijorat banklarida risklarni boshqarishning rivojlanishi<sup>44</sup>.**

XX asr 90-yillarining boshida jahon tajribasida risk-menedejment sohasida standartlarini shakllanishi kuzatildi.

Standartlarning yoyilishi davllatlarda, xalqaro darajada va hattoki, tarmoq darajasida (bank, sug'urta tashkilotlari) amalga oshirildi. Buning isboti bo'lib, risklarni boshqarishning anglosakson huquqli davlatlar (Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, JAR, Kanada) milliy standardlari, shuningdek, Homiylik tashkilotlari Treadway komissiya Komiteti (COSO, AQSH) ishlab chiqqan standart, risk-menejerlar yevropa assosiyasiya federatsiyasi standarti (FERMA) va risklarni boshqarish standarti ISO 31000:2011 hisoblanadi.

Tarmoq risklarini boshqarish standartlari orasida sug'urta tashkilotlari (Solventsy, Solventsy II) va bank (Basel, Basel II, Basel III) faoliyati bilan bog'liq bo'lgan standartlar mashhurdir.

Jahon tajribasida "COSO kubi" nomini olgan bu standart tashkilotlar maqsadlari (strategik, operatsion, hisobotga tayyorgarlik va qonunlarga rioya qilish), kompaniyaning tashkiliy tuzilmasi va risk boshqaruv jarayoni tarkibiy qismlari o'rtasida bog'liqlikni ifodalaydi.

<sup>44</sup> Ivanov A.A., Oleynikov S.Ya., Bocharov S.A. Risk-menedejment. Uchebno-metodicheskiy kompleks. – M.: Izd. sentr YeAOI, 2008. – 193 s.

Risk-menejerlar Yevropa assotsiyatsiya federatsiyasi standarti (FERMA) risk-menejment instituti (IRM), Risk-menejment va sug'urta assotsiyatsiyasi (AIRMIC) va risk-menejment bo'yicha milliy forum (ALARM) tomonidan qo'shma holda ishlab chiqilgan.

"Soso kubi" mualliflari fikriga ko'ra, bunday fundament ega bo'lish, ishlashni osonlashtiradi va hamjihatlikni oshiradi, chunki ishtirokchilar orasida muloqot qilish uchun yagona "til" topiladi. Kompaniya boshliqlari o'z kompaniyalarida risklarni boshqarishni baholashda yagona asosga tayanishadi, buni rivojlantirgan holda o'z maqsadlariga erishishni ta'minlashadi.

FERMA standarti bo'yicha risklar 4 guruhga bo'linadi: strategik, operatsion, moliyaviy va xatar riski.

Yana bir mukammal hisoblanadigan milliy standartlardan biri sifatida, Avstraliya va Yangi Zelandiyaning risk-menejmenti bo'yicha standartidir. AS/NZS 4360 standarti umumiy xarakterga ega bo'lib, u asosan transmiliy kompaniyalarda riskni boshqarishni ko'zda tutadi.

2002 yilda risklarni boshqarishni bixillashtirish, hamda turli darajalarda standartlarni ishlab chiqish maqsadida ISO/IEC Guide 73 «Risk Management Votsabulary Guidelines for use in standards» kuchga kirdi.

Keyingi standartlarni rivojiga qadam bu risklarni boshqarish sohasida umumiy ISO standarti bo'ldi, bu ISO 31000 "Risk-menejment – tamoyillari va qo'llash bo'yicha qo'llanma" (Risk Management — Principles and guidelines on implementation) standarti 2009 yilda 26 davlatning standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlari tomonidan yaratildi. Bu bilan birgalikda ISO/MEK 73:2002 standart qo'llanmasi yangilanib, ISO/MEK 31010 "Risk-menejment – riskni baholash bo'yicha qo'llanma" standarti (ISO/IES 31010 Risk -Management — Risk assessment guidelines) ishlab chiqildi.

Rossiyada esa "INTEK" ilmiy-texnik markaz tomonidan shu standartni to'laqonli tarjimasi bo'lgan GOST R ISO 31000:2010 standarti yaratilgan. Standart 2010 yil 21 dekabrda texnik boshqaruv va metrologiya federal agentligi tomonidan amalga kiritildi.

GOST R ISO 31000:2010 risk-menejmentning tamoyillari, infrastrukturasi va jarayonini tasvirlaydi. U ko'lami, faoliyati va sohasidan qat'iy nazar barcha tashkilotlar tomonidan qo'llanishi mumkin. Standartni qo'llashdan maqsad tashkilotlar oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishlari ehtimolini oshirish, yuz berishi mumkin bo'lgan ehtimollar va risklarni aniqlash, shuningdek, risk-menejment uchun resurslarni samarali taqsimlash va foydalanishda ko'mak berishdan iborat.

### **3.3 Tijorat banklari passivlari va aktivlari bilan bog'liq risklarni boshqarish. GEP - tahlil orqali foiz riskini boshqarish.**

Bankning "Oltin qoidasi"ga ko'ra, bank moliyaviy talablarining hajmi va muddati bank majburiyatlari miqdori va muddatiga mos kelishi kerak. Bu qoidaga rioya qilib, banklar joriy schetlar bo'yicha qoldiqlarni kredit resursi sifatida ishlata

olmaydilar, chunki mijozlar ularni xohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin. Bankning naqd pul rezervi omonatlarga nisbatan shakllanadi.

Foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan aktiv va passivlar o'rtasidagi miqdorning uzilishi pullik GEP (yoki bankning sof bahosi) deb nomlanadi va u quyidagi formula orqali nomlanadi:

$$GEP = ATF - PTF,$$

Ushbu ko'rsatkich foiz riski darajasini baholash imkoniyatini beradi. Foiz riskini baholovchi boshqa ko'rsatkich GEP munosabat deb nomlanadi (yoki foizli GEP, yoki GEPning ta'sirchanligi):

$$GEP(\%) = ASF / PSF,$$

Ko'rsatkichning kamchiliklari: birinchidan, foiz stavkalarining o'zgarishi bilan bog'liq daromadning o'zgaruvchanligini ko'rsatib bermaydi, ikkinchidan esa bank kattaligini hisobga olmaydi.

GEPni quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Manfiy GEP bank passivlarining foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan bo'lган aktivlariga nisbatan ko'proqligini anglatadi. Bank mablag'larni qisqa muddatga olib, uni uzoq muddatga joylashtirgan holatlar rentabellik hisoblanadi. Shuningdek, bank past narxlardan olib, uni daromadliroquzoq muddatli bozorda kreditga qo'yadi. Manfiy GEP holatidagi bank foiz stavkalarining tushishidan foyda ko'radi. Stavka oshganda, manfiy GEP sezilarli darajadagi foiz riskini vujudga keltiradi, chunki narxlar daromadli aktivlardan ko'rildigan foydaga nisbatan tezroq osha boshlaydi. Inflyatsiya holatlarida manfiy GEP moliyaviy fojealarga olib keladi: daromadlar o'rnini zararlar egallaydi, bankning moliyaviy barqarorligi buziladi, bu esa to'lovga layoqatsizlikka olib keladi.

2. Nolli GEP bankning aktiv va passivlarini muddatlar bo'yicha moslashtirishni anglatadi. Ushbu holatni odatda neytral risk deb nomlashadi. Nolli GEP holatli bank foiz stavkalari o'zgarish jarayonida o'zining portfelida "sarif qilinmaydigan" ssudalarni saqlaydi. Shuni inobatga olish kerakki, aktiv va passivlar bo'yicha foiz stavkalarning bir xilda o'zgarishi sof foiz daromadiga ta'sir qilmaydi. Lekin, ushbu nolli GEP holatida foiz stavkalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lган riskning paydo bo'lish imkoniyati yo'q degani emas. Muammo shundan iboratki, aktiv va passivlar bo'yicha stavkalarning o'zgarishi sinxronlanmagandir. Ssudalar bo'yicha foiz stavkalar bank rahbariyati tomonidan shartnoma asosida belgilanadi, ular esa bozor stavkalari o'zgarishidan orqada qoladi, ayniqsa foiz siklining burilish nuqtalarida. "Nolli qirqilish" taktikasi bankning mohirliik sifatini kamaytiradi, bu esa yuksalish paytlarida bank foydasining o'sishini to'xtatadi va tushish paytlarida esa uning tushishini yumshatadi.

3. Musbat GEP bank aktivlarining foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan bo'lган passivlariga nisbatan ko'proqligini anglatadi. Agar foiz stavkalarining darajasi kamayish tendentsiyasiga ega bo'lsa, bankning foiz daromadi foiz qaytarish to'lovlari xarajatlariga nisbatan tezroq kamayadi. Shu tariqa musbat GEP holatiga ega bo'lган bank foizlar tushishidan zarar ko'radi va uning oshishidan daromad oladi.

Ushbu holatda bankning asosiy vazifasi foiz stavkasini o'zgarishidan samarali foydalanishdir. Foiz stavkalarining o'zgarishida "o'yash"ni istamagan bank GEPni nolli holatga keltirib foiz riskini kamaytirishi mumkin.

5-jadval

### Aktivlar va passivlarning to'lov muddati va strurturasining GEP tahlili.

GEP	Foiz stavkasi ning kutilayot-gan o'zgari shi	Hisoblash formulasi	Aktivlar portfeli	Mablag'lar bilan ta'-minlanishi	1-passivlar va aktivlarga ta'sirchanligi	3-Bankning foyda si
Manfiy	O'sish	ASF<PSF	Qisqa muddatli (uzoq muddatli) aktivlar	Qisqa muddatli (uzoq muddatli) passivlar	1 Passivlar aktivlarga nisbatan oldin qaytabaholanishi kerak	Passivlar bahosining tushishi dan
	Kamayish		Uzoq muddatli aktivlar	Uzoq muddatli passivlar		
Nolli	O'sish yoki kamayish	ASF=PSF	Muvozanatlan gan aktivlar	Muvozanatlangan passivlar	2 Neytral pozitsiya	-
Musbat	O'sish	ASF>PSF	Uzoq muddatli (qisqa muddatli) aktivlar	Uzoq muddatli (qisqa muddatli) passivlar	1 Aktivlar passivlarga nisbatan oldin qaytabaholanishi kerak	Mavjud qimmat bo'lma gan passivlar hisobiga
	Kamayish		Uzoq muddatli aktivlar	Qisqa muddatli passivlar		

Shu bilan aktiv va passivlarni boshqarish maqsadi ko'rsatilgan risk darjasida foiz daromadlarini maksimallashtirishdan iborat yoki berilgan foiz daromadi darjasida riskni minimallashtirishdan iboratdir. Bank menejmenti sohasidagi maslahatchi D.Keyts shuni tasdiqlaydiki, bankning ideal holati- bu potentsial balanslangan holatda bo'lishi kerakki, bu holat foiz stavkasi dinamikasiga mos kelishi kerak. Ushbu ta'rif bozor o'zgarishini prognoz qilish yaxshi yo'lga qo'yilgan yirik bo'lgan banklar uchun mos keladi. Aks holda bank katta zararlar ko'rishi mumkin.

GEP tahlili orqali foiz riski darajasini tahlil qilish mumkin. Lekin uni tahlil qilish jarayonida quyidagi keltirilganlarga e'tibor berish lozim:

1. kelgusidagi foiz stavkalarining yo'nalishini aniqlash maqsadida prognozlashning zamonaviy usullaridan foydalanish zarur;

2. foiz stavkalarining darajasini aniq hisoblab chiqish mumkin emas. Shuning uchun tahlilning variantli usulidan foydalanish zarur.

3. GEP tahlili aktiv va passiv operatsiyalar bo'yicha pul oqimlari xarakati vaqtini hisobga olmaydi. Shundan kelib chiqib, GEP tahlil va davomiylik tahlilini birgalikda qo'llash tavsija qilinadi.

**BA/P ijobiylar** va salbiy bo'ladi. **Ijobiy BA/P** da o'zgaruvchan stavkalardagi aktivlar o'zgaruvchan stavkalardagi passivlardan yuqori bo'ladi. Ijobiy BA/P da foiz stavkasining pasayishi foiz marjaning pasayishiga olib keladi va aksincha. **Salbiy BA/P** da o'zgaruvchan foiz stavkalardagi passivlar, o'zgaruvchan foiz

stavkalardagi aktivlardan oshib ketadi. Bu holatda foiz stavka pasaysa marja o'sadi, foiz stavka oshsa marja kamayadi.

**Bankning foiz siyosatini amalga oshirish bosqichlari:**

1-bosqich - past foiz stavkalar (o'sish kuzatilmogda):

- qarz mablag'lari muddatini oshirish;
- fiksirlangan stavkalardagi kreditlarni qisqartirish;
- portfel investitsiyalar muddatini qisqartirish;
- qimmatli qog'ozlarni sotish;
- uzoq muddatli qarzlarni sotish;
- kredit liniyalarni yopish.

2-bosqich - o'suvchi foiz stavkalar (maksimal o'sish kuzatilmogda);

- qarz mablag'larni muddatini qisqartirish;
- investitsiyalar muddatini uzaytirish;
- fiksirlangan stavkalardagi kreditlar ulushini oshirish;
- qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushini oshirish;
- fiksirlangan stavkalardagi qarzlarni muddatidan oldin qaytarish.

3-bosqich - yuqori foiz stavkalar (pasayish kuzatilmogda):

- qarz mablag'lari muddatini qisqartirish;
- fiksirlangan stavkalardagi kreditlarni ulushini oshirish;
- investitsiyalar portfeli muddatlarini oshirish;
- aktivlarni sotish rejasini tuzish.

4-bosqich - kamayuvchi foiz stavkalar (minimal tushish mumkin):

- qarz mablag'lari muddatini uzaytirish;
- investitsiya muddatlarini kamaytirish;
- o'zgaruvchan foiz stavkalardagi kreditlar ulushini oshirish;
- qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni kamaytirish;
- uzoq muddatli qarzlarni oshirish.

### **3.4 Operatsion risk bo'yicha BAZYEL qo'mitasining tavsiyalari va talablari.**

Bazel qo'mitasi **operatsion riskni** ichki jarayonlar va tizimilarning nomuvofiqligi, xodimlarning mas'uliyatsizligi yoki boshqa tashqi omillar hisobiga yuzaga keladigan havf-xatar deb baxolaydi. Mazkur tushuncha bank va uning xodimlari tomonidan qonunchilikka, ahloqiy me'yorlarga, shartnoma majburiyatlariga rioya etmaslik hamda sud jarayonining ko'zg'atilishi tufayli yuzaga keladigan huquqiy riskni ham ko'zda tutadigan doimiy va alohida nazoratni olib borishi lozim.

Bazel qo'mitasi kredit tashkilotlarida operatsion risklarni boshqarishning quyidagi asosiy printsiplarini belgilagan.

1-Printsip. Direktorlar kengashi barcha tashkilotlarda operatsion risklarni boshqarish madaniyatini yuksaltirish.

2-Printsip. Banklar risklarni boshqarish jarayonini to'liq o'rganishlari va boshqarish sistemasini yaratishlari kerak.

**3-Printsip.** Direktorlar kenghashi riskni boshqarish sistemasini qayta ishlab chiqishlari va ijro organlari ustidan nazorat qilishlari kerak.

**4-Printsip.** Direktorlar kengashi risklilik darajasini belgilashlari kerak.

**5-Printsip.** Ijro organlari direktorlar kengashi uchun aniq, samarali va barqaror boshqarish uslubini qayta ishlab chiqishlari kerak.

**6-Printsip.** Ijro organlari risk omillarini aniq belgilash maqsadida operatsion riskning to'g'ri baholashlari kerak.

**7- Printsip.** Ijro organi operatsion risk bilan bog'liq yangi ma'lumotlar kiritilishini t'minlashlari kerak.

**8- Printsip.** Ijro organi operatsion riskning doimiy monitoringini hamda bo'limlar xisobot tizimini tashkil etishlari kerak.

**9-Printsip.** Ichki nazorat tizimini barqarorligini va risk darajasini kamaytirish tizimini ishlab chiqishlari kerak.

**10- Printsip.** Operatsion risklar mavjud bo'lganda bankda ish faoliyati uzluksizligini ta'minlovchi rejalarining ishlab chiqilishi zarur.

Risk xolatlarini 2 ta yirik toifaga bo'lish mumkin:

- tez-tez uchrab turadigan va kam yo'qotishlarga olib keladigan risklar
- kam uchraydiganb ammo katta yo'qotishlarga olib keladigan risklar.

Ko'p hollarda qiymat va baho hisob-kitob yo'li bilan aniqlanishi lozim, asoslangan hisob-kitob qiymatlaridan foydalanish moliyaviy hisobotni tuzishning muhim qismi hisoblanadi va uning ishonchliliga putur yetkizmaydi. Biroq, asoslangan hisob-kitob qiymatini olish imkon bo'limgan taqdirda, modda bosh kitobda, balans yoki foya va zararlar to'g'risidagi hisobotda tan olinmaydi.

Taxlillarga tayangan holda shuni aytimiz mumkunki "Iqtisodiy inqiroz vaqtida Amerika tijorat banklarining yillik sof foydasi tarmoqlar bo'yicha foydaning ko'p miqdori rezervlarni boy berishda sezilarli darajada tushib ketdi"<sup>45</sup>, - deb iqtisodiy manbalarda keltirilgan.

Shuningdek, operatsion risklarni boshqarishda riskni baholashning miqdoriy va samarali uslublari mavjud. Masalan, bankning savdo operatsiyalarida xisob-kitob xatolariga tez-tez yo'1 qo'yishadi, ammo ularni statistik modellashtirish mumkin. Boshqa xolatlar kamroq uchraydi, ammo modellashtirilmaydi. Bularga masalan terrorlik aktlari, tabiiy ofatlar va savdo soxasidagi firibgarliklar kiradi.

Samarali uslublarga:

- yo'qotishlar to'g'risidagi xisobotlar
- boshqaruv nazorati
- xodimlarni so'roq qilish
- ishdan bo'shash sababini aniqlash
- boshqaruvchilarning o'ziga yuqori baho berishi
- ichki audit

Miqdoriy uslublar bankda operatsion risklarni oldini olish uchun kapitalni taqsimlash maqsadida ishlab chiqilgan.

<sup>45</sup> "Profits and Balance sheet developments at U.S. Commercial Banks in 2009" by Seung Jung Lee, Jonathan D. "Federal Reserve Bulletin" 2010.

“Bazel II” kelishuviga ko’ra yirik banklar operatsion riskka nisbatan kapitalga bo’lgan talabni baxolashda o’zining ichki modeliga asoslanadi.

Bu kelishuvdan so’ng operatsion riskni baholovchi bir nechta mustaqil tadqiqodlar olib borildi.

Kam uchraydigan ammo katta zarar keltiruvchi risklar mol-mulkni sug’urta qilish va baxtsiz xodisadan sug’urtalanish uchun ishlab chiqilgan usullardan foydalananish bilan modellashtiriladi. Tez-tez uchraydigan risklarda ko’proq statistik analizga e’tiborni qaratishadi.

Statistik modellashtirish uchun esa ma’lumotlar kerak bo’ladi. Operatsion riskda 2 xil turdag'i ma’lumotdan foydalaniлади.

- Oldingi zararlar to’g’risidagi ma’lumotlar
- Risk indikatorlari to’g’risidagi ma’lumotlar

Quyidagi holatlar zararga olib kelishi mumkin: ish jarayonidagi xatoliklar, kichik firibgarliklar, mijozlarning da’vosi va b. Yo’qotishlar bevosita( masalan o’g’rilik natijasida), yoki bilvosita( bankning obro’yiga putur yetkazgan xolatda).

Ularni 3 toifaga bo’lish mumkin:

- Xodisa
- Sabab
- Natija

Masalan bajarilmagan ishlarni xodisa misolida ajratish mumkin. Bunga sabab mas’uliyatsizlik bilan yondashish, kompyuter tizimidagi muammolar yoki xodimlarning charchab qolishi. Natijada bozorni yo’qotishga erishish, kontragentga to’lov o’tkazish, da’vo berish yoki bank obro’siga putur yetishi mumkin. Barcha holatlarda bir nechta sabab va oqibatlari bo’ladi. Buni oldini olish uchun esa xodimlarni qayta o’qitish, mutaxassislarni chuqur tayyorlash hamda zarur tarmoqlarni rivojlantirish kerak.

### **3.5 Tijorat banklarining fond bozoridagi operatsiyalari riski va portfel riskini baholash va boshqarish.**

“Portfel nazariyasi” (Portfolio Theory)ning 3ta asosiy kontseptsiyasi mavjud. Ular quyidagilardir:

1. Riskdan qochish (Risk Aversion) kontseptsiyasida aktsiyador va investorlar imkoniyat paydo bo’lishi bilanoq, doimo riskdan qochishga intilishadi. Bu kontseptsiya “kamayib boruvchi samara” (Diminishing Utility) qonuni bilan bog’liq, ya’ni kapital summasi qanchalik katta bo’lsa, aktsiyadorda uni o’stirish istagi shunchalik kamayib boradi;

2. koordinata tizimida joylashgan samaradorlik darajasining “mustaqil egri chiziqlari” (Indifferentse Curves) kontseptsiyasi. Mustaqil investitsiyalar (investitsiya portfellari), ya’ni “mustaqil egri chiziqlar” o’zida samaradorlik darajasini aks ettiradi. Ularning yordamida bank tashkiloti rahbariyati daromad va risklar darajasini tartibga solib boradi;

3. “kapitalni taqsimlash” (Kapital Rationing) kontseptsiyasi investitsiyalarni sun’iy ravishda cheklash (shu jumladan, davlat tomonidan ham) mavjud bo’lgan shart-sharoitlarda ishlatilishi mumkin. Bu holatda bank ba’zi-bir loyihalarga,

agarda ularni foydali deb topsa ham, o’z pullarini kiritish imkoniyatiga ega bo’lmaydi.

Portfel riski darajasi ko’p hollarda umumbozor narxlarning tushishi riski bilan bog’liq. Umumbozor baholarining tushishi riski – bu ba’zi-bir moliyaviy aktivlar bo’yicha daromad olmaslik riskidir. Bu ko’p hollarda bozorda muomalada bo’lgan barcha qimmatli qog’ozlarning baholarini bir vaqtida pasayishi bilan bog’liq bo’ladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bozorni o’rganuvchi firmalar (masalan, “Standart end Purs”) borki, ular turli qimmatli qog’ozlarning portfel riski darajasini tahlil qilib boradilar. Qimmatli qog’ozlar ishonchligining quyidagi tasnifi mavjud: AAA, AA, A, VVV, VV, V.....D. AAA.....VVV kategoriyaga kirgan qimmatli qog’ozlar kamroq riskka tortilgan bo’lsa, D kategoriya esa nominal qiymatning qaytishini ham kafolatlamaydi, ya’ni asosiy kapital qiymati kelishilgan muddatning oxirida katta savol ostida qoladi.

Albatta, risk va daromadlilik darajalari o’rtasidagi aniq bog’liqlik rivojlangan va barqaror bozorda aniq-ravshan ko’rinadi. Xususiy firmalar va aktsiyadorlik korxonalarining qimmatli qog’ozlari davlat obligatsiyalariga nisbatan riskka ko’proq tortilgan. Davlat nazariy va amaliy jihatdan bankrot bo’la olmaydi, chunki uning qarz majburiyatları bo’yicha daromad butun mamlakatning boyligi bilan kafolatlanadi. Ayni paytda, nodavlat, aktsioner va venchur korxonalari sharoitlarga tez moslashuvchan va samaralidir, biroq bankrotlik darajasi yuqoriqoqdir.

Tijorat banklari portfellarini boshqarishning asosiy yo’nalishlari bo’lib, bank portfellari bilan bog’liq yo’qotishlarning oldini olish yoki minimallashtirish bo’yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Bu riskni boshqarishning strategiyasini yaratishni ko’zda tutadi. Bunda bank rivojlanishining barcha imkoniyatlaridan o’z vaqtida va bosqichma-bosqich foydalanish va ayni paytda risklarni o’ziga qulay va boshqariluvchi darajada saqlab turish ko’zlangan holda qaror qabul qilish siyosatining asoslari ishlab chiqiladi.

Riskni minimallashtirish yo’qotishlarga olib keluvchi voqeа va hodisalarning ro’y berish ehtimolligini kamaytirish va potentsial zararlarning miqdorini kamaytirish (cheklash)ga qaratilgan tadbirlar majmuasini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Bank amaliyotida portfel riskini boshqarishning bir nechqa usullari ishlab chiqilgan. Ular quyidagilardir:

1. bosh tortish;
2. aktiv va passivlarni boshqarish;
3. diversifikatsiya;
4. sug’urtalash;
5. xedjirlash.

*Bosh tortish* bank tomonidan riskli tadbirlarni amalga oshirishdan o’zini olib ochishdir. Biroq, odatda, moliyaviy tadbirkorlik uchun riskni qabul qilishdan bosh tortish yaxshigina foyda olish imkoniyatini pasaytiradi. U riskni qabul qilish (yutish) va limitlashtirishni o’z ichiga oladi.

Riskni qabul qilish (yutish)da ziyon tan olinadi, biroq u sug'urtalanmaydi. Riskni qabul qilish (yutish), zarar summasi kam miqdorda bo'lsa va uni hisobga olmaslik imkoniyati bo'lganda qo'llaniladi.

Limitlashtirish – limit belgilash, ya'ni xarajatlar, savdo-sotiq, kreditlarning chegeraviy summasini o'rnatishdir. Limitlashtirish risk darajasini pasaytirishning muhim usuli bo'lib, banklar tomonidan ssudalar ajratish, overdraft shartnomasi tuzish, investitsion faoliyat va boshqa hollarda qo'llaniladi. Strategiya qanchalik agressiv bo'lsa, yo'qotishlarning reja bo'yicha chegarasi shunchalik yuqori bo'ladi. Agressiv siyosatda yo'qotishlarning chegarasi bo'lib korxona kapitali hisoblansa, konservativ siyosatda esa korxona foydasi hisoblanadi.

Limitlarning quyidagi turlari mavjud:

- tuzilmaviy limitlar;
- kontragent limitlari;
- ochiq pozitsiya limitlari;
- bitimni bajaruvchilar va nazorat qiluvchilar uchun limitlar;
- likvidlilik limitlari.

Tuzilmaviy limitlar operatsiyalarning turli shakllari o'rtasidagi nisbatni ta'minlaydi: kreditlash, banklararo kreditlar, qimmatli qog'ozlar va h.k. Jami aktivlar umumiy summasiga nisbatan foizda belgilanadi, ya'ni qat'iy xarakterga ega emas, balki jami aktivlar hajmining o'zgarishida umumiy nisbatlarni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking 2008 yil 27 dekabrdagi "Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 30/2-sonli Nizomida belgilanishicha, tijorat banklari qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va yuridik shaxslarning ustav kapitalida ulushli ishtirok etishda quyidagilarga rioya etishlari shart:

A) bankning muayyan yuridik shaxs ustav kapitaliga, shuningdek ushbu yuridik shaxsning boshqa qimmatli qog'ozlariga kiritgan investitsiyalari miqdori 1-darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak;

B) bankning yuridik shaxslar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog'ozlarga kiritgan investitsiyalari miqdori 1-darajali bank regulyativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak;

V) oldi-sotdi uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga kiritilgan bank investitsiyalari miqdori 1-darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

